



Бош илмий-методик  
марказ

FARG'ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI



# “O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI: YANGICHA QARASHLAR VA TRANSFORMATSION YONDASHUVLAR” MODULI BO‘YICHA

## O‘QUV –USLUBIY MAJMUUA



t.f.b.f.d.(PhD), dotsent  
S.Yo‘ldoshev.

**2024**

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** t.f.b.f.d.(PhD), dotsent S.Yo'ldoshev

**Taqrizchi:** t.f.d., dotsent B.Usmonov- FarDU "O'zbekiston tarixi" kafedrası professori, t.f.d.

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	.....
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	.....
<b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	.....
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	.....
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	.....
<b>VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....</b>	.....
<b>VII. GLOSSARIY.....</b>	.....
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	.....

**O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va transformatsion yondashuvlar**  
**FANINING ISHCHI O‘QUV DASTURI**

**O‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

«O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va transformatsion yondashuvlar» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

-O‘zbekiston davlatchiligi tarixining asosiy bosqichlari; O‘zbekiston davlatchiligi tarixining ma’lum bir tarixiy hodisalari; jahon tarixida O‘zbekistonning o‘rni;

-Zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan inergatsiyasi; tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan O‘zbekiston davlatchiligi tarixi muammolarning ishlab chiqilishi jarayonlarini *bilishi* kerak;

- tinglovchi O‘zbekiston davlatchiligi tarixiga oid huquqiy-meyoriy asoslarini bilish, O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid qonun-hujjatlar bilan tanishish va ushbu fanga doir barcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish.

- O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlash; tarix fani ijtimoiy tafakkur mahsuli ekanligi, ijtimoiy fanlar rivojida tarix fanining muhim voqealar bilan bog‘liqligini bilish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi* kerak.

**2. «O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va transformatsion yondashuvlar» fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlari**

No	Mavzulari	Ma’ruza	amaliy
1.	Kirish. Davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi	2	
2.	Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi		2
3.	O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli		2
4.	O‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvi	2	
5.	Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji		2
6.	So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma’muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi	2	
7.	Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi. O‘zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida	2	
8.	Mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishi		2
	Umumiy soat: 16	8	8

**JAMI: 16 soat**

Maruza mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akademik guruhlar oqimi uchun o‘tiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o‘tiladi., “Keys-stadi” texnologiyasi ishlatiladi,

keysalar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

##### **1. I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

#### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

10. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: SHarq, 2000.
11. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
12. Sagdullaev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
13. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – T.: Uzbekistan, 2009.
14. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). – T.: Ma'rifat, 2009.
15. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: SHarq, 1998.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

16. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa'dayn va majmua ul bahrayn. T.: Fan, 2008.
17. Abduraxmon To'le. Abulfayzxon tarixi. - T.: Fan, 1959.
18. Abduxoliq Abdurasul o'g'li. CHin va Mochin. – T.: Fan, 2006.
19. Abu Ali Ibn Sino. Donish-name. Kniga znaniy. - Dushanbe, 1957.
20. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi. - T.: Kamalak, 1995.
21. Abu Djafar Muxammad at-Tabariy. Istoriya at-Tabariy T.: Fan, 1987.

22. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T., 1993.
23. Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlanma asarlar I jild. - T.: Fan, 1968.
24. Abulg'azi. Shajarai turk. - T.: CHo'lpon, 1990.
25. Avesto / Asqar Maxkam tarjimasi. – T.: SHarq, 2001. – 383 b.
26. Ali Kushchi. Astronomicheskiy traktat. Samarkand. 1970.
27. Askarov A. Eng qadimgi shahar. - T., 2001.
28. Axmedov B.A. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. - T., 2003.
29. Axmedov B.A. O'zbek ulusi. - T.: Meros, 1991.
30. Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. -T., 1998.
31. Bo'riev O. Xorazmshohlar-Temuriylar. - T., 1999.
32. Gaspinskiy I. Hayot va mamot masalasi. –Toshkent, Ma'naviyat. 2006.
33. Gerodot. Istoriya. V devyati knigax / Per. s grecheskogo i komment. G.A.Stratanovskogo. – M.: OLMA-PRESS Invest, 2004. – 639 s.
34. Giyasiddin Ali. Dnevnik poxoda Temura v Indiyu. -M. 1958.
35. Gornenskiy I. Таупы империи Чингизхана. -M.; 2004.
36. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati.- T., 1999.
37. Jabborov I. O'zbeklar. – T.: SHarq. 2008.
38. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T., 1964.
39. Ziyoev H.Z. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – T.: Ma'naviyat. 2008.
40. Ibn al-Asir. Al-Komil fi-t-a'rix. – T.: O'zbekiston. 2006.
41. Ibn Arabshoh. «Amir Temur tarixi». -T.: Mehnat 1992.
42. Imom al-Buxoriy hayoti. - T., 1998.
43. Istoriya Uzbekistana. – T.: Fan, 2012.
44. Kvint Kursiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo. - M., 1963.
45. Qur'oni Karim. T.: YOzuvchi, 1992.
46. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. - T., 1999.
47. Maxmud Qoshg'ariy. Devoni lo'g'oti turk. 1-3 jildlar. -T.: Fan 1960-1963.
48. Marg'ininoy. Al-Hidoya. - T., 2001.
49. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. - T., 1994.
50. Murad Adji. Evropa, Tyurki, Velikaya step. – M.: AST, 2004. – 480 s.
51. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. -T.: 1994.
52. Muhammadiyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. / Fors tilidan tarjima, izohlar mualliflari I. Bekjonov, D. Sangirova. – Toshkent, YAngi asr avlodi. 2009.
53. Pardaev A. Davlat va davlatchilik g'oyasi. – T.: Fan, 2007.
54. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kultura Sentralnoy Azii. - T., 2005.
55. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. - T., 2001.
56. Sagdullaev A.S. Poxod Aleksandra Makedonskogo v Sogdianu. –T., 2007.
57. Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubeleyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. - Samarqand-Toshkent, 2007.
58. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. - T.

## **Elektron resurslar:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

[www.edu.uz](http://www.edu.uz).

[www.google.uz](http://www.google.uz).

[www.fvat.uz](http://www.fvat.uz).

[www.turklib.uz](http://www.turklib.uz).

[www.mirknig.ru](http://www.mirknig.ru)

## **Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar**

### **AQLIY HUJUM METODI**

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni echishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchunmuammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

ko'p har xil ma'nodagi echim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

#### **INSERT TEXNIKASI**

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktive- interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun Effective – samarali Reading – o'qish and– va Thinking – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(-) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

#### **PINBORD TEXNIKASI**

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni echish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

#### **KEYS–STADI METODI**

**KEYS** – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni echish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi o'qitish vositasi.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor echimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda echiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va

talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni echish uchun kerakli va etarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak

- keysni echish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

**Keys–stadi** (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimetodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo echimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)

2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:

- savolli ( savollar keysdan keyin keltiriladi)

- topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

### **O'QUV LOYIHA METODI**

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy echimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

### **GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR**

**KLASTER** (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

#### **Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'igayo'riqnoma**

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.



3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?» SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


- 1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.
- 2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI» CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«**QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI** - muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning echimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**«Qanday?» diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo echimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo‘ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga echilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

*Maslahat va tavsiyalar:*

YAngi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni echimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.


«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo‘nikmalarini shakllantiradi.

**«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat;



2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g‘oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g‘oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o‘tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o‘tkazing. SHunday qilib, ular har biri, o‘z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

# **1-Mavzu. Kirish. Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.**

## **REJA.**

**1.Kursning predmeti, uni o'rganishning asosiy maqsad va vazifalari.**

**2.“Davlat tushunchasi”**

**3. Ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish va xo'jalik boshqaruvining tashkil topishi.**

**4.Ilk shaharnoma sivilizatsiyasining vujudga kelishi va Ushbu jarayon boshqaruvining shakllanishi.**

## **Tayanch iboralar**

Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “SHarq yo'li”, mulkchilikka asoslangan “Evropacha yo'li”. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.

### **1.Kursning predmeti, uni o'rganishning asosiy maqsad va vazifalari.**

Yunon tilidagi «istoriya», arab tilidagi «tarix» so'zi o'zbek tilida tadqiqot, voqealar bayoni ma'nolarini beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fani insoniyat o'z taraqqiyot bosqichlari davomida bosib o'tgan davrlarni, erishgan yutuqlari va yo'l qo'yilgan xatolarini, ularning sabablari hamda oqibatlarini tadqiq etadi. O'zbekiston xalqlari tarixi fani esa xuddi shu jarayonlarning vatanimiz hududida qanday kechganligini, o'lkamiz tarixining jahon taraqqiyotida tutgan o'rnini va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Vatanimiz tarixi uzoq ming yilliklarga borib taqaladi. O'zbekiston eng qadimgi odamlar yashagan hududlardan biri hisoblanadi. Eng qadimgi ajdodlarimizning takomillashib, rivojlanib borishi, dastlabki davlat birlashmalarining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, diniy e'tiqodlar,yozuv, ilm-fan, san'at va adabiyotning rivoj topishi, vatan ozodligi uchun olib borilgan qahramonona kurashlari tarixini O'zbekiston xalqlari tarixi fani o'rganadi.

O'zbekiston xalqlari tarixini sidqidildan o'rganish, bizni vatanimizni sevishtga, uning har bir qarich erini qadriga etishtga, qaramlik azobining naqadar ayanchli ekanligini anglashga va mustaqillikni avaylab asrashga o'rgatadi.

### **2.Davlat tushunchasi”**

O'zbekiston davlatchiligining tarixi O'zbekiston istiqbolga erishgandan (1991 yil 31 avgust) so'ng XX asrning 90 yillaridagina tarix fanining yetakchi muammosi sifatida to'la-to'kis o'rganila boshlandi.

O'zbek davlatchiligi yuzaga kelishining tabiiyligi rivojlanishining o'ziga xosligi va an'anaviyligi ayrim davrlarda o'zga davlatlarning bu hududda hukmron bo'lganligiga qaramasdan uning yangi asosda tiklanishini belgilovchi omillaridan biri bo'ldi.

Mazkur muammo ilmiy tadqiq etishning muhimligi va yangiligini ta'kidlar ekanmiz, biz oldingi yillarda mamlkatimizdagi va chet eldagi olimlarning qator avlodlari amalga oshirgan muhim tarixiy tadqiqotlarni inkor etmaydi.

Biroq ular o'zgacha sharoitlarda boshqa mafkura va metodologiya asosida yozilgan va o'zgacha mazmun va mohiyatga egadir. Jumladan, o'zga davlatlarga qaram millatlarni tarixini adaolatli yoritib bo'lmas edi. Chunki, SSSR hududida davlatchilik yagona bo'lib, “mayda” millatlarning o'tmishi, hozirgi davri haqidagi tarixini keng yoritishga yo'l qo'ymagan.

“Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Biroq ular tomonidan yaratilgan tarix darsliklarni o'qir edik”- deganlaridan haq gapni etgan edi. (Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” T. “O'zbekiston” 1998 y. 4 bet. )

1991 yil avgustdan boshlab Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng Vatan tarixini har tomonlama o'rganishga kirishdik. Sobiq SSSR davridagi darsliklar qaytadan ko'rib chiqilishiga erishildi.

Biroq o'zbek davlatchiligi tarixi muommosini aniq bir maqsadga yo'naltirilgan holda ta'qiq etish faqat 1999 yildan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi “

O'z.RFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish ” qaroridan so'ng boshlandi. 2000 yildan boshlab tarixchi va shu sohaga oid muammolari hamkorligida “O'zbek davlatchiligi tarixi” deb atalgan so'ngi bronza (mil. 3-2 ming yilliklar) davridan hozirgi davrgacha bo'lgan o'ch ming yillik davrini qamrab oluvchi fundamental tadqiqotlarni yaratishga kirishilgan.

O'zbek davlatchiligi tarixini yoritishda nazariy me'morchilik asoslarini bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiylik , holislik , tarixiylik metodlari o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishning kaliti hisoblanadi.

Birinchidan, O'zbek davlatchiligi tarixini yaxlit konsepsiyasini amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni, nisbatan mustaqil bo'lgan bo'laklarga , ya'ni davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Mustaqillik yillarida to'plangan tarixiy hujjatlarni ilmiy asosda umumlashtirishdan iborat.

Ikkinchidan, ilmiylik bilan birga u yoki bu masalalarni voqeliklarni yoritishda holislik muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir tarixiy hodisalarni tahlil qilayotganda xolis, haqqoniy ravishda o'rganish. Ya'ni O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi voqea hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutilgan.

Xolislik talab etadigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo'nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixini turli davrlarida) o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarni hech bir o'zgarishsiz, qanday bo'lib o'tgan bo'lsa o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o'ta muhimdir. Bu borada aniq manbaviy asoslarga tayaniish tarixiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini asoslash lozim.

Uchinchidan, O'zbek davlatchilik tarixini o'rganishning metodologik asoslaridan yana biri bu voqea hodisalarni dialektik tarzda o'rganishdir.

Dialektika, olamning yaxlit, unda sodir bo'ladigan xodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi deb ta'lim beradi. Bu metod davlatchilik tarixini o'rganishda uni to'raligicha, voqea hodisalarni bir-biri bilan bog'liqlikda, ayrim tarixiy voqealarni bir butunlikda o'rganishni taqozo qiladi.

Voqea va hodisalarning turixini o'rganishda jahon xalqlari tarixini bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Chunki, eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o'tmishga qadar O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o'rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi.

To'rtinchidan, O'zbek davlatsilik tarixini o'rganishda tarixiylik metodi ham alohida o'rin egallaydi. Bu metod davlatchilik tarixida sodir bo'lgan voqea hodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqea –hodisa bilan boshqasini sabab oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Bu metod voqea hodisalarni qay tarzda sodir bo'lganini jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularni roli to'g'risida to'g'ri haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi. Xalqni o'tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida qarashni talab etadi.

Darhaqiqat, xar bir xaq o'zi bosib o'tgan haqiqiy tarixini bilmay turib o'zlikni anglash mumkin emas.

### **3.Ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish va xo'jalik boshqaruvining tashkil topishi.**

Zero, davlatchiligimizning ko'p ming yillik taraqqiyot yo'lini o'rganish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo hududlari, jumladan O'zbekiston hududlari dunyoning eng qadimgi odamlar yashagan makonlardan biridir. Bu hududlarda odamlar qachondan boshlab yashay boshlangan degan savolga bir qancha javoblar beriladi. Ba`zilar dastlabki odamlarning izlari bundan 500 ming yil ilgari topilgan deyishsa, boshqalar 800 ming yil ilgari yashagan deyilar.

Farg'ona vodiysida Selung'ur g'oridan paleolit davriga oid odam qoldiqlari topilgandan keyin bu hududlarda qadimgi ajdodlarimiz 1 million yildan ham ilgariroq yashaganliklari isbotlandi.

Umuman O'zbekiston hududlari dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lganligi shubxasizdir. Markaziy Osiyoning qulay geografik tuzilishi, iqlim sharoitlari bu hududda yashash uchun g'oyat qulay sharoit yaratgan.

O'zbekiston hududlaridan juda ko'plab qadimgi davrga oid arxeologik yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklardan qazib olingan moddiy ashyolar qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy

turmushi haqida boy ma`lumotlar beradi. Arxeologik manbalar taxlili xulosasiga ko`ra O`zbekiston hududlaridagi qadimgi ajdodlarimiz asosan daryo buyi manzilgohlarida yashaganlar. Ovchilik, termachilik bilan bir qatorda xunarmandchilik bilan to`la-to`kis vujudga keldi. Daryo bo`ylarida yoki vodiylidagi tekis dehqonchilikka qulay yerlarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan.

Sun`iy sug`orishga asoslangan dehqonchilikka o`tish O`zbekiston hududlarida eramizdan avvalgi 3 ming yilliklarda paydo bo`ldi. Dehqonchilikning rivojlanishi odamlarning o`troq xayot kechirishi jarayonini kuchaytiradi. Bu xol madaniyatning iqtisodiy va ijtimoiy asoslarining tezkorlik bilan rivojlanishiga olib keldi. Endi qadimgi ajdodlarimiz urug` jamoasi asoslari bo`yicha emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari asosida guruhlashib yashaganlar. Ma`lum manzilgoxlarda patriarxal tizim asosida yuzdan ortiq oilalar birlashganlar va bu oila jamoani boshqarish ular orasidan saylangan oqsoqol ixtiyorida bo`lgan. Eng qadimgi yozma yodgorlik bo`lmish “Avesto”da oqsoqollar kengashi Nmanapati nomi bilan qayd qilingan. Bu katta oila boshlig`i degan ma`noni bildiradi. Oqsoqollar kengashi katta kuchga ega bo`lgan. Ularning qo`lida diniy va dunyoviy hokimiyat birlashgan. Sinfy tabaqalanish jarayoni kuchaygan sari jamiyatni boshqarish og`irlashib borgan.

#### **4. Ilk shaharnoma sivilizatsiyasining vujudga kelishi va Ushbu jarayon boshqaruvining shakllanishi.**

Eradan avvalgi 1-ming yilliklarga kelganda ibtidoiy jamoa tuzumi o`zining oxirgi bosqichini o`tayotgan edi. Temirning kashf qilinishi ibtidoiy jamoa tuzumini buzub yubordi. U dehqonchilik va xunarmandchilikning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatdi, chorvachilik dehqonchilikdan tamoman ajralib chiqdi. Xunarmandchilikning rivojlanishi bois ilk shaharsozlik madaniyati belgilari – bozorlar paydo bo`lib keng ko`lamli mol ayirboshlash kuchaydi. Natijada O`rta Osiyoda ilk shahar davlatlar vujudga keldi. Shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan xunarmandchilik va binokorlik xam taraqqiy eta boshladi. Shahar davlatlarda savdo-sotiq, mol ayirboshlash jarayonlari tabora boshlanib rivojlanib, kengayib bordi.

O`zbekiston hududlaridagi bronza va temir davridagi yodgorliklari komplekslarini o`rganish bu hududda iqtisodiyot va madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etganini va bu yerda qadim davrlardanoq sinfiy jamiyat shakllana boshlaganini ko`rsatadi. Shuni qayd etib otmoq joizki, Markaziy Osiyodagi quldorlik jamiyati ikki daryo oralig`i va Misrdagi quldorlik singari taraqqiy etmagan. Bu yerda qulchilik ukhad sifatida mavjud bo`lsada, jamoa mavqei katta bo`lganligidan u taraqqiyotning yuqori chuqqisiga ko`tarila olmagan. Shu bois, Markaziy Osiyodagi qulchilik “Osiyocha ishlab chiqarish usuli” deb talqin qilingan.

Markaziy Osiyoning o`ziga xos tabiiy, geografik va xo`jalik iqtisodiy sharoitlari xususan, bu yerda sug`orma dehqonchilik madaniyatining ustunligi qullar mehnatiga nisbatan dehqonlar mehnatini ustunroq mavqeda bo`lishini ta`minladi.

Ma`lumki, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo`lib qoldi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo`jaligi va hunarmandchiligining tez o`shishiga olib keldi. Daryolarni to`shib to`g`onlar qurib, kanallar qazib, yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi.

O`rgatilgan ishchi hayvonlari qo`shilgan temir tishli omochlar bilan yerni haydashning o`zlashtirilishi, hosildorlikni oshishini, ko`proq mahsulotlar yetishtirishni ta`minladi. Bular insonlarni bir muncha yaxshi yashash olib keldi. Urug`chilik munosabatlar o`zgarib, ikki urug` a`zolaridan tashkil topgan er-xotin juft oilalar rivojlandi. Bir necha juft oilalar uyushib, katta patriarxal oilalar urug` jamoasidan ajralib chiqdi, ularga urug` jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlar ajratib berildi. Shu tariqa urug` jamoasining umumiy xo`jaligi oilalar jamoasiga bo`lindi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataldi.

“Avesto”da ta`kidlanishicha, katta patriarxal oila-“nmana”, yana bir necha “nmana”larning birlashuvi-urug` jamoasi-“vis”ni tashkil etgan. Ma`lum hududdagi qo`shni “vis”larning birikuvidan hududiy qo`shnichilik jamoasi-“varzana”, yana bir necha “varzana”lar jamoasining uyushuvidan qabila-“zantu” tashkil topadi. Bir necha qabilalarning birlashuvi natijasida qabilalar ittifoqi-“daxyu” vujudga kelgan. Arxeolog olim A. Asqarov tomonidan topib o`rganilgan Sherobod cho`lidagi

Sopollitepada bu holatni aynan kuzatish mumkin. Bu yerda o'troq dehqonchilik xo'jaligi asosida tashkil topgan 8 ta katta oila jamoasining qishlog'i, ularni birlashtirgan omil urug'chilik iplari emas, balki birinchi navbatda ishlab chiqarish bo'lgan. Ana shu 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizimi asosida qurilgan 100 dan ortiq juft oilalar bo'lgan.

Katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol-“nmanapati” qo'lida bo'lgan. Demak, Sopollitepada 8 ta oqsoqol bo'lib, ularni birlashtiruvchi oqsoqollar kengashi bo'lgan.

“Avesto”da aytilganidek, “nmana”-katta oila jamoasi, “nmanapati”-katta oila boshlig'i. Agar shu tizmidan kelib chiqqandigan bo'lsak, Sopollitepa qishlog'i aholisi 8 ta “nmana”dan tashkil topgan. “Vis” –urug' jamoasi “vispati” esa ana shu “nmana”larni birlashtirgan oqsoqollar kengashining boshlig'i, urug' oqsoqoli, katta qishloqlarning boshlig'i. Demak, ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo'tabar zotlar-oqsoqollar qo'lida bo'lib, ular jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi orqali hal qilganlar.

Oqsoqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo'lib, u jamoaning kundalik faoliyatidagi xo'jalik masalalarini hal qilgan.

Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida o'zining oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustoz va murabbiy bo'lgan.

Urug'-qishloq oqsoqoli esa oqsoqollar kengashining boshlig'i sifatida butun qishloq ahlini ham boshlig'i hisoblangan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun majburiy bo'lgan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan. Xususiy mulk kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun qoidalari asosida tashkil topishi o'z navbatida mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqardi.

Boylik avvalo jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo'tabar shaxslar qo'lida to'planib boradi. Ular hosildor yerlarni egallaydilar va ko'plab chorva mollariga ega bo'lib, jamoani boshqarganligi uchun ham katta ulush olganlar. Oqsoqollar o'z iste'mollaridan ortiq qolgan mahsulotlarni, mis, oltin, kumush buyumlarga ayribosh qilganlar. Qabilalar o'rtasida hosildor va yaylovlar uchun, chorva mollari uchun urushlar kelib chiqqan. Urushda qo'lga tushgan o'ljalarni ko'p qismini yo'lboshilar va oqsoqollarga berilgan va ular jamiyatda katta mulkka ega bo'lib, ularni zadogonlar deb atashgan.

«Avesto»	Qadimgi fors yozuvlari	Yunon tarixchilari
Mouru	Margush	Marg'iyona
So'g'da, Gava	So'g'uda	So'g'diyona
Baxdi	Baqtrish	Baqtriyona
Xvarizam, Aryonam vayjo	Xvarazmish	Xorasmiya
-	Partava	Parfiyona
Tur, danu	Shak, sak	Saklar, massagetlar

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishi asta –sekin ortiqcha mahsulotlarni ayriboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqardi. Jamoa a'zolaridan ishlab chiqarishning o'zlariga qulay sohalarini talab oldilar. Shu tariqa dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik ajralib chiqqan. Ular o'rtasida o'zaro ayriboshlash bozorlarni keltirib chiqardi. Datlabki shaharlar paydo bo'ldi. Arxeologlar (Afrosiyob) Samarqandning sharqiy qismi, Yerqo'rg'on va Uzurqir (Qashqadaryo vodiysi), Ko'zalaqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo) va boshqa qadimiy shaharlarni o'rganishgan. Qadimiy shaharlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ularda saroylar, qal'alar, hunarmandchilik ustaxonalar, bozorlar bo'lgan. Uni shahar boshliqlari –

hokimlar boshqargan. Shu tariqa jamiyatda sinfiy tabaqalanish avj oldi. Kambag'al va boylarga ajralib ketdi. Uzoq davom etgan bu jarayon hozirgi O'zbekiston hududida ham davlatlarni tashkil topishi uchun shart sharoitlarni tayyorladi.

O'rta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzulmalari to'g'risidagi qadimiy yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan "Avesto" kitobi qadimshunos olimlarning o'lkamizning turli hududlariga olib borilgan qidiruv ishlari, ularning muhim natijalari, muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Qadimimigi Yunon, Rim va Eron manbalari asosida aniq fikrlarni keltirsa bo'ladi. Ulardan Geradod, Polibiy, Ktesiy, Strabon, Arrian kabilarni asarlari, forsiy mixxat yozuvlari. Shuningdek, arxeolog Ya. G'ulomov, S. Tolstov, V. Masson, A. Asqarov, A. Sagdullaev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir.

O'zbek xalqi davlatchiligi yani jamiyat hayotini boshqarish tamoyillariga asoslangan dastlabki siyosiy tuzulmalar o'troq, sun'iy sug'orish dehqonchilik va chorvachilik zaminida bronza davridayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida mil. av 1 ming yillik boshlarida aniqrog'i VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida "Katta Xorazm", "Baqtriya", "So'g'diyona" nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlar barpo bo'lgan.

Xorazm davlati egallagan hudud, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubiga (Marv, Turkmaniston, Xirot (Afg'oniston shimoliy) atroflarigacha yoyilgan.

Mil. av so'ngi ming yillikning boshlariga tegishli Amirobod madaniyati, Quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga hos sun'iy sug'orish inshooti hamda dastlabki shaharozlik timsoli bo'lgan shahar, qal'alar –Qal'alaliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasidan davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlar davlat boshqaruvi yo'li bilangina amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Qadimshunos olim Ya. G'ulomov tomonidan aniqlangan 200 km uzunlikdagi eni bir necha o'nlab metr dan iborat bo'lgan kanal o'zani obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.

Geradod ma'lumotiga qadimda Oks (Amudaryo) daryosi bo'ylab 360dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari suv inshootlari barpo etilib cho'lli, sahro yerlarga suv chiqarilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradod Xorazmga meva sabzavotning, g'allani barcha turlarini yetishtiradigan o'lka deb qayd etgan. Bu ko'hna hudud bag'rida ming yillar davmomida saqlanib kelayotgan ko'plab asori-atiqlar saqlanib yotganligini eslatib o'tgan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Ba'zi bir tahminlarga qaraganda, Xorazmning siyosiy sulolasi Siyovushonlar sulolasi bo'lganligini zikr etadilar.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi – Baqtriya podsholigidir. Uning tarkigida Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoliy –sharqiy qismi, So'g'diyona va Marg'iyona yerlari kirgan.

Rim tarixchisi Kurtsiy Rufning fikricha, "Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi chiqqan".

Binobarin, "Baqtriyaliklar" juda qadim manbalarda tilga olinib, bir necha qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

Ktesiy ma'lumotiga ko'ra, bu o'lka obi-hayotga mo'l-ko'lligi unumdor yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiyo topgan, aholi bog'dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan.

### **Muammoli savol: Nim uchun Xorazm hududida O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib davlat paydo bo'ldi?**

Qashqadaryo vohasining mil.avv VIII-VII asrlariga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari makonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar.

Yunon tarixchisi Ktesiy va Geradodlarning bergan ma'lumotlariga Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, bu o'lka bitmas-tugamas boyliklar makoni degan edilar.

Shunday qilib, yuqoridagi keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatdiki, davlatchilik jamiyatining ichida o'z ichki qonuniyatlari

ichida asosida paydo bo'ldi, rivojlanadi ya'ni davlat tuzummasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchilik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas .

O'zbekistonda "Voha davlatchiligi", "Shahar davlatlar", Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Mezoamerikadagi "noma" davlatchiligi kabi ilk sivilizatsiya belgilari paydo bo'ldi va rivojlandi. Shular asosida mil. av VIII-VII asrlarda Baqtriya podsholigi va "Katta Xorazm" davlatlari shakllandi.

## **2 Mavzu: Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li", mulkchilikka asoslangan "Evropacha yo'li" Davlatning kelib chiqishi to'grisidagi nazariyalar**

### **REJA.**

#### **1.Davlat va jamiyati.**

#### **2. Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar.**

#### **2. Davlat belgilari.**

### **Tayanch iboralar**

Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimidagi funksiyalar; iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar; harbiy-siyosiy funksiyalar; hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

#### **1.Davlat va jamiyati.**

Davlat tushunchasining nima ekanligini va uning mohiyatini tushunib yetish uchun avvalambor jamiyat, fuqarolik jamiyati tushunchalarini bilib olish kerak bo'ladi.

Demak, jamiyat nima?

Bu kishilar majmuasi bo'lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlariga ko'ra birlashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. «Jamiyat insonsiz boiishi mumkin emas. Insoniyat jamiyatning tuzilishida va uning rivojida asosiy rolni o'ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan»\ Jamiyat birlashishga moyil bo'lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Oila, urug', qabila va millat kabi davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan, siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat va davlat tushunchalari falsafiy katcgoriya bo'lib, ular aslo bir narsa emas. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

Bu kishilar majmuasi bo'lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlariga ko'ra birlashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. «Jamiyat insonsiz boiishi mumkin emas. Insoniyat jamiyatning tuzilishida va uning rivojida asosiy rolni o'ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan» Jamiyat birlashishga moyil bo'lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Oila, urug', qabila va millat kabi davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan, siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat va davlat tushunchalari falsafiy katcgoriya bo'lib, ular aslo bir narsa emas. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

Jamiyatning yana bir ko'rinishi mavjud bo'lib, biz uni fuqarolik jamiyati deb ataymiz. Fuqarolik jamiyati yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zlari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat - fuqarolik jamiyatining «yollanma xizmatkori».

«Jamiyat» - nisbatan keng tushuncha. Davlat uning ichida mavjud bo'ladi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni shakllantiradi va yo'naltiradi. Jamiyat davlat va huquq ta'sirida u yoki bu tomonga o'zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham, jamiyat a'zolari uchun ham muhimdir.

#### **3.Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar.**



Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qanchalik mukammal boisa, jamiyat va davlatning funksiyalari (vazifalari) shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg'un munosabatga ega.

Jamiyat o'zining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko'plab muammolarni davlatning yordamisiz (va aralashuvisiz) hal qiladi.

Huquqiy davlat jamiyatning o'zi eplaydigan masalalarda fuqarolik jamiyati (va uning ayrim a'zolari)ga vasiylik qilishi shart emas.

Fuqarolik jamiyati o'zini-o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi.

«Demokratik jamiyat — bu. eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni — shaxslararo, millat-lararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi»

«Davlat» tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, jamiyat rivoji natijasida ommaviy hukmron guruhlar paydo bo'la boshlagan. Bu ommaviy hukmron guruhlar o'zlarining hukmronligi asosini tashkil etuvchi omillarni himoya qilish maqsadida turli xil harakatlarni amalga oshirganlar. Jumladan, sunfiy tarzda iqtisodiy (mulkiy) qaramlik vujudga keltirilgan, tartibga soluvchi me'yorlar (g'oyalari) o'ylab topilgan yoki tartibga solib turuvchi kuch (hokimiyat) tashkil etilgan.

Mulk, g'oya va hokimiyat esa o'z navbatida jamiyatni boshqaruvchi-rivojlantiruvchi kuchlar deb hisoblanadi.

«Davlat» tushunchasi keng ma'noli bo'lib, uning mohiyati deganda davlatning maqsad va vazifalarini, kimga yoki qaysi sinf manfaati uchun xizmat qilayotganligini, huquqiyligi jihatidan qanday tamoyillar bilan asoslanganligini tushunish kerak va buni tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Birinchi yondashuvga ko'ra, davlat umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi.

Ikkinchi yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi yondashuvning asosi quyidagicha: davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning mohiyatini ta'riflashda Arastu o'z fikrini quyidagicha bildirgan «Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat»6.

Davlatning mohiyatiga bog'liq nazariyalar:

*Elita nazariyasi.* Bu nazariyaga ko'ra xalq ommasi davlatni boshqara olmaydi va buni hukmron sinf—elita sinf amalga oshirishi kerak deb hisoblanadi.

*Texnokratik nazariya.* Bu nazariyaga ko'ra davlatni mutaxassis-boshqaruvchilar, menejerlar idora etishlari lozim deb hisoblanadi.

*Plyuralistik demokratiya nazariyasi.* Bu nazariyaga ko'ra davlatni boshqarishda barcha fuqarolar ishtirok etishi kerakligi va boshqaruvda har qanday odam, har bir birlashma davlat hokimiyatida o'z «ulushiga» ega bo'ladi, davlatni boshqarishda ishtirok etadi deyiladi.

*Umumiy farovonlik davlati nazariyasi.* Bunga ko'ra davlat barcha sinflardan ustun turar ekan, u barcha fuqarolarning farovonligi va tinch-totuv hayot kechirishligini ta'minlaydi.

*Huquqiy davlat nazariyasi.* Bu nazariya tarafdorlari davlatning butun faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asosida va huquqiy vositalar ila amalga oshirilishi kerak, deb ta'kidlaydilar.

*Konvergensiya nazariyasi.* Bu nazariya davlatning istiqboldagi rivojini bashorat qiluvchi nazariya hisoblanib, unga ko'ra davlatlar bir-birlaridan yaxshi taraflarni o'rganadilar va oxiri hamma davlatlar bir xil ko'rinishda bo'lib qoladi.

*Tarixiy materialistik nazariya.* Bu nazariya asosida tarixiy materializm va sinfiy kurash g'oyalari yotib, unga ko'ra davlatning iqtisodiy hukmron sinfiga davlatning quroli deb qaraladi. Darhaqiqat bu har bir nazariyaning o'ziga yarasha afzallik yoki to'g'ri taraflari, shuningdek, keraksiz va noto'g'ri taraflari mavjud

davlatning mohiyati haqidagi zamonaviy qarashlar

1. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish (o'zaro yon bosish, murosa qilish va hk.) vositasi.
2. Umumdemokratik institutlarni (inson huquqlari, oshkoralik, demokratiya, plyuralizm va b.) ta'minlash.

### 3. Tashqi faoliyat (mudofaa, bosqinchilikdan himoyalash, hududiy yaxlitlikni ta'minlash).

- *Davlat* — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.
- *Davlat* — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot.
- *Davlat* — jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.
- *Davlat* — hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi.

Davlatni vujudga kelishi uchun ijtimoiy tabaqalashuv vujudga kelgan. Ijtimoiy tabaqalashuv esa turli xil sinflarni vujudga keltirgan, ya'ni hukmron va qaram sinflarni. Dastlabki, qaram sinflarning vujudga kelishi uchun faqatgina moddiy ehtiyoj sabab bo'lgan xolos. Ya'ni, bir guruh odamlar (hukmron sinf) turli xil yo'llar bilan ortiqcha mulk evaziga boyiy boshlaganlar va shu mulki orqali boshqa bir guruh odamlar (qaram sinf)ni boshqara olganlar. Endi bu ijtimoiy tabaqalashuv qanday sodir bo'lgan? Buning sabablari turli xil bo'lib, bir necha nazariya asosida tushuntirilgan. Shu o'rinda savol tug'iladi: qaysi nazariya to'g'riroq? Agarda tarixga nazar tashlasak turli xil davlatlarning vujudga kelishidagi tabaqalashuv turli xil omillar asosida sodir bo'lgan

- *Ilohiy (teologik) nazariya*. Bu nazariya asoschilari vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar, «butun hokimiyat xudoniki» degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu nazariya teokratik, ya'ni davlat boshlig'i ayni paytda uining diniy rahnamosi bo'ladigan davlat qaror topgan davrdagi jarayonlarni aks ettiradi. Sharq davlatlarining «Podshoh xudoning yerdagi soyasi» degan fikri ham buni ifodalaydi.

- *Palriaixal nazariya* tarafdorlari davlat kattalashib ketganidan bevosita kelib chiqqan, inonax hokimiyati esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo'lgan Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel)lar o'z asarlarida asoslab berganlar. Aflotun o'zining mashhur «Davlat» asarida oiladan o'sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi.

- Adolat g'oyasining o'zidan kelib chiqsak deydi Aflotun, adolatli odam hech nimasi bilan adolatli davlatdan farq qilmaydi. Inson ruhining uch asos (aql, jaholat va nafs)ga maslahat, muhofazaga asoslangan tadbirkor davlatga muvofiq keldi. Keyingilariga hukmdorlar, askarlar va ishlab chiqaruvchilar (hunarmandlar va dehqonlar)ning uch tabaqasi to'g'ri keldi.

- Bu g'oya XVII asrda ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam Atoning hokimiyatni xudodan olib, o'zining katta o'g'li, patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga berganligini isbotlashga uringan.

- *Shartnoma nazariya*. Gollandiyada ushbu nazariyani Grosiy va Spinoza, Angliyada Lokk va Gobbs, Fransiyada Russo, Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergan. Shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat — ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. Davlat — o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

- *Zo 'ravonlik nazariyasi* (Gumplovich, Kautskiy, Dyuring)ga ko'ra, zo'ravonlik asosida bir qabila ikkinchi qabilani bosib oladi va natijada bosib olingan qabila bosib olgan qabilaga itoatkor hisoblanadi. Bosib olgan qabila esa hokimiyatini mustahkamlash uchun davlatni tuzadi.

- *Irrigatsiya nazariyasiga* ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya (suv) inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu nazariya nemis

olimi Vittfogelning «Sharq istibdodi» asarida ifodalab berilgan.

- *Sinfy nazariya* namoyandalari -davlat iqtisodiy sabablar — ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning obyektiv natijasi

o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinfiarning kurashini bostirib turadi. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi..

- *Psixologik nazariya.* Bu nazariya asoschilari davlatning paydo bo'lish sabablarini insonning ruhiy holati, biopsixik instinktlari bilan bog'laydilar. Taniqli rus olimi L.L.Petraajitskiy go'yo inson ruhiyati (psixikasi)ga «buyuk» shaxslarga tobelik, bo'ysunish ehtiyoji mavjud, degan g'oyani o'rta tashlaydi.

- Nemis psixoanalitigi Z.Freyd esa davlatni tashkil etish zaruriyatini insonning psixikasiga quyidagicha bog'laydi. Alohida hirsiy va biopsixik instinktlar ta'siri ostida harakat qilayotgan isyonchi o'g'illar tomonidan boshlig'i o'ldirilgan avval mavjud boigan patriarxal o'rdadan insonning tajovuzkor mayllarini bostirib borish maqsadida davlat paydo bo'lgan.

- *8. Islom nazariyasi.* Bu nazariya islomda fiqh fani doirasida VIII-X asrlarda tarkib topgan. Uni ta'riflashda klassik musulmon huquqida hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi Qur'on va Sunna qoidalari ko'p emasligini nazardan qochirmaslik muhimdir. Bundan tashqari «davlat» atamasining o'zi ular tomonidan qo'llanilmaydi. Faqat «imomat» (dastlabki ma'nosi namozga imomlik) va «xalifalik» (vorislik) tushunchalari mavjud. Ular keyinchalik musulmon davlatini ifodalashda qo'llana boshlagan.

- Davlatning kelib chiqishi haqidagi Islom ta'limoti asosida eng yirik huquqshunoslardan bin al-Mavardi (974-1058) qarashlari yotadi. U davlatga dinni himoya qilish va dunyoviy ishlarga rahbarlik bo'yicha Payg'ambar (S.A.V.) vazifalarini bajarishda voris deb qaraydi.

### 3.Davlat belgilari.

- davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yichabirlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatidamaydonga chiqadi;
- davlat — suveren hokimiyatning yagona sohibidir;
- davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;
- davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)dir;
- davlat - qonuniylik va huquq-tartibot posponi boishga maxsusda'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud,prokuratura, militsiya, politsiya va hk.)ga ega bo'lgan yagonatashkilot;
- faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligiva xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlikorganlariga ega bo'la oladi.

#### *Davlatning funksiyalari*

- Davlatning funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Davlatning ichki funksiyalari mamlakat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

- *Ichki funksiyalariga quyidagilar kiradi:*

- regulyativ (tartibga solish, boshqarish);

- qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish).

- 1. Regulyativ funksiya davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi o'rnirii belgilaydi:

- *1) iqtisodiy:*

- - iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va jamiyat iqtisodiy hayotigata'sir etish;

- iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish;

- bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini o'rnatish va narx-navo siyosatini belgilash;

- *2) ijtimoiy:*

- ijtimoiy boylikni taqsimlash;

- aholining eng kam muhofazalangan qismini (nogironlar, ko'pbolali oilalar, ishsizlar) himoya qilish, pensiya ta'minoti kabilarni tashkil etish;

- sog'liqni saqlash, madaniyatni rivojlantirish, jamoat transportitashkil etish, uy-joy qurish va hk.

- *3) siyosiy:*

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;

- qonuniylikni va huquqiy tartibotni ta'minlash;

- barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta'minlash:

- *4) ma'naviy:*

- san'atni qo'llab-quvvatlash;
- milliy madaniyatni rivojlantirish;
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi to'g'risida g'am-xo'rlik qilish;
- 5) *moliyaviy*:  
-solliq to'plash;
- bojxona nazorati;
- bevosita moliyaviy nazoratning o'zi.
- 2. Qo'riqlash funksiyasi davlatning huquq bilan mustahkam-langani va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan quyidagi faoliyatini taqozo etadi;
- fuqarolar huquq va erkinliklarini muhofaza qilish;
- tabiatni muhofaza qilish;
- barcha shakllardagi mulklarni himoya qilish;
- huquqni muhofaza qilish.

#### *Tashqi funksiyalar*

- Xalqaro hamkorlik: tashqi siyosiy faoliyat; tashqi iqtisodiy faoliyat.
- Mudofaa va milliy xavfsizlikni ta'minlash.
- Xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun hayotiy zaruratdir. Yer yuzida hozir 200 dan ortiq davlat bor. Ularning har biri me'yorda hayot kechirish va o'zaro hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi.
- Xalqaro hamjamiyat xalqaro huquqning o'zagini tashkil etuvchi umumiy e'tirof etgan prinsip va qoidalarning butun boshli majmuasini ishlab chiqqan. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik ana shu prinsiplar asosida amalga oshiriladi.
- Suveren davlat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi jahondagi barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda, ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, eng nufuzli xalqaro tashkilot bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi.
- Davlatning mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash funksiyasini, eng avvalo, mamlakatning Qurolli Kuchlari hamda Milliy xavfsizlik xizmati bajaradi.

#### Davlat tuzilishi

- *Davlat tuzilishi* shakli uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir. Davlat tuzilishi bo'yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo'linadi:
- -oddiy (unitar);
- - murakkab (federativ va konfederativ).
- Unitar davlat — bu o'ddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, okrug, voyevodstvo, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo'ladi. Unitar davlat odatda bir millatli bo'ladi.
- Unitar davlat belgilari quyidagilardan iborat:
- butun mamlakat miqyosida bir xil bo'lgan vakillik, ijroiya vasud organlari bo'ladi;
- bitta konstitutsiya; yagona qonunchilik tizimi;
- yagona fuqarolik;
- yagona pul birligi;
- barcha ma'muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo'lgan soliqva kredit siyosati;
- unitar davlatlar tarkibiy qismlari suverenitetga ega emas (ya'ni torn ma'nodagi davlatlar emas);
- yagona armiya mavjudligi.

### **3. Mavzu: Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar. Boshqaruv tizimidagi funktsiyalar; iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, hududiy va ularning faoliyatlari**

#### **Reja:**

- 1. O'zbekiston hududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar**
- 2. Qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv**
- 3. Harbiy demokratiya davri va xususiyatlari**

#### **Tayanch iboralar**

O'rta Osiyo hududida ilk shahar-davlat-tuzumining vujudga kelishi va tashkil topishi. Ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish va lik dehqonchilik taraqqiyoti. Ilk tsivilizatsiyaning shakllanishi va

uning o'ziga xos qiyofasi. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi.

## **1. O'zbekiston hududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar**

Milloddan avvalgi 1-ming yilliklarga kelganda ibtidoiy jamoa tuzumi o'zining oxirgi bosqichini o'tayotgan edi. Temirning kashf qilinishi ibtidoiy jamoa tuzumini buzub yubordi. U dehqonchilik va xunarmandchilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi, chorvachilik dehqonchilikdan tamoman ajralib chiqdi. Xunarmandchilikning rivojlanishi bois ilk shaharsozlik madaniyati belgilari – bozorlar paydo bo'lib keng ko'lamli mol ayirboshlash kuchaydi. Natijada O'rta Osiyoda ilk shahar davlatlar vujudga keldi. Shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan xunarmandchilik va binokorlik xam taraqqiy eta boshladi. Shahar davlatlarda savdo-sotiq, mol ayirboshlash jarayonlari tabora boshlanib rivojlanib, kengayib bordi. Sopollitepa aholisi mil. avv. II ming yillik o'rtalarida Sherobod yaqinidagi Oqqo'rg'on qishlog'i yaqiniga ko'chib o'tganlar va Jarqo'ton makoniga asos solganlar. Jarqo'tonliklar bu erda taxminan 500 yilcha yashashgan. Shahar ikki qism ark va shahristondan iborat. Uning tarixi uch bosqichga bo'lib o'rganiladi. Jarqo'ton davri (m.avv. 1500 – 1350), ko'zali davri (m.av. 1350 - 1200) va mo'lali davri (mil. avv. 1200 -1000) bo'lib, mo'lali davri ikki fazaga (bo'ston m.avv. 1000 -900) bo'linadi. Jarqo'tonning umumiy maydoni 100 ga dan oshiqroq bo'lib, arkning maydoni 5 ga yaqin va u mudofaa devori bilan o'rab olingan. Arkka undan 10 – 15 marta katta maydonni egallagan uy-joy massivlari tutashgan. Janubda esa 20 ga dan iborat nekropol - qabriston joylashgan. Jarqo'ton 1973 yildan buyon A. Asqarov tomonidan o'rganib kelinmoqda. Bu davr mobaynida ark, uy-joylar, ustaxonalar, ibodatxona va 2000dan ortiq qabrlar o'rganilgan. Qabrlarda mulkiy tengsizlik izlari yaqqol ko'rinadi. Masalan, hukmdorning qabridan topilgan topilmalarga qarab uning ham diniy rahbar, ham zargarlik va metallurgiya ustaxonasining rahbari yoki piri, ham jamoalar ittifoqi sardori ekanligi faraz qilinadi. Jarqo'tondan topilgan ibodatxona butun viloyatga xizmat qilgan. U ikki qismdan iborat: ibodatxona va ishlab chiqarish xo'jalik qismlari. Ibodatxonaning muqaddas qismi 35x35 metr ga teng. Arkda joylashgan hukmdor saroyi ham maxsus mudofaa devori bilan o'rab olingan va maydoni 36x36 metrni tashkil etadi. Jarqo'tondan topilgan “metallurgiya tsexi” (Uerda ikkita pech va har bir pechda 12 tadan qozon joylashgan bo'lib, ulardan bir vaqtda 25-30 kg bronza olingan.) bu erda hunarmandchilik o'z davri uchun yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan paxta, ipak qoldiqlari to'qimachilik ham rivoj topganligidan dalolat beradi.

Tozabog'yob madaniyati mil. avv. II ming yillik o'rtalari va ikkinchi yarmiga tegishli bo'lib, dastlab 1938 yili S.P. Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi oqimidan topilgan. Bu madaniyatga oid bo'lgan makonlar Zarafshon vodiysidan (Navka va Mo'minobod), Toshkent vohasidan (Yangier tumani va Toshkent kanali bo'ylari) ham ko'p miqdorda topib o'rganilmoqda. Bu madaniyat aholisi etnik jihatdan mahalliy va Janubiy Sibir, Qozog'iston hududlarida ko'chib yurgan “Andronova madaniyati”ning ko'chmanchi vakillaridan tashkil topgan. Ularga tegishli qabristonlar Qayroqqum, Dahana, Vodil, Karamko'l hududlaridan ham topilgan. Bu madaniyat aholisi asosan, chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu madaniyatni ba'zi olimlar “Andronova madaniyati”ning bir qismi deb hisoblashsa, ba'zi olimlar bu alohida mahalliy madaniyat (Tozabog'yob, Qayroqqum (Qayroqqumdan 60 dan ortiq makon topilgan) nomli ) degan fikr bildirishmoqda. Lekin ko'pchilik olimlarning fikricha, Tozabog'yob madaniyati mahalliy o'troq dehqon jamoalari va bu erga o'z podalari ortidan ko'chib kelgan “Andronova madaniyati” vakillarining o'zaro aralashuvidan tashkil topgan. Bu fikrni Tozabog'yob madaniyati vakillarining xo'jalik yuritish shakllari va hayotida farq bo'lmasada, qabrlardan topilgan suyaklarning tuzilishida farq (shimol va janub) borligi ham isbotlaydi.

Tozabog'yob kulbalari yarim erto'la shaklida qurilgan va ularning o'rtacha maydoni 12 – 18 metr kvadratga teng. Bu kulbalar bitta juft oila uchun mo'ljallangan. Lekin bitta urug' jamoasiga mo'ljallangan kulbalar ham bo'lib, ularning maydoni 120 metr kvadratga teng. Tozabog'yobning eng noyob yodgorligi Ko'kcha – 3 qabristoni bo'lib 1954 – 1955 yillarda o'rganilgan. Bu erda hunarmandchilik, jumladan, kulolchilik mavjud bo'lsa-da, ular qo'lda tayyorlangan.

## **2. Qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv**

**Muammoli savol: Xorazm viloyatidagi eneolit davri manzilgohlari kimlar tomonidan**

## **o'rganilgan?**

O'rta Osiyoning mil.avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlariga oid ijtimoiy - iqtisodiy hayoti Amirobod madaniyatida ko'proq aks etgan. Amirobod madaniyati 1940 yili S.P. Tolstov tomonidan Janubiy Qoraqalpog'istonning Amirobod kanali etaklaridan topib o'rganilgan. 1957 yili esa olim ushbu madaniyatning yirik manzilgohi Yakka Parson ko'shkini ochgan. U m.av X – VIII asrlarga oid bo'lib, 20 dan ortiq yarim erto'la uylar topilgan. Bu er aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Amirobod madaniyatining yana bir muhim yodgorligi m.av X – VIII asrlarga tegishli chorvadorlar qabristoni hisoblanmish Tagisken maqbarasidir. Bu maqbara Sirdaryoning quyi oqimidagi Inqor daryosining o'ng sohilida joylashgan. Bu erdan 20 ga yaqin maqbara- qo'rg'onlar topilgan. Ularning eng kattasi 6 - maqbara bo'lib, asosi kvadrat shaklda, ustki qismi gumbazsimondir. Atrofi 4 metr qalinlikdagi devor bilan o'ralgan va undan maqbara devorigacha 2 metr masofa bor. Maqbaraning ichki maydoni 50 metr kvadrat va 1,5 metr er ostiga tushirilgan. Barcha maqbaralarning eshigi sharq tomonga qaragan. Tagisken maqbarasidan topilgan qabrlarda mulkiy tengsizlik izlari ko'rinadi.

Amirobod madaniyati bilan deyarli tengdosh bo'lgan Chust madaniyati dastlab Farg'ona vodiysidan topib o'rganilgan. Bu madaniyatning birinchi makoni 1951 yili M.E. Voronets tomonidan Chust yaqinidagi Buvanazor bulog'i yonidan topilgan. Hozirda bu madaniyatga yaqin 80 ta yodgorlik (asosan, Namangan va Andijon viloyati hududida ) topilgan bo'lib, ularning 10 tasi o'rganilgan. Keyinchalik Chust madaniyati V.I. Sprishevskiy, Yu.A. Zadneprovskiy va B. Matboboevlar tomonidan o'rganilgan. Chust madaniyati yodgorliklari ikki guruhga bo'linadi: 1. Maydoni 1 ga cha bo'lgan mayda qishloqlar. 2. Maydoni 10 va undan ortiq gektarga teng bo'lgan qishloqlar. Ularning yiriklari Dalvarzintepa, Ashkoltepa va Chust vodiyning ilk shaharlari edi. Chust madaniyati ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi. Birinchisi so'nggi bronza bosqichi bo'lib m.avv. VIII asrgacha davom etgan. Bu davrda kulbalar yarim yerto'la shaklida bo'lib, guvala va xom g'ishtdan qurilgan. Ikkinchi bosqich ilk temir davri bo'lib, m.avv. VIII – VII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yirik qishloqlar, ilk shaharlar paydo bo'lib, otashparastlik dini rasmiylashgan. Chust, Ashkoltepa, Dalvarzin mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Ularning qalinligi 3 balandligi 3,5 metr. Chust madaniyati makonlaridan ko'plab bug'doy saqlash o'ralari (Chustdan 60 ta, Chimboydan 16 ta), metall predmetlar (Dalvarzintepadan 60 ta, Chustdan 80 ta), tosh qurollar (Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin) topilgan. Bu madaniyat aholisi ham dehqonchilik, hunarmandchilik va uy chorvachiligi bilan shug'ullangan. Chust madaniyatidan so'ng Farg'ona vodiysida m. avv. VII – V asrlarga oid Elatan madaniyati shakllandi.

Chust madaniyatiga yaqin bo'lgan makonlar Toshkent vohasidan ham topib o'rganilgan. Bu madaniyat izlari 1940 yili A.I. Terenojkin tomonidan topilgan va Burg'uluq madaniyati nomi bilan atalgan. U bu madaniyat davrini aniqlashda turlicha fikrlar bildirdi. Dastlab m. avv. III – I asrlar, keyinchalik m. avv. IV – III asrlar va oxiri m.avv. VI – IV asrlar deb belgiladi. Lekin keyinchalik X. Duke tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Burg'uluq madaniyati m.avv. IX – VII asrlarga oid ekanligini isbotladi. Bu madaniyat aholisi asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan, mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik maskanlar topilmagan. Turar joylar asosan, yarim erto'lalardan iborat bo'lib, kulochilikda charxdan foydalanilmagan.

Chust madaniyatiga o'xshash makonlar Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududidan ham topilgan. Bular Yerqo'rg'on, Sangirtepa, Kuchuktepa, Bandixon, Bo'yrachi, Qiziltepa makonlaridir. Bu makonlar mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oid bo'lib, ularning aholisi asosan, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Bu yerdagi sopol idishlarning kulolchilik charxida tayyorlanganligi ahamiyatga molik. Bu makonlarning ko'pchiligi mudofaa devorlari bilan o'ralgan.

## **Muammoli savol: Temirdan yasalgan qurollar xo'jalikning qaysi sohasiga katta ta'sir ko'rsatgan?**

Temirdan mehnat qurollar tayyorlashning paydo bo'lishi va uning tez kengayib borishi ikkinchi iqtisodiy mehnat taqsimoti - hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishiga olib keldi. Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralgan holda rivojlanib borishi, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash hamda savdoning kengayishi

iqtisodiy markazlar sifatida shaharlarning shakllanishiga imkon yaratdi.

Bu davrda urug'chilik munosabatlari ham o'zgarib bordi. Ikki urug' vakillaridan iborat juft oilalar paydo bo'ldi. Bu juft oilalarni ishlab chiqarish birlashtirayotganligi uchun ham ular ishlab chiqarish jamoasi deyiladi. Bir necha juft oilalar birlashib ota urug'i boshchiligidagi katta patriarxal oila jamoasini tashkil etardi. Urug' jamoasiga qarashli er-mulklar patriarxal oilalarga bo'lib berilardi. Keyinchalik esa bu mulklar katta patriarxal oilalarning tarkibidagi juft oilalar tomonidan turli darajada bo'lib olindi.

### Sinfiy jamiyat asoslarining tashkil topishi

Katta patriarxal oilalar «Avesto» da nmanalar, ularning boshliqlari esa nmanapatilar deb atalgan. Har bir patriarxal oilalar tarkibida ko'plab juft oilalar bo'lgan. Bu juft oilalarni boshqarish utslar orasidan saylangan oqsaqol-«nmanapati» qo'lida edi. Saylangan oqsaqollar birlashib oqsaqollar kengashini tashkil etgan. Ular bir necha «nmana»larni birlashtirgan «vis» boshqargan. «Avesto»da tilga olingan «vis» esa patriarxal urug' jamoasi bo'lib, uni boshqaruvchi kishi oqsaqollar orasidan saylangan, oqsaqollar kengashining rahbari «vispati» edi. Yuqoridagilardan kelib chiqib akademik A. Asqarov Sopollitepa 8 ta «nmana»dan tashkil topgan «vis» ekanligini, «vispati» ana shu «nmana»larni birlashtirgan oqsaqollar jamoasining boshlig'i, urug' oqsaqoli, katta qishloqning boshlig'i bo'lganligini ta'kidlagan edi. Keyinchalik «vis»lar odatda kamida 15 ta «nmana»ni birlashtirgan urug' jamoasiga aylanib borgan.

Oqsaqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo'lib, u jamoaning kundalik faoliyatidagi xo'jalik masalalarini hal etgan. Patriarxal oilaning boshlig'i «nmanapati» o'zining oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustod va murabbiy bo'lgan. «Nmana»ni «nmanapati», «nmanapatni» (oilalar boshlig'ining xotini), bolalar, nabiralalar (o'g'ilning farzandlari) va evaralar tashkil etgan. «Vispati» va «nmanapati» kabi mo'htabar kishilarning topshiriqlarini boshqarish urug' va oila jamoasi ahzolari uchun majburiy bo'lgan.

Har bir oilaning o'z xususiy mulki bo'lgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi va rivoj topishi o'z navbatida mulkiy tabaqalarni keltirib chiqargan. Boylik asosan jamoa oqsaqollari, harbiy boshliqlar va boshqa mo'htabar shaxslar qo'lida to'planib borgan. «Avesto»da mo'htabar, erkin shaxslar «azata» deb atalgan. Shuningdek, jamoa ulug'lari va erkin jamoa ahzolariga nisbatan «asna» atamasi ham qo'llanilgan. Boylik esa «gayta» deb nomlangan.

Bu davrda jamiyatda qullar ham paydo bo'lgan va u «vaysa» deb atalib, urug'ning quli hisoblangan. Katta oilaning oddiy ahzosi ham ishlab chiqaruvchi, ham askar hisoblangan erkak kishi «vira» urug' xizmatkori vazifasini ham bajargan. «Vira»larning kambag'allashganlari «pariyatar» (cho'pon) deb atalgan bo'lib, u hali qul emasdi.

Shuningdek, bu davrda «varzana»lar ham paydo bo'ladi. U katta qishloqning bir qismini birlashtirgan hududiy birlik bo'lib, qo'ni-qo'shniçilik jamoasi hisoblanadi. Bir necha qarindosh urug'larni birlashtirgan hududiy birlik «arg'yaman» - urug'doshlar ittifoqi edi.

### Muammoli savol: Sinfiy jamiyatning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynagan omillar qaysilar?

Boshqaruv obyekti	Boshqaruv tartibi	«Avesto»dagi nomi
Uy - qo'rg'on jamoasi	Uy egasi	Nmana, Nmanapati
qo'ni - qo'shniçilik jamoasi	mahalla oqsaqoli	Varzana
Qishloq jamoasi	Qishloq oqsaqoli, oqsaqollar kengashi	Vis, Vispati
Tuman – bir necha qishloq jamoalari	Oqsaqollar Kengashi	Hanjamana

Qabila	Qabila oqsoqoli	Zantu, Zantupati
Viloyat (bir necha tuman)	Viloyat hokimi	Daxhyu, daxhyupati
Mamlakat	Mamlakat hukmdori	Kavi

Urug'lar esa qabilaga birlashar va «Zantu», ularning boshlig'i «zantupati» deb atalardi. Mulkiy tabaqalanishning kuchayib borishi ular orasidagi ziddiyatlarni ham kuchaytirdi. Natijada jamiyatda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nizolar, kelishmovchiliklar yuz bera boshladi. Bu esa ularni bartaraf etuvchi, mulkiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tashkilotga ehtiyojni keltirib chiqardi. Bunday tashkilot davlat edi. Davlat qabilalarni tashqi hujumlardan himoya qilish, jamoat tartibini tahminlash va uni buzuvchilarni jazolash, qishloq xo'jaligi (yangi kanallar qazish, ularni har yili tozalash, suvni to'g'ri taqsimlash), hunarmandchilik va ayirboshlash (savdo) ustidan homiylik qilish vazifalarini ham bajarar edi. Yuqorida ta'kidlangan ehtiyojlar qabilalarni birlashuviga va qabilalar ittifoqi – «daxyu»larni tashkil topishiga olib keldi. «Daxyu» bir necha qabilani yirik geografik hududni birlashtirgan ma'muriy birlik bo'lib, uning boshlig'i «daxg'yupati» edi. «Daxg'yu»ning ma'lum bir qismini yoki poytaxtini boshqaruvchi kishi «sastar» deb atalgan. Qabilalar ittifoqi keyinchalik yagona mamlakatga birlashgan va yagona davlat tashkil topgan. Uning hukmdori, bir necha «daxyupati»lar boshlig'i «daxyu sasti» (ba'zi manbalarda «kavi») bo'lib, u harbiy va fuqarolik ishlarini boshqarishni o'z qo'lida to'plagan. O'zbekiston hududida tashkil topgan ilk davlatlar hisoblanmish Qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlari tepasida «daxyu sasti» turganligi taxmin etiladi.

### 3. Harbiy demokratiya davri va xususiyatlari

Harbiy demokratiya davri urug' jamoasidan davlatchilikka o'tish davri hisoblanadi. Bu davrda davlatchilikning ilk asoslari, mulkiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish qoidalari shakllandi.

#### **Muammoli savol: Nima uchun insoniyat tarixida harbiy demokratiya davri uzoq davom etmagan?**

Harbiy demokratiya davri qabilalari hayotida xalq yig'inining o'rni beqiyos bo'lib, unda asosan qurol ko'tarishga qodir bo'lgan erkak kishilari va yoshi ulug', mo'htabar oqsaqollari ishtirok etardi. Xalq yig'inlarida qabila hayotining barcha masalalari hal etilar va zarur qarorlar qabul etilardi. Bu davrda o'ziga xos boshqaruv tizimi shakllangan bo'lib, u xalq yig'ini, oqsaqollar kengashi va zantupati yoki daxyupatilardan iborat edi. Xalq yig'ini qabul qilgan qarorlar zantupati yoki daxyupatilar boshchiligida ijro etilar va uning ijrosi oqsaqollar kengashi nazoratida bo'lardi. Oqsaqollar kengashi xalq yig'inida ko'riladigan masalalar va shu masalalar yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bilan ham shug'ullangan bo'lishi mumkin. Qabila yoki qabila ittifoqi lashkarini boshqarish daxyupatilar zimmasida edi. Qabila lashkari ham ikki qismdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Birinchisi doimiy ravishda harbiy ish bilan shug'ullanadigan va qabila hududida, chegaralarida tinchlikni, tartibni tahminlaydigan guruh bo'lsa, ikkinchisi faqat urush holatlarida qabilaning barcha erkin erkaklaridan tashkil etiladigan guruhdir. Doimiy harbiy xizmat qiladigan guruh ko'p hollarda hukmdor va uning oilasi (o'g'illari) bilan birga bo'lgan va xalq yig'inida uning manfaatlarini himoya etgan bo'lishi kerak. Bu esa hukmdorning xalq yig'inidagi ta'sirini kuchayib borishiga, uning qayta-qayta hukmdor etib saylanishiga, keyinchalik hukmdorlikni merosiylikka aylanishiga ham olib kelgan.

Davlatning tashkil topishida qabilaviy emas, hududiy birlashuv asosiy o'rin tutadi. Davlat qabilaviy birliklardan emas, geografik asosda shakllangan ma'muriy birliklardan tashkil topadi. Bu yerda aholini qabilaviy yoki etnik xususiyatlar emas, balki ishlab chiqarish va unga sharoit yaratgan geografik xususiyatlar birlashtiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning



shakllanishi uch bosqichni bosib o'tdi.

1. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari va I ming yillik boshlari. Ilk davlatchilik birlashmalariga o'tish davri kurtaklarining paydo bo'lishi. («nmana», «nmanapati», «vis», «vispati»)
2. Miloddan avvalgi IX – VIII asrlar. Ilk davlatchilik birlashmalariga o'tish davri. («zantu», «zantupati», «daxyu», «daxyupati»)
3. Miloddan avvalgi VII – VI asrlar. Ilk davlatlar (Qadimgi Baqtriya va Xorazm)ning tashkil topishi. («daxyu sasti», «kavi»)

Miloddan avvalgi IX – VIII asrlarda iqtisodiy hayotda yuz bergan katta siljishlar, urug' jamoasi tarkibida yuz bergan o'zgarishlar bir necha ijtimoiy tabaqalarning tashkil topishiga va ilk davlatlarning tashkil topishi uchun barcha tarixiy sharoitlarni yaratilishiga olib keldi. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Sopollitepa va Jarqo'ton manzilgohlarida ko'zga tashlangan ilk davlatchilik belgilarining rivoj topib borishi miloddan avvalgi VII – VI asrlarda Qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlarining tashkil topishiga zamin yaratdi.

### **Ahmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati**

Mil. av. VI asr o'rtalarida Eronda vujudga kelib kuchayib borgan Ahmoniylar davlati qisqa davr ichida o'z atrofidagi qator davlatlar, xalqlarni (Assuriya, Urartu, Midiya, Bobil va boshqa ) o'z tarkibiga birlashtirib yirik saltanatga asos soldilar. Budavlatning asoschisi Kir II O'rta Osiyo yerlariga yurish qildi. Uning yurishini bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqichi mil.av: 545-539 yillarga to'g'ri keladi. 2-bosqichi mil.av: 539-530 yillarni o'z ichiga oladi. Erksevar O'rta Osiyo xalqlari Ahmoniylarga bo'ysinmaslik uchun kurash olib bordilar. Bu esa KirII ni qayta-qayta qo'shin tortib kelishiga majbur etdi. Bu haqda yunon tarixchilari Geradod, Yustin, Strabonlarning asarlarida ishonchli dalillar bilan berilgan. Kirning massagetlarning jasur malikasi ,mard ayol To'maris o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro urushi uning yakunlariga oid ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir.

200 ming armiya bilan massagetlarni yengolmagandan so'ng u hiylayu nayrang ishlatdi. Biroq, To'maris uning shartlariga ko'nmagandan so'ng yana hiyla ishlatib To'marisning o'g'li Sparganisni asirga olib, uni qatl etadi. So'ng To'maris Kir II armiyasiga qarshi xayot- mamot urushini olib borishga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, janga kirishib Kir II armiyasini 529- yilda yengdi va Kir ham halok bo'ldi. Mil. avv: 522 yili axmoniylar shohi bo'lib ko'tarilgan Doru I (522-486y) davrida O'rta Osiyo hududlarini to'la-to'kis qo'lga kiritishga qaratilgan urushlar samarasiz kechdi. Doru I qo'shini 519 yil sak (shak) lar yurtiga yurish qilgan paytda oddiy cho'pon Shiroqning mardlik, manguliy tuyusi jo'sh urgan . Shiroq dushmani ishontirish uchun quloq, burnini kesib tanasini qonga bo'yalgan hola Doru I qarorgohiga keladi va yetti kecha va kunduz Qizilqum cho'llarida Doru1 armiyasi halokatga uchratadi va o'zi ham shu yerda halok bo'ladi. Biroq u farzandlik burchini bajardi. Uni yurtparvar siymosi avlodlar xotirasida mungu qolajak. Doru1 519-518 yillarda sak qabilalarini bo'ysundiradi.

Eron Ahmoniylariga qarshi xalq qo'zg'olonlari doimo yuz berib turgan. Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada degan shaxs boshchilik qilgan. Biroq Doru 1 qo'shini barcha qo'zg'olonlarni bostirgan, o'ch olgan va 55 ming qo'zg'olonchilar qatl etildi, 7 ming kishi qatl etildi.

Eron Ahmoniylari bosib olgan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun "satrap" (viloyatlarga) bo'lgan. O'rta Osiyo to'rtta satraplikka bo'lingan. 1). Kaspiy dengizi bo'ylarida yashovchi qabilalar II satrapiya bo'lib, 200 talant (bobil pul birligi: 1 talant 30, 3 kumushga teng) Baqtriya 12 satrapiya bo'lib 360 talant , saklar 15 satrapiya bo'lib, 250 talant, Xorazm, So'g'd va Parfiya 16 satrapiya bo'lib, 300 talant miqdorida yillik soliq to'lardilar.

Fors yozuvi manbalarga qaraganda, O'rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar , chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham berib turganlar.

Har bir satraplik tepasida shoh tomonidan tayinlangan ahmoniylarga mansub satrap ya'ni hukmdor xokimi mutloq sifatida siyosat yuritgan va mahalliy aholini itoatda ushlab turgan

**Aleksandr Makedonskiy davlat boshqaruvi.** Aniq dunyo tarixida Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn Yunoniston, Qichik Osiyo, Arabiston hududlarini qudratli harbiy kuch bilan egallab, o'z hukmronligini o'rnatgan Iskandar mil. av. 331 yil oktyabrida Gavgame yonida (shimoliy-sharqiy Mesopotamiya) bo'lgan jangda Eron qo'shinlarini yengadi. Eron podshohi Doru III Iskandardan uzil-kesil yengilib mamlakat sharqiga Baqtriyaga qochadi. U yerda esa Baqtriya satrap Bess tomonidan o'ldiriladi. U ham tez orada o'ladi, mil. av 330-329 yilning qishida Afg'oniston janubini

egallab, Hindiston davoni orqali Baqtriya poytaxti Baqtra (Hozirgi Balx) shahrini egallaydi. Ko'p o'tmay Qashqadaryo viloyatlariga kirib keladi, so'ng Samarqandni va mamlakatni shimoliy-sharqiy hududlariga yurishlari mahalliy xalqni qattiq qarshiligiga duchor bo'ladi.

So'g'diyona va Baqtriya aholisidan lashkar tuzib, Spitamen Iskandar armiyasiga qashqatqich zarbalar berdilar. Biroq Spitamen armiyasi yengilib, saklar yurtiga chekindi. Mahalliy zodogonlarni uni o'limiga olib keldi. Rahbarini yo'qotgan qo'zg'olonchilar tezda tarqalib ketdi. Iskandar O'rta Osiyoni ko'pgina hududlarini bosib olgan bo'lsada, Farg'ona, Xorazm, Shosh yeriga egalik qila olmadi. O'tgan uch yillik jangdan so'ng O'rta Osiyoni boshqarishni o'zining ishonchli odamlariga topshirib mil. av. 327 yil Hindiston tomon qo'shin tortdi. Biroq mil. av. 323 yilda Bobilda vafot etdi.

Iskandarni Sharqqa, jumaladan O'rta Osiyoga yurishlari bejiz ketmadi. Sharq bilan G'arb o'rtasidagi turli munosabatlarning bog'lanishiga turtki berdi. keyinchalik ellinizm (Bolqon yarim orolidagi Ellada shahri nomi bilan bog'liq) madaniyati deb atalgan turli sivilizatsiyalarning o'zaro tutashishidan iborat ilg'or madaniy jarayon vujudga yuzaga keldi. Bu esa turli xalqlarning bir-birlari bilan yaqindan aloqa bog'lashlarida birgalashib, umumbashariy qadriyatlarni qaror topdirib, borishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Iskandar vafotidan keyin mil. av. 312 yildan boshlab uning iste'dodli sarkardalaridan Salavk nomi bilan atalgan salavkiylar sulolasi sharqiy hududlarga hukmronlik qila boshladi. O'rta Osiyo yerlari ham uning tarkibiga kirgan edi.

Shunday qilib Salavka Bobil, So'ziana, Midiya, Old Osiyo, Eron va O'rta Osiyo hududlariga o'z hukmronligini o'rnatdi.

O'rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Salavka Spitamenning qizi Antiox I o'zini mil. av. 293 yili Sharqiy satraplarga, jumladan O'rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi. O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. av. 293-261 y) Antiox G'arbg'a qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqqa, jumladan O'rta Osiyo yerlariga kam e'tibor qaratdi. Ular hukmronligi davrida O'rta Osiyo iqtisodiy jihatdan yuksalishiga erishdi, hunarmandchilik, savdo, qishloq xo'jaligi katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Buyuk ipak yo'li qayta tiklanib, yo'llarda obod shahar va qishloqlar barpo etildi.

U Iskandar an'analari sodiq qolib, strapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalariga qaraganda Salavka 1 davlati Ahmoniyalar va Iskandar davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27-28 strapiyalarga bo'lingan.

Har qaysi strapiyani shoh tomonidan tayinlab qo'yilgan strap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors straplaridan farq qilgan hamda ular ham ma'muriy ham harbiy boshqaruvni qo'lga olganlar. Strap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi, soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo xo'jalik hayotni nazorat qilib borgan. Salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda aholidan tayinlangan. Tarixiy manbalarda salavkiylar strapstrateglari yunoncha tildan olingan (stratinik, Aleksandr va boshqalar). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlashgan. Salavkiylar bilan birga mahalliy zodogonlar ham hokimlik qilar edi.

Mil. av. III asrning 60-50 yillariga kelib salavkiylar hukmdorlari orasida hokimiyat uchun kurash boshlandi va o'zaro janjallar mamlakatni kuchsizlantirib qo'yadi. Natijada O'rta Osiyodagi xalqlarni siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Mil. av. 250 yilga kelib dastlab parfiya keyin Yunon Baqtriya davlatlari ajralib chiqib o'z mustaqilligini qo'lga kiritdilar.

Yunonlarning uzoq davom etgan hukmronliklari davomida yunon madaniyati bilan Sharq xalqlari madaniyati o'zaro singishib, bir-birini boyitib bordiki, bu hol ellinizm nomi bilan mashhur bo'ldi. Baqtriyada yunon yozuvi, pul munosabatlari, og'irlik o'lchov birliklari tarqaldi. Shaharsozlikda yanicha yo'nalishlar rivojlandi.

Mil. av. VI asrning boshlarida Parfiya davlati vujudga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, "Qoraqum—Parfiya davlatining beshigidir".

U mil. av. 247 yilda Arshak boshchiligida Niso (Turkmaniston) shahrini egallab o'zini podsho deb e'lon qiladi.

Mil. av. 235 yil o'z yerlarini kengaytirib, besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoyning g'arb mamlakatlari bilan savdo ishlarida vositachi bo'lgan.

Yunon Baqtriya –salavkiylardan ajralib, alohida davlat bo'lishida Baqtriya aholisi tomonidan qo'llanib hokimiyat tepaiga kelgan Diodot boshchilik qilgan. U mil. av. 256-242 va 246-245 yillarni aytadilar. (Evtidem, Demetriy, Yevkratid kabi hokimlar) Hindistonning shimoliy –g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi yerlarni ham qo'shib oldi. Uni gullab yashnagan davri mil. av III ming yillikning II yarmi va mil. av. II asrning I yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar) , Oyxonim, Qorabog'tepa, Kampirtepadan topilgan juda boy topilmalar shunday dalolat beradiki, bu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon –Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat birinchi viloyatlarga bo'lingan bo'lib bu viloyat hokimlari podshoha bo'yysunar edi.

Bu davlat 250-130 yillarda juda gullab yashnagan bo'lib, mil. av. II asrning ikkinchi yarmiga kelib, ko'chmanchilar zarbalari ostida inqirozga uchradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, salavkiylar sulolasi bilan doimiy ravishda olib borilgan kurashlar natijasida mil av. III asrning boshlarida Qang' davlati paydo bo'ldi. U Yunon-Baqtriya ko'chmanchi qabilalar bilan olib borilgan kurashlar oqibatida O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar tashkil qiladi.

Mil. av II asrning boshlarigakelib, Qang' davlatining yerlari birmuncha kengayib, Sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon) , shimoliy-sharqda usun, yueji qabilalari bilan shimoliy-g'arbda Sarisuv daryosi, g'arbda Sirdaryogacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasi, Tolos vodiysini va qisman Chu vodiysini quyi oqimidagi yerlarni hisoblangan. Mil. av. II-I asrlarda Xorazm o'zlariga bo'ysundiriladi.

Katta xan sulolasi mil.av 202 y Qang'uy (Qang') podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish yuritgan. Qang' davlati kengashida qabila boshliqlari , harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Podsho saroyi qoshidagi kengashda davlatning ichki va tashqi siyosati maslahat bilan hal qilingan.

Qang' dalatiga qarashli yerlar bir necha viloyatlarga bo'linib, ularning har birini alohida hokim boshqargan. Viloyat boshliqlari jobu yoki yobu deb atalgan.

Qang' hukmdori mamlakatni ana shu jobularga tayanib idora etgan. Bu viloyatlarning ko'pchiligi Qang' davlatining kuchaygan davlatlarida, mil. av. II-I asrlarda tobe etilgan.

Xitoy manbalarida ta'kidlashicha, Toshkent, So'g'diyona va Xorazm hududlaridagi beshta joy: Susye, yuni, chu, yuechyan', fuli viloyatlari eslatib o'tiladi.

Qang' podsholarini ikkita: yozgi va qishki qarorgohlari bo'lgan. Ular yozni O'trorda (Qozog'istonni Aris va Turkmaniston oralig'ida) qishni esa Qanha (hozirgi Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) o'tkazganlar.

Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi aholining ma'lum qismi mil. av. III milodiy V asrlarda o'troq hayot kechirganlar . Arxeologik tadqiqotlar natijasi shuni isbotladiki, O'tror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Ming o'rik harobalari o'rnida qang'lilarning qo'g'onlari, ko'hna shaharlari bo'lgan. Toshkent vohasida yashaganlar asosan o'troq hayot kechirib hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik bilan, ko'chmanchilar esa chorva bilan shug'ullangan.

Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik kabi hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ma'danlar bo'lgan. Bu yerdan mis, temir, kumush kabi boshqa metallar qazib olingan. Toshkent vohasidagi Qovunchitepadan Qang'arlarga xos madaniyat topib o'rganilgan va fanda Qovunchi madaniyati bilan mashhur. Bu Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi, Yettisuv, Shimoliy Farg'onada keng tarqalgan.

Buyuk ipak yo'li necha asrlar davomida ne-ne mamlakatlar va boshqa xalqlarni bir-biriga bog'lash aloqalarini mustahkamlashdagi mislsiz xizmatini alohida ta'kidlash joiz. Bu ilk bor Xitoy hududidan boshlanib g'arb tomon 12 ming kmga cho'zilib sharq bilan g'arbn birlashtirgan savdo yo'li edi.

**Kushonlar davlat boshqaruv tartibi** hududlarida yashovchi turkiy qavmlar qo'shnisi xunlar tayziqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g'arbga tomon siljiydilar. Xitoy manbalarida ular yuechjilar deb atalgan. yuechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib, ularni janubiy –g'arb tomonga suradilar. Biroq yuechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab, janubga siljib, mil. av. 130 yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Ular So'g'diyonadan Baqtriyaga va baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar, yuechjilar Farg'ona vodiysini ham egallaydilar.

Ular beshta siyosiy xonodonga mansub edilar. 1. Guyshuan (Kushon); 2. Xyumi; 3. Shuanmi; 4. Xiyos; 5. Xuanmi. Ularni har biri qariyb 100 yilcha alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Mil. av. I asrda Kujula Kadfiz barcha yuechji qabilalarini birlashtiradi va butun Baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi. So'ng qo'shni So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismini zabt etadi, Qandahor, Qobul hududlarini egallaydi.

Mamlakat poytaxti—Dalvarzintepa (Surxondaryo viloyati) shahri bo'lgan. Kushonlar sulolasi davrida o'zbek davlatchiligi saltanatlik bosqichiga ko'tarildi. Kushon davlatini boshqargan sulolalar asos solgan—Kujula Kadfiz (mil. av. Birinchi asr boshlarida), uning o'g'li Vima Kadfiz (mil. av. I asr o'rtalarida), Kanishka (78-123 y.y.) va Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o'tmoq joiz bo'ladi.

Kushonlar mavqeining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib, Hindistonning Peshovor, Panjob, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, Sharqiy Turkistonni katta qismi saltanat tarkibiga kiritildi. Mamlakat poytaxti Peshovorga ko'chirildi.

Kadfiz I davrida zarb qilingan tangalarda “Kujula Kadfiz yabg'u” degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz mamlakatda pul islohatini o'tkazib og'irligi 8 gramm oltin tangalarni zarb qildirgan. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'yini ortishga olib keladi. Xudi shu yillarda Rim imperatori bilan savdo-sotiq ishlari kuchaydi.

Ustamon siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Buning din sohasida o'tkazgan islohati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand, budda dini davlat diniga aylantirilgan bo'sada, biroq mamlakatni turli hududlarida mahalliy aholi qaysi dinga ishongan bo'lsa, e'tiqod qilgan dinga erkinligi saqlanib qoldi. Hatto o'zarb etilgan tangalarda ham Budda dinidan boshqa dinlarning xudolarning zarb etgan tangalar chiqarildi. Tangalar kushon va baqtriyali tillarida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Kushonlar sulolasi davrida Dalvarzintepa, Xolchayon (Denov), Zarteap, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atrofi) kabi shaharlar nihoyatda rivojlangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati juda taraqqiy etgan. Ko'plab sug'orish inshootlari barpo etildi, kanallar qurildi. Shaharsozlik, me'morchilik, haykaltaroshlik, kulolchilik kabi hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan.

Dalvarzintepadan 1972 yilda arxeologlar tomonidan 30 kg tilla buyumlar xazinasi alohida qimmatga egadir. Unda 115 ta bilak, xalqalar, bo'yin taqinchoqlari, oltin qo'ymalar, avlodlarimiz mahoratidan nishonadir. Kushonlar davrida madaniyatning muhim katta yutuqlaridan shuki, bunda turli qutb va mintaqalarda yashaydigan xalqlarning madaniyatlari o'zaro yaqinlashib, bir birlarini to'ldirib boyitib borgan. Bu esa turli-tuman sohalarda yaqindan hamkorlik, hamjihatlik qilishlariga keng yo'l ochgan umumiy yuksalishga turtki bo'lgan va moddiy va ma'naviy madaniyatingi rivoj topganligini namoyon etgandir.

Kushon podshohligi ruxoniylar qo'lidagi davlat bo'lib, bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh hoqon hisoblangan. Podshohlik satrapiyalarga (vilotlarga) bo'lingan bo'lib, ularning boshliqlari ma'lum ma'noda o'zlarini mustaqil deb hisoblaganlar.

Kushon davlati quldorlik davlati hisoblansada davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati juda katta bo'lgan.

Milodiy III asrning o'rtalarida o'zaro kurashlar avj ola boshlaydi. III asrning ikkinchi yarmida kushon podshohlarining ko'pgina yerlarini Eron sosoniylari qo'lga o'tadi va qudratli kushon davlatini inqirozi kuchaya boshlaydi.

**Muammoli savol: Salavkiylar davlati boshqaruv sistemasi Ahamoniylar va Iskandar davlati boshqaruviga o'xshar edimi?**

Salavka davlatni boshqarishda yangicha yo'l tutib, mamlakatni 72 ta satraplikka bo'ldi. Satrapliklarning o'zida hokimiyat ikkiga bo'lindi. Satrap faqat fuqarolik amalga oshirishi, satraplikdagi harbiy kuchlarni boshqarish esa markaziy hukmdor tomonidan belgilanadigan strateg qo'lida bo'lishi belgilab qo'yildi. Bu esa markaziy hokimiyatning ta'sirini kuchaytirishga imkon bergan. Lekin bu tartibga keyinchalik sharqiy satrapliklarda amal qilinmadi. Salavkiylar davlatida boshqaruv tizimi uch bosqich: satrap – eparx – gipparx bosqichlaridan iborat bo'lgan.

Sharqiy viloyatlar Salavkiylar davlatining muhim katta daromad keltiruvchi qismi bo'lgan.

Shuning uchun ham bu viloyatlarga katta ahamiyat berilgan. Miloddan avvalgi 293 yili sharqiy satrapliklar – Parfiya, Marg'iyona, So'g'diyona va Baqtriya viloyatlarining hokimi etib Salavka va Spitamening qizi Anapalarning o'g'li Antiox hokim etib tayinlanadi. Anapa esa ona tamondan Ahamoniylar sulolasiga mansub edi. Shuning uchun ham Anapa nomi bilan salavkiylar davrida bir necha shaharlar barpo etilgan. Antioxning oldida turgan asosiy vazifa sharqiy satrapliklarga ko'chmanchilar tamonidan qilinadigan talonchilik hujumlariga chek qo'yish edi. Chunki bu hujumlar iqtisodiyotga katta salbiy ta'sir etardi. Ko'chmanchilarning hujumlari natijasida Iskandar davrida qurilgan ko'plab shaharlar vayron etilgan edi. Misol uchun ko'chmanchi dah qabilalari Marg'iyonadagi Aleksandriyani buzib tashlaganlar. Antiox ularni qayta tiklash bilan cheklanmay, bir qator yangi shaharlar ham barpo etadi. Shuningdek Marg'iyonaning dehqonchilik maydonlarini himoya qilish maqsadida 250 kmli devor bunyod ettiradi. Antiox sharqiy satrapliklarda bir muncha mustaqil siyosat olib borganligi uning o'z nomi bilan tangalar zarb etganida ham ko'rinadi.

Mil. avv. 280 yili Salavka vafot etgach, Antiox Salavkiylar davlatining boshlig'iga aylanadi va g'arbga ko'chib o'tadi. Ko'proq muammolar bilan band bo'lgan Antiox hukmronligi davrida markaziy hukumatning sharqdagi ta'siri bo'shshadi. Miloddan avvalgi 260 yili Antioxning vafot etishi esa sharqiy viloyatlarning mustaqillikka intilishi uchun qulay sharoit tug'diradi.

Salavkiy ko'chmanchilarning hujumlariga chek qo'yish orqali dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi uchun qulay sharoit yaratishga harakat qildilar. Chunki davlat xazinasini to'ldirish zaruriyati ham shuni talab qilardi. Ko'plab mudofaa inshootlarini qurilishi ishlab chiqarish faoliyati xavfsizligini tahminlashda muhim rol o'ynadi va iqtisodiyotning ma'lum darajada jonlanishiga olib keldi. O'rta Osiyo O'rta yer dengizi sohillaridagi mamlakatlar bilan ham qizg'in savdo aloqalarini olib bordi. Lekin Salavkiylarning og'ir soliqlari natijasida ishlab chiqarishning jonlanishining natijalari O'rta Osiyo uchun samarasiz edi.

### **Yunon-Baqtriya davlati**

Salavkiylar davlatida markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi va satrapliklarning mustaqillikka intilishi oqibatida miloddan avvalgi 253 yili Baqtriya satrapligi o'z mustaqilligini qo'lga kiritadi. Podshalari yunonlar bo'lgan bu davlat tarixga Yunon-Baqtriya davlati nomi bilan kirgan. Yunon satrapi Diodotning mustaqillik uchun intilishi mahalliy aholi tamonidan ham qo'llab quvvatlangan. Chunki ikki tamonlama zulmdan ezilgan xalq o'z ahvoli engillashishiga umid qilgan. Yunon Baqtriyaning dastlabki hokimi Diodot I Salavkiylar bilan ittifoq tuzib, Parfiyaga qarshi kurashgan bo'lsa-da, keyinchalik Parfiya taxtiga Arshak chiqqach bu davlat bilan munosabatlar yaxshilangan. Diodot II esa Parfiya bilan harbiy ittifoq ham tuzadi. Diodot I va Diodot II lar davrida Yunon Baqtriya davlati tarkibiga Baqtriyadan tashqari Areya, Marg'iyona, So'g'diyona hududlari ham kirgan edi. Lekin Diodot IIning Baqtriyadagi mavqeyi kuchli emasligi oqibatida miloddan avvalgi 230 yili hokimiyat So'g'diyona satrapi Yevtidim qo'lga o'tadi. Ba'zi adabiyotlarda u miloddan avvalgi 312 yili Baqtriya taxtiga chiqqanligi bayon etilgan. Lekin ko'p o'tmay Yunon-Baqtriya salavkiylarning yangi hujumiga duch keladi. Salavkiylarning so'nggi kuchli hukmdorlaridan Antiox III salavkiylarning avvalgi qudratini tiklash maqsadida miloddan avvalgi 209 yili Parfiyani bo'ysundiradi va miloddan avvalgi 208 yili Yunon-Baqtriyaga bostirib kiradi. Tajan daryosi sohilidagi shiddatli jangda Evtidimning 10 ming kishilik suvoriylar qo'shini tor-mol etiladi. Zariasp qal'asiga chekingan Evtidim shahar aholisi bilan birgalikda dushmanning ikki yillik qamaliga dosh beradi. Nihoyat miloddan avvalgi 206 yili sulh tuzulib, unga ko'ra Yevtidim Antioxni oliy hukmdor deb tan oladi va uning Hindistonga qilinadigan yurishida yordam ko'rsatishga vada beradi. Buning evaziga Antiox ham Yevtidimni Yunon-Baqtriya hokimi sifatida tan olib, shimoldagi ko'chmanchilarning ehtimol tutilgan hujumlariga qarshi yordam berishga rozi bo'ladi. Antiox IIIning Hindiston yurishi samarasiz yakunlangach, Yunon - Baqtriya o'z mustaqilligini tiklaydi. Miloddan avvalgi 199 yili taxtga chiqqan Yevtidimning vorisi Demetriy davrida Yunon-Baqtriya yanada yuksaladi. U ma'muriy va harbiy islohatlar o'tkazgan. Demetriy mamlakatni mayda viloyatlarga bo'ladi va ko'plab harbiy qal'alar qurdiradi. Termiz shahri ham uning farmoniga ko'ra bunyod etilgan edi. Shuningdek Demetriy Shimoliy g'arbiy Hindistonni bo'ysundirishga ham erishadi. Keyinchalik poytaxtni Panjobdagi Taksilaga ko'chirilishi Zariaspdagi zadogonlarning naroziligiga olib keladi va miloddan avvalgi 174 (175) yili unga qarshi isyon ko'tariladi. Isyon boshlig'i yunon sarkardasi Evkratid edi. Uzoq kurashlardan so'ng miloddan avvalgi 167 yili

Demetriy halok bo'ldi va davlat ikkiga Yunon-Baqtriya hamda Yunon – Hindga bo'linib ketadi. Miloddan avvalgi 162 (160) yili Yevkratid har ikki davlatni birlashtirish maqsadida Panjobga bostirib kiradi. Lekin Demetriyning vorislaridan Menandr uni mag'lubiyatga uchratadi. Bu vaqtda Parfiya davlati kuchayib, Marg'iyonani Baqtriyaдан tortib oladi. Evkatidning hukmronligi uzoq davom etmadi. Miloddan avvalgi 160 (155) yili U o'z o'g'li Geleokl tamonidan o'ldiriladi. Taxtning yangi sohibi Gelerkl davrida So'g'diyona ham Baqtriyaга bo'ysunmay qo'yadi va davlat to'la inqirozga yuz tutadi. Miloddan avvalgi 140 – 130 yillarda sak va yue-chji bostirib kirishi bilan 120 yil umr ko'rgan Yunon-Baqtriya davlati tarix sahnasidan tushadi.

Yunon-Baqtriya davlati gipparxlilarga bo'lib boshqarilgan. Uning iqtisodiy hayoti ancha qizg'in kechgan. Savdo yo'lining Hindiston, Eron va O'rta Osiyoning markaziy hududlariga olib boradigan muhim joyida joylashgan Yunon-Baqtriyaда hunarmandchilik ham yuksak darajada rivojlangan edi. Hunarmandchilikda zargarlik, metallga ishlov berish va to'qimachilik alohida ahamiyat kasb etgan. Hunarmandchilik rivoj topganligi uchun ham Baqtriya «ming shaharlar mamlakati» atashgan.

Baqtriyaда dehqonchilik ham yaxshi rivoj topgan edi. Kvint Kurtsiy Ruf Baqtriya erlarining serhosilligi va bug'doy, arpa, uzumning ko'p ekilishi haqida ma'lumotlar qoldirgan.

Yunon- Baqtriya davlatida rasmiy til yunon tili hisoblangan. Madaniy taraqqiyotda ham yunonlarning ta'siri kuchli edi. Bu davrda mahalliy aholi madaniyati va yunon madaniyatining o'zaro ta'siri natijasida ellin madaniyati shakllandi. Ellinizm madaniyati atamasini tarix faniga ilk bor XIX asrning birinchi yarmida yashagan tarixchi I.G. Droyzen kiritgan. Ikki madaniyatning uyg'unlashuvi natijasida vujudga kelgan ellinizm madaniyati Yunon-Baqtriya madaniy hayotida katta iz qoldirgan.

O'rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Salavka Spitamenning qizi Antiox I o'zini mil. av. 293 yili Sharqiy satraplarga, jumladan O'rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi. O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. av. 293-261 y) Antiox G'arbga qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqqa, jumladan O'rta Osiyo yerlariga kam e'tibor qaratdi. Ular hukmronligi davrida O'rta Osiyo iqtisodiy jihatdan yuksalishiga erishdi, hunarmandchilik, savdo, qishloq xo'jaligi katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Buyuk ipak yo'li qayta tiklanib, yo'llarda obod shahar va qishloqlar barpo etildi.

U Iskandar an'analariga sodiq qolib, strapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalariga qaraganda Salavka 1 davlati Ahmoniylar va Iskandar davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27-28 strapiyalarga bo'lingan.

Har qaysi strapiyani shoh tomonidan tayinlab qo'yilgan strap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors straplaridan farq qilgan hamda ular ham ma'muriy ham harbiy boshqaruvni qo'lga olganlar. Strap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi, soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo xo'jalik hayotni nazorat qilib borgan. Salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda aholidan tayinlangan. Tarixiy manbalarda salavkiylar strapstrateglari yunoncha tildan olingan (stratinik, Aleksandr va boshqalar). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlashgan. Salavkiylar bilan birga mahalliy zodogonlar ham hokimlik qilar edi.

Mil. av. III asrning 60-50 yillariga kelib salavkiylar hukmdorlari orasida hokimiyat uchun kurash boshlandi va o'zaro janjallar mamlakatni kuchsizlantirib qo'yadi. Natijada O'rta Osiyodagi xalqlarni siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Mil. av. 250 yilga kelib dastlab parfiya keyin Yunon Baqtriya davlatlari ajralib chiqib o'z mustaqilligini qo'lga kiritdilar.

Yunonlarning uzoq davom etgan hukmronliklari davomida yunon madaniyati bilan Sharq xalqlari madaniyati o'zaro singishib, bir-birini boyitib bordiki, bu hol ellinizm nomi bilan mashhur bo'ldi. Baqtriyaда yunon yozuvi, pul munosabatlari, og'irlik o'lchov birliklari tarqaldi. Shaharsozlikda yanicha yo'nalishlar rivojlandi.

Mil. av. VI asrning boshlarida Parfiya davlati vujudga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, "Qoraqum—Parfiya davlatining beshigidir".

U mil. av. 247 yilda Arshak boshchiligida Niso (Turkmaniston) shahrini egallab o'zini podsho deb e'lon qiladi.

Mil. av. 235 yil o'z yerlarini kengaytirib, besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoyning

g'arb mamlakatlari bilan savdo ishlarida vositachi bo'lgan.

Yunon Baqtriya –salavkiylardan ajralib, alohida davlat bo'lishida Baqtriya aholisi tomonidan qo'llanib hokimiyat tepaiga kelgan Diodot boshchilik qilgan. U mil. av. 256-242 va 246-245 yillarni aytadilar. (Evtidem, Demetriy, Yevkratid kabi hokimlar) Hindistonning shimoliy –g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi yerlarni ham qo'shib oldi. Uni gullab yashnagan davri mil. av III ming yillikning II yarmi va mil. av. II asrning I yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar) , Oyxonim, Qorabog'tepa, Kampirtepadan topilgan juda boy topilmalar shunday dalolat beradiki, bu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon –Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat birinchi viloyatlarga bo'lingan bo'lib bu viloyat hokimlari podshoha bo'yysunar edi.

Bu davlat 250-130 yillarda juda gullab yashnagan bo'lib, mil. av. II asrning ikkinchi yarmiga kelib, ko'chmanchilar zarbalari ostida inqirozga uchradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, salavkiylar sulolasi bilan doimiy ravishda olib borilgan kurashlar natijasida mil av. III asrning boshlarida Qang' davlati paydo bo'ldi. U Yunon-Baqtriya ko'chmanchi qabilalar bilan olib borilgan kurashlar oqibatida O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar tashkil qiladi.

### **Kushon bekligini tashkil topishi**

Kushon bekligining tarix sahnasida paydo bo'lishiga massaget, Xitoy manbalarida yuechjilar nomini olgan qabilalar sabab bo'lgan. Mill. avv. III asrda Sharqiy Turkiston va Shimoli-Sharg'iy Tibet chegaralarigacha bo'lgan hududlarda Xitoy manbalarida tilga olingan "da yuechji" (katta yuechjilar) deb atalgan massaget qabilalari yashagan. Ko'pgina adabiyotlarda yuechjilarning bu erga Spitamen qo'zg'oloni bostirilgandan so'ng ko'chib kelganligi ta'kidlanadi. Ular Balxashdan to Xitoygacha bo'lgan hududlarda yashagan xunnlarga qo'shni bo'lishgan Yuechjilar Sharqiy Turkistonga joylashib, janubiy qo'shni sifatida xunnlarni o'z ta'sir doirasiga olish niyatida bo'lganlar.Ularning bu niyati mil. av. III asrning 2 yarmida Urta Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarida tarkib topgan Yunon-Baqtriya davlatiga qarshi birlashgan mustahkam qo'shin tuzish zarurati paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ldi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem massaget qabilalarining bu harakatlaridan cho'chib mil. avv. 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi ittifoq tuzgan edi. Shu yili xunn shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan garovlikdan qochadi va otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga mil. av. 190 yilda lashkar tortib boradi. 25 yil davom etgan urushda mil. av. 165 yilda xunnlarning qo'li baland kelib, yuechjilarni g'arbg'a uloqtirib tashlaydi. Manbalarda keltirilishicha xunnlari sardori Laoshang' yuechji sardorining bosh chanog'idan kosa yasab, g'alaba uchun sharob ichgan. Jangda yengilgan ko'chmanchi massaget qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga kelib o'rnashadilar va ular keyinchalik Koson (Farg'ona), Kattaqo'rg'on (Zarafshon vohasida), Kesh (Qashqadaryo) qishloq, shaharlarini barpo qiladilar. Hududiy jihatdan Farg'ona erlarining Sharqiy Turkistonga yaqinligi va ularning ko'chib yurish yo'nalishida joylashganligini kushonlarning vodiya kelishiga sabab bo'lgan.

Mil. av. 155 yilda Yunon-Baqtriya davlati inqirozga yuz tutdi. Evkratid o'g'li Geleokl tomonidan o'ldiriladi, Parfiya Marg'iyonani tortib oladi. Xuddi shu vaziyatdan foydalangan yuechjilar o'zini mustaqil deb e'lon qilgan So'g'diyona erlari orqali mil. av. 140 yilda Baqtriyaga kirib keladilar. Baqtriya hududida 100 yil davomida yuechjilar beshta qabila (Guyshuan, Xyumi, Shuanmi, Xise, Dum) ga bo'linib yashaganlar. Milodning birinchi asri boshlariga kelib taxminan 15-45 yillarda Guyshuan qabilasi yabg'usi Kudzula Kadfiz qolgan qabila yabg'ularini tobe etib, o'z davlatini Kushon bekligi deb e'lon qiladi. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepani bu beklilikning poytaxtiga aylantiradi. Kadfiz I davlat chegaralarini kengaytirish va uning qudratini mustahkamlash maqsadida Amudaryoning chap sohilidagi-Parfiya, So'g'diyoni, Marg'iyona, Qobul daryosi havzasini, Kashmirni, shuningdek Hisor tizma tog'laridan shimol tomonda joylashgan mamlakatlarni ya'ni bu davrda xunnlari va Xitoy bilan kurashi natijasida zaiflashib qolgan Qang'xa podsholigi (Xorazm, So'g'd, Shosh) ni o'ziga bo'ysundiradi. Kudzula Kadfiz davrida kushonlar o'z pullarini zarb etmaganlar.U tangalarni Rim imperator va Parfiya

podsholari zarb qilgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Bir guruh tangalarda "yabg'u Kudzula Kadfiz " degan yozuv uchrasa, yana birida "Hukmdor Kadfiz" degan yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Bu esa uni Guyshuan qabilasi yabg'usi bo'lgan paytdan tanga zarb etganini isbotlaydi. Boshqa bir tangalarda Yunon-Baqtriya podshosi Germey tamg'alari tushirilib uning nomi yozilgan, ikkinchi tomonida esa Gerakl siymosi va "O'z ishonchiga qat'iy kushonlar yabg'usi Kudzula Kadfiz" degan so'z bor. Buni ba'zi olimlar Kadfiz I Yunon-Baqtriyaning tan olgan va birgalikda tanga zarb etgan desalar boshqalari Germey tangalari Baqtriya keng tarqalgan degan xulosalarga kelishgan. Shuni aytish mumkinki, Kadfiz I qabila yabg'usi bo'lgan davrda Yunon-Baqtriya davlatining so'nggi qoldiqlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan va ular bilan tangalar zarb etgan.

### **Kushon saltanatini kuchayishi va inqirozi**

Yunon-Baqtriya inqirozga yuz tutgandan so'ng yuechjilarning bu hududlarga borib osonlik bilan o'rnamashishiga qulaylik yaratgan va Kushon davlati tashkil topgandan keyin ularning birgalikda zarb etgan tangalari pul muomalasida to'liq foydalanilgan. Yunon - Baqtriya tangalariga taqlidan tanga zarb etish bilan Kudzula Kadfiz o'zini bu davlatning vorisi deb bilgan bo'lishi mumkin. Bu davrda davlat tili yunon tili bo'lgan. Chunki Kushon podshosining asosiy hududlarida yunonlar yashagan. Kadfiz I davrida Kushon davlati Xorazm va So'g'ddan Hindgacha, Pomirdan Parfiyagacha cho'zilgan edi. Shu keng o'lkaning siyosiy markazini belgilash uchun imkon beradigan dalillar yo'q, lekin, Qang'xani qo'shib olgan Kudzula o'z ma'muriy poytaxtini Hisor tizma tog'larining ortidagi Kushoniyaga yoki Zarafshonga (Kattaqo'rg'on rayoni) ko'chirgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Lekin ko'pgina olimlar bu davrda Kushon davlatining poytaxti Surxondaryoning Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepa bo'lganligini ta'kidlaydilar. Kiotszyukyu (Kudzula Kadfizning xitoy manbalaridagi nomi) 80 yoshida vafot etadi. Uning vorisi sifatida Kushon bekligi taxtiga Vima Kadfiz (51 - 78) chiqadi. U otasining istilochilik faoliyatini davom ettirib Pokiston va Hindistonni Banorasgacha bo'ysundirdi. Bu bilan u Grek-Baqtriya shohlarining Hindistondagi so'nggi avlodlari hukmronligiga chek qo'ydi. Kadfiz II davrida mustaqil pul islohoti o'tkaziladi. Uning tangalari otasining tangalaridagi grekcha yozuvlarining to'g'riligi bilan ajralib turadi. Vima Kadfiz o'z nomi bilan zarb etgan tangalar orasida Hind xudosi Shiva tasvirlangan. Unga atab Hindistonning Mathura shahrida tosh haykal o'rnatadilar. Bu esa yangi diniy tasavvurlarning kirib kelayotganidan dalolat berar edi. Bu tangalar oltin, kumush, misdan ishlangan bo'lib, massasi 8 grammdan bo'lgan. Oltin tangalar tashqi savdo uchun zarb etilgan. Vima Kadfiz joriy qilgan bu oltin, kumush tangalar Kadfiz I davridagi tangalarni pul muomalasidan to'liq siqib chiqara olgan. Davlat tili Yunon-Hind tili bo'lgan, chunki Vima Kadfiz davriga kelib Hindistonning markaziy viloyatlari ham kushonlar hududiga qo'shib olingan edi. Shunday qilib, milodiy I asrning 78 yilgacha bo'lgan davr kushonlar va ularning Grek-Baqtriya, Qang'xa podsholigi o'rnida vujudga kelgan saltanatning yuksalishi, mustahkamlanishi, o'lka erlarining shimol va janubga yoyilish davri bo'ldi. Ammo davlat markazi hamon So'g'd yoki Baqtriya bo'lib qolaverdi.

Vima Kadfizning 30 yillik podsholigidan so'ng taxtga uning vorisi Kanishka chiqadi. Uning davrida Sharqqa siljish kuchayadi, Hindistondagi hokimiyat kengaytiriladi, Markaziy Osiyoning Xorazm, So'g'diyona, Choch viloyatlari kushonlar qo'lga o'tadi. Hindistonning janubiy, shimoli-g'arbiy rayonlari qo'shib olinadi va poytaxt Peshavorga ko'chiriladi. Kadfiz III budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qiladi. O'zi buddizmni qabul qilib uning imperiya miqyosidagi himoyachisiga aylanadi. U din sohasida islohot o'tkazib, 100 yilda budda dini ulamolarining qurultoyini chaqiradi. Ilgari zarb etilgan tangalar faqat hind xudosi Shiva tasviri bilan chiqarilgan bo'lsa, endi tangalarda Mikra- Mitra (Quyosh mahbudasi), sggash (olov mahbudasi), Farr (Omad va ma'murchilik mahbudasi) tasvirlari tushiriladi. Kanishka davrida Kushon bekligi siyosiy hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lishi bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Davlat satraplikka bo'lingan bo'lib, satraplar ayrim erkinliklarga ega bo'lgan. Masalan, ular diniy e'tiqod va boshqaruv tizimini o'z qo'llariga olganlar. Kanishka davrida davlat tili Kushon-Baqtriya tili bo'lib, 22 harfdan iborat Kushon (Baqtriya) yozuvi deb atalgan. Yana hind alifbosiga asoslangan Kxarashti yozuvi ham ishlatilgan. Ayni shu davrda badiiy san'at maktablari (Ganhara, Madhura, Baqtriya) shakllandi. Kadfiz III adabiyot va san'at homiysi bo'lgan. Uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir, faylasuf Ashvagxoma, Matricheta Nagarchuna hamda Charaka yashab ijod qilgan.



Xitoy va Parfiya bilan kurash olib borayotgan Kushon podsholigi Yaqin Sharqda hukmron bo'lish uchun Rimning ittifoqchisi edi. Biroq savdo manfaatlari bu davlatlarni o'zaro yaqinlashtiradi. Kanishka "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoit yarata olgan. Sharqiy Turkistonning qo'shib olingan shaharlar - vohalari orqali Xitoy bilan, g'arbda dengiz yo'li bilan, Misr orqali yoki quruqlikdagi yo'l bilan, Eron orqali O'rta dengiz havzasidagi Rim imperiyasi shaharlari bilan, shimolda Xorazm va Ural bo'yi orqali Sharqiy Yevropa bilan savdo qilingan. Bu savdo aloqalarini isbotlovchi Rimdagi Troyan kolonnalarida Markaziy Osiyo vakillarining tasvirlari mavjud. Bundan tashqari Kushon bekligiga tegishli tanga pullar Italiya, Misr, Ural bo'yi davlatlaridan, Termiz shaxridan juda ko'plab topilgan. Milodning I asr 70-80 yillarida Sharqiy Turkiston hududlarida Xitoy Kushon mojarolari boshlanadi. Urush boshlanishi uchun quyidagi voqea bahona bo'ladi. Kanishka Xitoy malikasini qo'lini so'rab sovchi yuboradi. Elchilarni Xitoy hukmdori qamoqqa oladi. O'zini haqoratlangan deb bilgan Kanishka Xitoyga qo'shin tortib boradi. Uzaro urushlardan engilgan Kushon hukmdori Sharqiy Turkistondan chekinishga majbur bo'ladi. 102 yilda Xitoyning engilmas lashkarboshchisi Ban Chao vafot etadi. Natijada Xitoy o'z ta'sirida tutib turgan Sharqiy Turkistondagi qo'zg'olonlarni bostira olmaydi. Sharqiy Turkiston viloyatlari xalqlari Xitoyga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Bu qulay vaziyatdan foydalangan kushonlar Sharqiy Turkistonga 107 yilda yana yurish qiladi. Kushonlar Sharqiy hududida hukmronligini o'rnata olmagan bo'lmasalarda, Tarim havzasi Xo'tan, Qashg'ar, Yorkent bekklik erlariga qo'shib olinadi. Shunday qilib, Kanishka 78 yildan 123 yilgacha hukmronlik qilgan davr orasida Kushon davlatini ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksalib, burjli mustahkam mudofa devoriga ega bo'lgan shahar qurilishi taraqqiy etdi, ko'plab yirik sug'orish inshootlari barpo qilindi. Kanishka vafotidan keyin taxtga kushonlar o'g'li Vasishka o'tiradi. Vasishkaning podsholik yillari, davlat boshqaruv tizimi, olib borgan ichki va tashqi siyosati, xalqning ijtimoiy hayoti haqida Xitoy manbalarida ham, Grek manbalarida ham, hind manbalarida ham hech qanday ma'lumotlar yozib qoldirilmagan. U to'rt yil podsholik qilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor xolos. Xuvishka Vasishkaning vorisi bo'lib, u hokimiyatni 32 yil boshqaradi. Undan so'ng Vasudeva 34 yil Kushon podsholigini idora qilgan va bu davrda bekklik ikki qismga bo'lingan holda boshqarilgan. Mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida Vasudeva, janubiy-g'arbiy qismida Kanishka III podsholik qilgan. Ularning hukmdorligi haqida zarb etilgan tanga pullar guvohlik beradi. Kushonlar saltanati Kanishka vorisi Xuvshikadan keyin inqirozga yuz tuta boshlagan. III asr boshlarida Eronning janubiy-g'arbida tashkil topgan Sosoniylar podsholigining kuchayishi o'sha davrdagi kuchsizlanib qolgan Parfiya va Kushon kabi davlatlarning inqirozini tezlashtirdi.

### **Muammoli savol: Kushon davlatining parchalanib ketishiga sabab bo'lgan asosiy omil nima?**

Vasudeva Sosoniylar tomonidan bo'ladigan xavfga qarshi ittifoq qidirib, 230 yilda Xitoyga o'z elchisini yuboradi. Lekin bu paytda Xitoyda Xang' podsholigi Vey, Shu, U kabi davlatlarga bo'linib ketgan edi. Bu siyosiy vaziyatda Vasudevaga "Uch podsholik" tarafidan yordam kuchi kelmaydi va 242-43 yillarda Sosoniy Shopur I qo'shini kushonlarni mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alabadan so'ng Sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Xuroson hududlarida "Kushonshoh", 252 yildan so'ng esa "Kushon shohlarining ulug' shohi" degan unvonga ega bo'lganlar. Hind manbalarida keltirilishicha, III asr o'rtalariga kelib, Hindiston Kushonlardan mustaqil bo'lib olgan. Chunki, Hindistonning katta qismini Sosoniylar erlariga qo'shib olgan edi. Xuddi shu yillarda Xorazm ham mustaqil o'lka sifatida Kushonlardan ajralib chiqadi. Soson podsholarining kuchayishi kushonlarning Rim saltanati bilan aloqasini mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. 274 yilda Rim saltanati hukmdori Avrelinning Palmir ustidan g'alabasiga bag'ishlangan tantanalarda kushonlar ham qatnashganligi ko'rsatilgan. Natijada Sosoniylar shohi Xormuzd II Rim - Kushon do'stlik munosabatlaridan xavfsirab, kushonlar malikasiga uylanadi. IV asrning o'rtalariga kelib, ikki sulola o'rtasidagi aloqalar keskinlashadi. Mill. av. 345 yil Shopur II kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya hududlarini bosib oladi. Bu mag'lubiyatdan so'ng kushonlar umuman yo'q bo'lib ketadi. IV asr oxiriga kelib bu sulolaning so'ngi vakillari kidaridlarning Balxda taxtga o'tkazish tantanalari bo'lib o'tdi. Kidaridlar saltanati oldingi yuksak mavqeini tiklay olmadi. Bu esa inqirozga yuz tutayotgan Kushon podsholigini yanada emirilishiga olib keldi. Kidaridlar tarix sahnasida uzoq

yashamadi. Kushon davlatini yemirilishi bilan bog'liq bo'lgan hech qanday fakt yoki manbalar saqlanib qolmagan.

## **6. Kushon davri madaniyati**

Kushon davri madaniyati haqida tasavvur beruvchi juda ko'p miqdordagi arxeologik moddiy yodgorliklar O'zbekiston hududining Termiz, Qarshi, Zarafshon vohasi, Surxandaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlaridan topilgan. Kushon bекligining poytaxti bo'lgan Dalvarzintepa arxeologik yodgorligi Surxandaryoning Sho'rchi tumanida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 47 gektar, uzunligi 25km, qalinligi 10m burjli ximoya devori chuqur xandaq bilan o'ralgan. Shaxarning markazida boy shaharliklarning mahallalari, janubiy qismida esa hunarmandlar yashaydigan kulolchilik mahallasi mavjud bo'lgan. Yana bu erdan milodning I asrda bunyod etilgan Buddha ibodatxonasi qoldiqlari, loy va ganjdan yasalgan Buddha, Batxisatvaning xaykali, sopol xumdonlar topilgan. Dalvarzintepadagi buyumlar orasida fil suyagidan ishlangan shaxmat donalari va 2 baldog'i Z6 kg og'irlikdagi sopol ko'zada yombilar, bilaguzuk, yoqut-feruz toshlari qadalgan oltin shodalarning topilganligi diqqatga sazovordir. 1933 yilda Termiz yaqinidagi Ayritomdan tashqi devori peshtoqlariga yaxshi kiyingan, marjonlar taqqan ayollarning do'mbira, rubob, chang, nay kabi cholg'u asboblari chalayotgani holda ishlangan haykallar o'rnatilgan. Peshtoqning bir tomonida gul va mevalar ko'targan odam xaykallari ham mavjud. Bu musiqachilar va gulchambar tashuvchilarning tasviri Termizda mahalliy xaykaltaroshlik an'analari va maktablari mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Yana Termizda olib borilgan arxeologik kavlashlar vaqtida Qoratepa yodgorligi aniqlandi. Uni 1979 yilda Masson E.M va E.G. Pchelinlar tekshirgan. qazishlar Qoratepada yirik ibodatxona inshooti qurilganligini, hovlilar ichiga tushgan yomg'ir suvlari tashqariga chiqib ketishi uchun sopol quvurlar ko'milganligini, turar joylar soni 20-25 taga yaqin bo'lganligi ko'rsatadi. Topilmalar ichida sopol chirog'donlar, plitalar, mis chaqalar, hindcha bitilgan yozuvlar (kxaroshtxi, braxma) va devorlarga chizilgan Kushon-Baqtriya hamda fors-pahlaviy yozuvlari xarakterli. Bu yodgorlik II-IV asrda Kushon xalqining oromiy yozuvi asosida Baqtriya-Yunon alfavitidan, hind kxashotriy yozuvlaridan foydalanganligi yuqori madaniy saviyaga ega ekanligidan dalolat beradi.

### **Muammoli savol: Kushon madaniyatiga yunon madaniyatining ta'siri bo'lganmi? Dovon davlatinichi?**

Hunarmandchilikning o'ziga xos yutuqlari ularning idishlar sirtiga tillo suvini yuritishini bilganliklarida ko'rinadi. Xolchayon asori atiqasi Surxandaryo viloyatini Denov shaxrining shimoliy-sharqida joylashgan bo'lib, mill. avv. IV-III asrlaridan milodning VII asrlarigacha mavjud bo'lgan. Saroy ayvonining bosh zali, devorlari suratlar bilan bezalgan. Satxida podsho Geray avlodlariga mansub turli kattalikdagi xaykallar topilgan. Amudaryoning o'ng qirg'og'idan 5km shimoliy-g'arbda joylashgan maydoni 500 gektar keladigan burjli mudofa devori bilan o'ralganligi, markazida yirik qal'a bunyod etilganligi arxeologlar tomonidan aniqlangan. Qoratepa, Xolchayon, eski Termiz devoriy suratlarida diniy bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Umuman olganda, bu moddiy madaniy yodgorliklar Kushon podsholigi davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy urf-odati bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib bera oladi. Kushon podsholigiga doir yozma manba va arxeologik topilmalar kushonlar madaniyatini o'rganish, ularning O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari taraqqiyotida tutgan o'rnini ilmiy baholash muhim ahamiyatga ega.

### **Muammoli savol: O'zbek davlatchiligida Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari qanday ahamiyatga ega?**

Qadimgi Xorazm davlati miloddan avvalgi VII – VI asrlarda hukm surgan bo'lib, uning tarkibiga hozirgi Xorazm o'lkasidan tashqari Turkmanistonning katta qismi va Hirot – Mari viloyatlari hududi ham kirgan edi. Arxeologik ma'lumotlarga asoslanib, Xorazmning ma'muriy va iqtisodiy markazi Ko'zaliqir shahri bo'lganligi taxmin qilinadi.

Afsonalarda Xorazmda hukm surgan sulola Siyovushiylar sulolasi ekanligi tilga olinadi.

«Avesto»da yozilishicha Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lib, Siyovarshon o'limidan so'ng uning uchun qasos olgan nabirasi Kova Xisrav Xorazmda birinchi sulolaga asos solgan. Beruniy esa Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292 yili ko'chib kelganligini, Siyovush esa Turon zaminga miloddan avvalgi 1200 yili kelganligini ta'kidlaydi.

Qadimgi Xorazm davlati tarixiy adabiyotlarda qo'proq «Katta Xorazm» nomi bilan tilga olinadi va u haqida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Bu davlat haqida S.P. Tolstov, V. Xenn, I. Gershevik va Ya. G'ulomovlar o'z fikrlarini bildirganlar. S.P. Tolstov, Ya. G'ulomovlar arxeologik ma'lumotlarga va «Avesto»ga tayanib, «Katta Xorazm» davlati hozirgi Xorazm hududida joylashganligini, Zardo'sht ham shu erda to'g'ilib, shu erdan o'z dinini tarqatganligini va Xorazm davlati tarkibiga O'rta Osiyoning katta qismi kirganligini ta'kidlashadi. Gerodotning Amudaryoning 360 ta kanalga ajratilishi, xorazmliklarning unda katta to'g'onlar qurishlari haqidagi ma'lumotlarni izohlab, Oks (Amudaryo) va Tajan daryolarini taqqoslab, Mari va Hirot hududi ham Xorazm davlati tarkibiga kirganligini xususida fikr bildiradilar.

Evropalik olimlar esa (V.Xenn, I. Gershovich) Gerodotning ma'lumotlari geografik jihatdan Mari va Hirot viloyatlariga to'g'ri kelishi, Zardo'shtning homiysi, uning dinini o'z fuqarolari bilan birgalikda qabul qilgan Kavi Vistashpaning viloyati Hirot hududiga mos kelishi kabi dalillarga asoslanib «Katta Xorazm» Marv va Hirot viloyatlari hududida tashkil topgan degan xulosaga kelganlar. Ular Xorazmdan topilgan arxeologik manbalarni e'tiborga olmaganlar va eronliklarning tazyiqi oqibatida xorazmliklar keyinchalik Amudaryoning quyi oqimi tomon ko'chishgan degan ilgari suradilar.

Qadimgi Baqtriya davlati ham miloddan avvalgi VII – VI asrlarda hukm surgan va uning markazi Baqtra (Zariaspa) shahri edi. Baqtriya davlati hududiga So'g'diyona va Marg'iyona viloyatlari ham kirganligi tarixiy adabiyotlarda ta'kidlanadi.

Qadimgi Baqtriya tarixi haqida ossuriya va yunon-rim manbalari ham ma'lumot beradi. Miloddan avvalgi VIII asrga oid ossuriya manbasida ossuriyalik ayg'oqchining Baqtriya haqidagi malumotlari keltirilgan: «Podshohim, mening lazurit qidirib, tog'li joylarga borganimni janobi oliyim bilmaydilar. Men lazurit olib kelayotganimdan xabar topgan mahalliy xalq menga qarshi g'alayon ko'tardi. Agar hazrati oliylari lozim topsalar, bu tomonlarga qo'shin yuborsin valazuritni olib ketsin. Faqat men mahalliy xalqqa yaqinlashmayman va ular bilan birga suv ham ichmayman, bir dasturxon atrofida o'ltirmayman ham».

Baqtriya haqidagi bir muncha mubolag'ali ma'lumotlar Eron shohlari Doro II va Artakserks II larning saroy tabibi bo'lgan knidlik Ktesiyning asarlarida uchraydi. U Ossuriya podshosi Nin Belidning 1700 ming piyoda askar va 210 ming otliq askar to'plab Baqtriyaga bostirib kirganligi, Baqtriya hukmdori Oksiart 400 ming vatan himoyachisi bilan jang qilganligi, dastlabki jangda mag'lub bo'lgan baqtriyaliklar shaharlarga bo'linib ketganligi va bu shaharlar tez orada dushman tomonidan egallanganligini hikoya qiladi. Ktesiyning hikoyasiga ko'ra Nin Baqtriyani rafiqasi Semiramida boshchiligidagi qo'shimcha kuchlar etib kelganidan keyingina egallaydi. Bosqinchilar Baqtriyani talab qaytib ketishadi. Keyinchalik Midiya va Ossuriya o'rtasida urush chiqqanda dastlab Ossuriya ittifoqchisi bo'lgan Baqtriya midiyaliklar bilan kelishib, ossuriyaliklarga qarshi kurashganligi va Midiya hamda Kir II o'rtasidagi urushda ham midiyaliklar tomonida kurash olib borganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Garchi Ktesiyning ma'lumotlari mubolag'ali bo'lsa-da, uning asosida ma'lum darajada haqiqat mavjudligini Ossuriya manbalari, arxeologik manbalar asoslaydi.

O'rta Osiyoda dastlab Iskandar, so'ngra salavkiylar istilosiga qarshi kurashish jarayonida hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qazog'iston hududlarida ko'chmanchi saklarning yangi harbiy-qabila ittifoqi Qang' davlati tashkil topadi. Bu davlatni tuzgan qabilalar Ptolomeyda «qandar», «Avesto»da «qanxa», Firdavsiyning «Shohnoma»sida «tur» va xitoy manbalarida «kangyuy» deb atalgan edi.

Qang' davlatining poytaxti ikkita bo'lib, qishki poytaxt Qang'dez shahri edi. Bu shahar hozirgi kunda Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani hududidagi Qanqa shahar xarobasidir. Xitoy manbalarrida Bityang' deb atalgan bu shahar xarobasining umumiy maydoni 150 ga bo'lib, atrofi devor bilan o'rab olingan. Unga m.avv. III asrda asos solingan bo'lib, Qang' davlati parchalanib ketgach, Choch davlatining markaziga aylangan. Yozgi poytaxt esa hozirgi O'tror o'rnida joylashgan Tarband shahri edi.

Qang' davlati mil.avv. II asrda (170 yillar) So'g'd va Xorazmni ham o'ziga

bo'ysundirganligi taxmin etiladi. Milodning dastlabki asrlarida Kushon saltanatiga bir muncha qaram bo'lgan Qang'ni II asr oxirlariga kelib kushonlarning kuchsizlanishi oqibatida yana o'zini tiklab olganligini faraz qilish mumkin. Umuman olganda Qang' davlati hududi Shosh va Janubiy Qazog'istondan tashqari kuchaygan vaqtida So'g'd va Xorazmni ham o'z ichiga olganligi ma'lum. Farg'ona vodiysi ham uning ta'sirida bo'lgan bo'lishi kerak. Hatto alan qabilalarini ham Qang'ga qaram bo'lganligi xususida ma'lumotlar bor.

Xitoy manbalaridan Qang' davlatining boshqaruv tizimida harbiy demokratiya tamoyillari amal qilganligi va hukmdorning huquqlari oqsaqollar kengashi tamonidan cheklanganligi ma'lum. Shuningdek, Qang' davlatini 5 ta viloyatga ( ularning xitoycha nomlari ma'lum. Susie, Fumu, Yuni, Gi, Yuegyang') bo'lib boshqarilgan.

Qang' davlati O'rta Osiyoni Xitoy bosqinidan saqlashda ham muhim o'rin tutgan. Qang' va Xitoy munosabatlari ko'p hollarda yomon bo'lib, qabul marosimlarida ham xitoy elchilariga zarur e'tibor burilmagan. Xitoy qo'shinlarining miloddan avvalgi 104 – 101 yillardagi Farg'ona vodiysiga qilgan bosqinlariga qarshi kurashda milodiy 80 yillarda ularning navbatdagi bosqinini (xitoy qo'shini Qashg'ardayoq tor-mor etilgan) to'xtatishda Qang'ning harbiy salohiyati katta rol o'ynagan. Zarur hollarda qang' davlatining 120 ming askar to'play olishi va ularning jang olib borish usullari haqida ham manbalarda qiziqarli ma'lumotlar mavjud.

Qang' davlati iqtisodiy hayotida Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan. Chunki uning shimoliy tirsagi Qang' hududidan o'tgan edi. Shuningdek Qang'ning Sirdaryo bo'yida joylashganligi dehqonsilikning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan bo'lsa, bir tamondan ko'chmanchi qabilalar bilan qo'shniligi (ular hunarmandchilik mahsulotlariga doimiy xaridor edi), bir tamondan foydali qazilmalarga boy Ohangaron vodiysi hunarmandchilikning rivoji uchun katta yordam bergan. Qang' davlatining moddiy va madaniy yodgorliklari «Qovunchi madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan. Lekin o'troq aholi yashaydigan hududlarning tabora rivojlanib borishi va davlatining tayanchi hamda asosiy harbiy kuchi, o'zagi bo'lgan ko'chmanchi qabilalarning tabora o'troqlashib borishi Qang' davlatini parchalanib ketishiga olib keldi. Uning o'rnida bir necha feodal davlatlar tashkil topdi. Bu voqealar III - IV asrlarda bo'lganligi va Qang' davlatini 600 yildan oshiq hukm surganligi ma'lum.

### **Davon davlati**

Farg'ona vodiysidagi ilk davlatchilik asoslari miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida shakllangan bo'lib, miloddan avvalgi IV – III asrlarda Farg'ona davlati tashkil topgan. Bu davlat ko'proq Dovon nomi bilan ma'lum.

Farg'onaning qadimgi aholisining saklar bo'lganligi taxmin qilinadi. Farg'ona nomining kelib chiqishi yunon manbalaridagi (Gekatey, Geredot, Pliniy), hind olimi Panini asarlaridagi (miloddan avvalgi V asr), pahlaviy tilida yozilgan "Budaxshin"dagi parikani, pariani, prakanva va parkan so'zlari bilan bog'lanadi. Avestoda esa Farg'ona haqida ma'lumotlar umuman yo'q. Xitoy manbalarida esa bu davlat Dovon (Ulug' van) deb atalgan.

Dovon davlati Eron, Iskandar, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagan, o'z mustaqilligini saqlab kelgan davlatdir. Garchi Salavkiylar sarkardasi Demodam miloddan avvalgi 280 yili Sirdaryodan o'tib yunon xudosi Appolon shahniga mehrob (olovxona) o'rnatgani, Yunon-Baqtriya vodi y orqali Sharqiy Turkistonga qo'shin tortganligi haqida ma'lumotlar bo'lsa-da, ular Dovon davlati mustaqilligini inkor etmaydi. Dovon davlati haqidagi xitoy manbalari m.avv. II asrga tegishli bo'lib, ularda bu erda 300 ming aholi istiqomat qilishi, 70 ta shahri borligi va zarur hollarda 60 ming kishilik qo'shin to'play olishi ta'kidlangan.

Buyuk Ipak yo'li va Dovon ustidan egalik qilish orzusida Xitoy davlati miloddan avvalgi 104 – 102 va 101 yillari ikki marta Dovonga qo'shin tortadi. «Samoviy otlar» orzusidagi bosqinchilarga xitoy fuqarosi Che Lining o'ldirilishi bahona bo'lib xizmat qiladi. Lekin ular birinchi yurishda vodi hududlariga etib ham kelisholmaydi. Ikkinchi yurishda esa 60 ming kishilik qo'shin va 50 dan ortiq sarkarda qatnashadi. Dastlabki janglarda g'olib chiqqan bosqinchilar Dovon poytaxti Ershi shahrini (hozirgi Marhamat shahri o'rnida) 40 kun qamal qiladilar. Nihoyat sulh tuzulib, unga ko'ra Dovon hukmdori Mugua o'ldiriladi va taxtga keksa sobiq hukmdor Matsoy o'tqaziladi. Xitoyliklar bir necha arg'umoq va em-xashak olib qaytishadi. Garchi sulh tuzulgan bo'lsada xitoyliklar og'ir janglar bilan vodiyni tark etishadi. Bu urush davrida xitoyliklarni Qang' davlatining ehtimol tutilgan yordami ham cho'chitgan edi. Xitoyliklar ketishi bilan Matsoy taxtdan tushurilib, Muguaning inisi chiqariladi.

**Muammoli savol: Dovon davlati haqida qadimgi Xitoy manbalarida ko'p ma'lumot keltirilishining asosiy sababi nima deb o'ylaysiz?**


Tarixiy manbalar Dovon davlati boshqaruv tizimida ham harbiy demokratiya tamoyillari ustun ekanligidan dalolat beradi. Hukmdorning huquqlari kengash tamonidan cheklangan. Kengash hukmdorni taxtdan tushurishi yoki saylashi, urush, tinchlik va boshqa diplomatik masalalarni hal etishi mumkin edi. Hatto kengash hukmdorni o'limga ham hukm eta olgan. Uning eng yaqin qarindoshlaridan ikkita yordamchisi bo'lgan. Xitoy manbalarida Dovon hukmdorlaridan Mugua, Chan Fin, Yang'lyu nomlari keltiriladi.

Dovon davlati tarixiga oid bir necha arxeologik yodgorliklar o'rganilgan. Ulardan biri O'zgan shahri yaqinida joylashgan Sho'rabashad shahridir. U 70 ga maydonni egallagan edi. Farg'ona vodiysining miloddan avvalgi III – I asrlardagi tarixi ham Sho'rabashad bosqichi deb ataladi.

Dovon davlat shaharlari Chust madaniyatiga oid shahar tipidagi makonlar negizida shakllangan edi. Vodiya asosiy xo'jalik turi dehqonchilik bo'lib, o'sha davrga oid 10 dan ortiq dehqonchilik markazlari o'rganilgan. Ular Aravansoy, Akbura, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Qorabosh, Tentaksoy, Maylisoy, Ulug'nor, Shahrihonsoy, Akman, Yilg'insoy va boshqalardir. Bu markazlar so'nggi bronza davrida shakllangan bo'lib, miloddan avvalgi IV – I asrlarda yirik aholi yashaydigan markazlarga aylangan edi. Vodiya yilqichilik va chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikda esa kulochilik va to'qimachilik alohida ajralib turgan.

Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysida yashagan odamlarning tashqi qiyofasi qang'arlarga o'xshab ketganligi, chuqur ko'zli va qalin saqolli bo'lganligi ta'kidlanadi.

Farg'ona davlati Kushon saltanati tarkibiga kirgan bo'lsa-da, alohida ma'muriy birlik sifatida saqlanib qolgan va uni 419 yilgacha bir sulola vakillari boshqarishgan.



**ЎРТА ОСИЁ КУШОН САЛТАНАТИ ДАВРИДА**  
(Милодий I-III асрларнинг биринчи ярми)

5 Qadimgi Xorazm, Dovon davlatlarining boshqaruv shakli

## Mavzu: O'rta asr davlatchiligi va boshqaruvi

### REJA.

1. Eftalitlar davlatining shakllanishi va uning rivojlanish tarixi.
2. Eftalitlar davrida Osiyoda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar.
3. Turk xoqonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi
4. Turk xoqonligining xalqaro aloqalari.

### Tayanch iboralar

Feodal, dehqon, kashovar, kadivar, chokar, tudun, noib, budun, ixshid, xudot, qurultoy, Afrig'iyalar, xinoiyalar, kidariylar, sosoniylar, Eftalon, xeftal, xaftal, Vaxshunvar, Siyovush., ijtimoiy-iqtisodiy tuzum; Turk xoqonligi va uning ma'muriy tuzilishi, ijtimoiy iqtisodiy tuzumi va davlat boshqaruv tartiblari (Xoqon) el, ulus maxalliy boshqaruvi; tuman xokimliklari, qishloq va shahar jamoalari

### 1.Xioniylar, Kidariylar, Eftalitlar davlatining shakllanishi va ularning rivojlanish tarixi.

Mamlakatimiz hududida milodimizning IV-V asridan boshlab yerga egalik munosabatlari ya'ni feodal ishlab chiqarish munosabatlari qaror topa boshladi. Feodal lotincha so'z bo'lib, katta yer egasi ma'nosini anglatadi. Turli mamlakatlarda u turlicha nomlarda ishlatilgan. Rusiyada pomeshchik, Polshada - magnat, shelyaxta va h.k. VI-IX asrlar oralig'idagi davrda bu hududda ilk feodal jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Feodal ishlab chiqarish hech bir joyda biron tarzda to'liq shakllanmagan. Har bir mamlakat har qaysi xalq va uni o'zining tabiiy sharoitlariga, o'z an'analariga va hatto tarkib topgan o'z turmush tarziga moslashtirar edi. Jumladan Rusiyada, feodal yer egasi hisoblanadi. Dehqonlar feodal yer egasi foydasiga tekin ishlab berishga majbur edi. Dehqonlar dastlabki davrlarda haftada bir kun, so'ngra ikki kun, undan keyin uch kun, bora-bora esa butun hafta davomida. Ta'kidlaganimiz singari yer feodalning xususiy mulki, dehqon esa bunday mulkdan mahrum edi. Renta solig'ini ma'lum hududdagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar to'laganlar. Bu erkin dehqonlarni "kashovarlar" deb ataganlar. Yer egasi bo'lib olgan xarbiy zodogonlar "dehqon" deb atalgan. Dehqon qishloq xo'jayini ma'nosini anglatadi. Kashovarlar qishloq xo'jayiniga soliq to'laganlar. X asr tarixchisi Tabariy shu ma'noda bunday dehqonlarni qayerdan kelib chiqqanligi haqida yozadi. Go'yo afsonaviy podsho Monuchehr har bir qishloqqa bir dehqonni boshliq qilib tayinlab, bu qishloq aholisiga shu dehqonga bo'ysunish va uning uchun ishlashni buyuradi.

### Muammoli savol: Feodal jamiyatida yerga ishlov berish quldorlik jamiyatidagidan nimasi bilan farq qilgan?

Qishloq xo'jaligini yetakchi o'ringa chiqishi quldorlikka asoslangan eski shaxarlarni tushkunlikka uchrashiga sabab bo'ldi va feodallarni mulklari yonida juda ko'p mayda xo'jalik markazlari vujudga kela boshladi. Kushon davlati inqirozga uchrab tarqab ketgach, ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklarning o'z podsholari bor edi. Ularni nomlari har vohada har-hil bo'lgan. Jumladan, Buxoroda-buxoroxudot, Chag'iniyonda - chag'onxudot, Vardonzeda - vardonxudot, Toshkentda-tudun, Samarqand va Farg'onada - ixshid, Ustrushonda-afshin, Xorazmda-xorazmshoh, Termizda-termizshoh, Eloqda-dehqonlar kabi. Dunyoning boshqa joylaridan farqli o'laroq Markaziy Osiyo hududidagi feodalizmning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda cheklanmagan mustabid sharqona ko'rinishdagi markazlashgan kuchli hokimiyatga intilish ustivor ahamiyat kasb etdi. III asrda boshlangan Kushon podshohligi zaiflashuvi oxiriga etdi. Feodal munosabatlar shakllanishiga shart-sharoitlar yaratila boshlagan.

Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ayrim qismigina ko'chmanchilik turmush tarzini davom ettirgan.

Feodal munosabatlarni paydo bo'la borishiga qaramay turmushda ibtidoiy jamoa tuzum sarqitlari saqlanib qolgan. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumidagi o'zgarishlar munosabati bilan bu davrda eski shaxarlarni inqirozga yuz tutishi qo'rg'on qal'alarning mustahkamlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, yangicha tipdagi shaxarlar, shaxar-qal'alar yuzaga keladi.

Ijtimoiy tuzumdagi o'zgarishlar qishloq hayotida o'z aksini topdi. Ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi munosabati bilan sug'orish ishlari kengaydi. Shaxar va xunarmandchilikning rivojlanishi tafayli xalqaro savdo-sotiq ancha kengayib bordi. I-IV asrlarda Kushon davlati yuzaga keladi va u juda tez kuchayadi. Eramizning III asrida Kushon davlati inqirozga yuz tutdi. Bu hol dastavval dehqonlar ommasini noroziligidan uning xarbiy ishlariga qaraganda mustahkamroq daromad manbaidan yaratish yo'lidagi intilishdan kelib chiqqan edi. Dehqonlar yerga ishlov berish, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan astoydil shug'ullana boshlaydi. Vohalar bo'ylab, ayniqsa, sersuv, azim daryo adoqlarida qator yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalak kabi o'sha davr suv inshootlari kashf etilib, oqar suv sathidan bir muncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib, obod etildi. Ziroatchilikda g'allakorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi. Natijada mamlakatlarni iqtisodiy hayotida mustahkam xom-ashyo manbai sifatida qishloqlarni nufuzi ko'tarilib, munosabat, ayniqsa, ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o'zgarib boshladi.

Ikkinchi tomondan, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar yaxshilanib mamlakatning dasht va tog' oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor erlarga bo'lgan muhtojlik tobora ortib boradi.

Asrlar davomida sug'orish va ekin yetishtirish agrotexnikasi xususan yer maydonlarini o'g'itlash, ziroatlarga ishlov berish sohasida orttirilgan asriy tajribalari tufayli aholi dehqonchilikdan ancha mo'l hosil oladigan bo'ldik.

Bu davrdan shaxarlarda aholining gavjumlashuvi, xunarmandchilikning rivoj topish ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib shaxarlar tevarak atrofidagi ziroatkor mavzularning hududlari tobora kengayib bordi.

### **O'rta Osiyoda Xioniylar davlatining tashkil topishi**

IV asr o'rtalarida O'rta Osiyoga shimoliy-sharqdan Ettisuv va Sharqiy Turkiston hududlaridan kelgan ko'chmanchi chorvador xion qabilalarining xujumi boshlandi. Tarixda ular xioniylar nomi bilan shuxrat topadi. Baozi manbalarda xioniylarni qadimgi turkiy xunni qabilalariga qarindosh deb eotirof etiladi.

Arman tarixlari bu qabilani «Xonlar» vizantiyalik tarixchilar esa «Xioniylar» deb ataganlar. Arman va Suriyalik tarixchilar «Xonlar»ni kushonlar bilan bir xil bilganlar, Vizantiyaliklar esa ularni «Oq xunlar» deb ataganlar. Bu yerda xioniylar badani oqligi, o'troq turmush sharoiti va boshqa ko'chmanchi xunlarga nisbatan ancha yuqori madaniyat darajasiga ekanligi eotiborga olingan. V-VI asrlardagi tarixshunoslar asarlarida (masalan: Suriyalik, Vizantiyalik, Armanistonlik, Seboee va boshqalar) xioniylar, eftolitlar bilan baozilarida kushonlar bilan aynan bir bo'lgan deb yozadilar. Bunday fikrlar bizga bu qabalalar o'rtasidagi farq etnik xarakteriga ega bo'lmasdan balki sulolaviy jixatdan farqlanadi, degan xulosa qilishimiz asos bo'la oladi.

### **Muammoli savol: Nima uchun xioniylar aynan O'zbekiston hududiga bostirib kirdi?**

Arman manbalarida ma'lumlanishicha, o'sha paytda enidigana yuziga ajin oralagan o'rta yoshdagi Grumbat ismli hukmdor xioniylarni boshqarar edi. U nixoyatda dono, behisob g'alabalari bilan dong'i ketgan podshoh bo'lgan. Grumbat boshchiligidagi xioniylar 353 yilda So'g'dga yurish qiladi. So'ngra ular Eronda Melodiy III asr boshlarida tashkil topib, tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar bilan to'qnashdilar. Sosoniylar va xioniylar o'rtasidagi ilk janglardayoq Eron qo'shinlari mag'lub bo'ladi. shunday so'ng Sosoniylar hukmdori Shopurlar va Xioniylar shoxi Grumbat o'rtasida sulx shartnomasi tuziladi. Ular o'rtasida ittifoqlik ipi bog'landi. Shunga muvofiq 359 yilda Grumbat va uning o'g'li boshliq xioniylar Suriyaning Umida (baozi manbalarda Amida) qamalga olishda sosoniy lashkarlari bilan bir safda turib jang qiladilar. Bu jangda xatto xioniy shahzoda halok bo'lganligi to'g'risida manbalarda qayd etilgan. Ammo qisqa vaqt ichida Grumbat va Shopur o'rtasidagi munosabatlar keskinlasha boradi.

IV asrning 60-70 yillarida sosoniylar shohi Shopur Amudaryo xavzasiga ikki marta qo'shin tortadi, lekin bu jangda ham ular yengilib ortga qaytadilar. Ammo sosoniylar hukmdorlari Shopur mag'lubiyatidan so'ng ham bu hududlarga bo'ladigan janglarni to'xtatmadi. Jumladan, sosoniy

podshosi Varakran V (418-438) xioniylarga qarshi qattiq kurash olib borgan. Bu davrda xioniylar o'z davlat chegaralarini kengaytirish uchun Amudaryo xavzalarini birin-ketin egallashga kirishgan edi. O'z navbatida Varaxran o'z davlat chegaralarini sharq tomonga kengaytirishga xarakat boshlab yuborgan edi. Natijada ikki o'rtada jang bo'lishi muqarrar bo'lib qoladi. Marv atrofida olib borilgan janglardan so'ng xioniylar ustidan g'alaba qozongan Varaxran V o'z davlat chegaralarini Talikon (marv va Balx oralig'i) gacha kengaytiradi va bu yerga chegara vazifasini o'tovchi tosh minora qurdiradi. Undan keyingi sasoniylar podshoxi Yazugrid II xioniylar xujumidan ximoyalanish maqsadida xionlar qarorgoxini vayron qildi hamda tog' yon bag'ridagi shaxarga (hozirgi Kranvodsk shahri yaqinida) o'rnashib olgan xioniylar shohini o'ldiradi. Ammo keyingi ikki yurish vaqtida (453-454) Yazugird II qo'shni xioniylar tomonidan tor-mor keltiriladi. Sasoniylar shoxi ham shu jangdan so'ng qatl ettiriladi.

Nixoyat IV asrning 70 yillarida xioniylar O'rta Osiyoda uzil-kesil hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'lganlar. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo xavzasigacha cho'zilgan keng maydoda kuchli xioniylar davlati qaror topdi. Bu davlat 120 yilda oshiqroq vaqt umr ko'rdi.

Arman, Vizantiyalik va boshqa tarixchilarning asarlarida bu davlat tilga olingan bo'lsada, ammo uning keyingi hukmdori, ularning ijtmoiy-iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumotlarga duch kelmaymiz. Yana bir ko'chmanchi xalq eftaliylarning xujumi natijasida barham topdi. Sirdaryo, Amudaryo oralig'idagi hududlarga o'rnashib olgan xioniy qabilalari vaqt o'tishi bilan mahalliy aholiga qo'shilib ketdi.

## 6. Kidariylar davlati

V asrning 20 yillarida ko'chmanchi chorvador tohar qabilalari Sharqiy Sirdaryo va xavzasiga kirib keladi. Toxarlar kushon avlodidan bo'lib Kidarlar ismli hukmdor ularni boshqarar edi. Shu boisdan bu qabila manbalarda esa kidariylar nomi bilan qayd etiladi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy sug'd yerlarni ishg'ol qilib, xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatadi. Amudaryoning so'l qismida joylashgan Balx kidariylarning poytaxti qilib belgilanadi. V asrning to 60 yillariga qadar kidariylar sasoniylarning Eroniga xujumlar uyushtirib turgan. Ammo navbatdagi 456 yilda bo'lib o'tgan shiddatli jangda kidariylar katta talofat ko'rib mag'lubiyatga uchraydi. Sasoniylardan qaqshatgich zarbaga uchragan kidariylar o'zlarini o'nglay olmaydi. ana shu vaqtda ular shimoldan O'rta Osiyo tomon siljib yana bir ko'chmanchi chorvador aholi eftaliylar bilan to'qnashadi. Natijada O'rta Osiyoda mustaqil siyosat olib borgan toxariylar o'z podsholari Kidarning o'g'li Kungas boshchiligida Hinduqush tog'lari orqali Qondahorga ketadilar va Shimoliy Xindistondagi gupta podshohligini o'ziga bo'ysundiradilar. Shimoliy Xindistondan 477 yilda Xitoyga o'z elchilarini yuboradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kidariylar Shimoliy Xindistonda barqaror xokimiyatlarini o'rnatganlar. Bu yerda ular 75 yil hukmronlik qiladilar.

### **Muammoli savol: Eftaliylar bilan bog'liq manbalar kim tomonidan o'rganilgan?**

#### 7. Eftaliylar davlatining tashkil topishi

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 457 yildan e'tiboran eftaliy podshosi Vaxshunvor Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshonni o'ziga buysundiradi. Eftaliylarning kuchayib ketayotganligidan xavfsiragan sasoniylar shoxi Peroz Eftaliylarga qarshi yurish qiladi. Ammo yengilib, asirga tushib qoladi va yordam so'rab, Vizantiyaga murojaat qiladi. Vizantiyadan yuborilgan pul evaziga asrlikdan ozod qilinadi. Peroz eftaliylarga ilgari bosib olingan Talikon shahrini qaytarib berish va belgilangan chegaradan o'tmaslik majburiyatini oladi. Ammo Peros o'z vazifasini bajarmaydi va eftaliylar ustiga ikkinchi marta qo'shin tortib keladi. Ikkinchi marta ham mag'lubiyatga uchraydi. Suriya manbarida taokidlanishicha u ikkinchi marta asirga tushadi. Sasoniylar shoxi eftaliylarga kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat 20 ta xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi xolos. Majburiyatning qolgan qismi evaziga Peroz o'zining go'dak o'g'li Kovadni garovga qoldiradi va 2 yil davomida Eftaliylarga katta hiroj to'lab turishga majbur bo'ladi. Bu hirojni Peroz aholiga og'ir jon boshi



solliqlarini solish yo'li bilan to'laydi. Shu munosabat bilan arman tarixchisi Lazar Peroz Eronni Eftaliylarga sotganligini va uning xech qachon bu qullikdan qutila olmasligini zorlanib yozgan edi. Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Peroz o'zini Eftaliylarga do'st qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi va o'z singillaridan birini Eftaliylar podshosi Vaxshunvorga xotinlikka taklif qiladi. Biroq Peroz singlisi o'rniga xotinlikka boshqa qizni yuborib, Vaxshunvorni aldaydi. Vaxshunvor bunga javoban Eftaliylarning iltimosiga ko'ra Erondan kelgan harbiy maslahatchilarni kaltaklattiradi va o'ldiradi. Peroz Vizantiya yordamida 3-marta Eftaliylar ustiga yurish qiladi. Bu yurishda eftaliylar chegarasidan o'tgan Peroz o'z askarlari bilan ular uchun maxsus, ataylab tayyorlab qo'yilgan bo'ri uylariga tushib qoladi va xalok bo'ladi. Perozni tor-mor keltirgan Eftaliylar Eronga juda katta o'lpon soliqlari soladilar va Marvni egallaydilar. So'g'dni esa ular allaqachon o'zlariga qaratgan edilar. So'ngra Eftaliylar Kobul va Panjob vodiysini Qarashar, Kuchu, Koshgar va Xo'tonni ham zabt etadilar. Umumiy xulosa shundan iboratki, Eftaliylar kushonlar siyosatini davom ettiradilar va Markaziy Osiyoda yagona markazlashgan davlatni barpo etdilar. Eftaliylar qo'li ostida tarbiyalangan Perozni o'g'li Kovad davrida Eron eftaliylarga xiroj to'lashda davom etdi. Kovad hukmronligi davrida Eron bilan Eftaliylar orasidagi munosabatlar ancha yumshab do'stona tus ola boshladi. Bu hol Eftaliylar orasida o'sgan Kovadning eftaliylar bilan shaxsiy do'stona munosabatlarning natijasi bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Kovad Eftaliylar podshosining qizi, ya'ni o'z jiyaniga uylanadi. Chunki uning opasi asirga tushgach, Vaxshunvorning xotini bo'lgan edi. Ikki tomon o'rtasidagi yaqinlik shu darajada kuchaydiki, Eftaliylar 502 yilda Eron tomonida turib Vizantiyaga qarshi urushda qatnashganlar. 506 yilda tuzilgan sulx bitimiga ko'ra Vizantiya tillasidan o'z ulushlarini olishga muvaffaq bo'lganlar. Eron bilan Eftaliylar o'rtasidagi do'stona munosabatlar Kovadning o'g'li Xusrav Akushirvon davrida ham davom ettirilgan. Chunki Xusrav Eftaliylarga yil sayin kumush hisobida belgilangan xirojni to'lab turgan.

### **Muammlidi savol: Nima uchun juda kuchli bo'lgan Eftaliylar davlati Kushon davlati kabi uzoq yashamadi?**

Ma'lumki so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarni xulosalariga ko'ra eftalitlar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixi manbalarda turli xil qarashlar mavjud. (Ma'lumki xalqning etnik qatlami va etnik tarkibi deganda bir\_birdan muayyan darajada farqlanadi. Etnik qatlam degai xalqning shaklangan hududi, makoniga tegishlidir. Xalqning etnik tarkibi deyilganda esa uning shaklanishida qatnashgan qabila, urug'lar, elatlar va hattoki xalqlar nazarda tutiladi.)

Rim va Vizantiya tarixchilari Marqelin(IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofon Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchisi Lazar Parbskiy (V asr), xitoy solnomachilaridan Bye-Shi (VI asr) bergan ma'lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftalitlar xitoy manbalarida «i-da», «s-da», armanlarda idal, xeptal, arablarda xaytal, suriya va lotin manbalarida eptal deb nomlanadi.

Rus va Vizantiya tarixchilarining ko'pchiligi eftalitlarni turki qabila-massagetlarning so'ngi bo'g'inidan kelib chiqan deb fikr bildiradilar. «Avesto»da esa tatlar nomi bilan eslatib o'tilgan. F. Vizantiskiy esa eftallar nomi bilan bog'laydi. Shu narsa aniqki, eftalitlar Turkiston mintaqasida yashab kelgan turki qavmlardandir. Eftalitlar hukmdori Vaxshunvar Eftalon 457 yilda Chog'aniyon (hozirgi Surxon yerlari), Toxariston va Badaxashoni o'ziga bo'ysundiradi. So'ng ular So'g'dda ham mustahkamlanib oladilar. Ko'p o'tmay eftalitlar Qobul Panjob vodiylarini, Kuchu Qashqar va Xo'tanni (Sharqiy Turkiston)ni zabt etadilar. Shunday qilib, Kushonlar sulolasi egallagan hududlarni to'liq qo'lga kiritib, o'z siyosiy hokimyatini yanada mustaxkamlaydilar.

Eftalitlar o'zining g'arbiy-janubiy qo'shnisi bo'lgan kuchli raqib Eron sostoniyalarini ham uzoq vaqtlar xiroj to'lashga majbur qilganlar (551 yillargacha).

VI asr boshlariga kelib eftalitlar sulolasi shu qadar kuchayib ketdiki, ular 502 yilda Vizantiyaga yurish qilib 506 yilda sulh tuzilib, Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Eron sostoniyalarining hukmdori Perozni o'g'li Kovad, uning o'g'li Xusrav-1 Anushervon ham 554 yilga qadar xiroj to'lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftalitlarga bergan kuchli zarbasidan so'ng Eron eftalitlari ta'siridan xalos bo'lgan.

Ilk o'rta asrlardagi Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, eftalitlarni ko'chmanchi qabilalar ekanligi, ularning yurtida shaxarlar yo'q desa, vizantiyaliklar muaarix (tarixchi) Prokopiy Kesariyskiy esa «eftalitlar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiligiga egadir. O'zaro qo'shnilar bilan munosabatda me'yorini saqlashda vizantiyaliklar va forsladan hech bir

qolishmaydilar».

Demak, efitlitlar davrida ham Kushonlar davridagi kabi saltanat yakka hukumdor tomonidan boshqarilgan. Taxt, otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo''tabar nomoyondalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lgan bo'lishi extimoldan uzoq emas. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bunday ulka saltanatni boshqarishda, yuksak darajada faoliyat ko'rsatish qiyin edi. Shuning uchun, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston hududlarida, shuningdek ba'zi bir viloyatlarida, boshqaruv efitlitlar nomidan mahalliy xonadon (sulola) tomonidan olib borilgan. Shuningdek, markaziy hokimyat noiblari orqali idora etish usuli ham bu vaqtda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lishi kerak. Efitlitlar ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach, obod dehqonchilik voxalariga rivvojlangan shaharlarga savdo yo'llariga ega bo'ladilar. Efitlitlarni bir qismi ko'chmanchi bo'lsa ikkinchi – kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Toxariston va So'g'da dehqonchilik bog'dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab paxta ekilar edi. Bu paxtalar Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Tog' va g'or oldi erlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor otlar ko'paytirilgan.

Efitlitlar davrida asta - sekin yerga egalik qilish tartibida yangi munosabatlar shaklanib bordi. Bu davrga kelib sinfiy tabaqalanishning keskin kuchayishi orqasida ayrim mulkdorlarning mavqei ko'tarilib, ular jamosining oddiy a'zolarini o'z qo'l ostiga kiritib mulklarini ular hisobiga kengaytirib borganlar. O'zining chek eridan ajralib, bu xil mulkdor dehqonlar ta'siriga tushib, ularning yerlarida ishlashga majbur bo'lgan kishilar kadivarlar, ya'ni ijaradorlar deb atalgan. Shuningdek, erkin jamoa asosida dehqonchilik qiluvchi aholi – kashovarlar ham mavjud edi. Shu tariqa, kadivarlar boy dehqonlar foydasiga ma'lum to'lov va majburiyatlardan asosida ishlab berganlar. Bu davlatda hali patriarxal qulchilik munosabatlarining qoldiqlari ham mavjud edi. Chunonchi, boy dehqonlar mulklarida juda ko'plab qullar bo'lganligi, ulardan turli yumushlarda keng foydalanganligi tarixiy hujjatlarda tilga olinadi.

Aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz eksplattsiya qilinishi natijasida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari g'alayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. VI asr birinchi choragida yuz bergan Mazdak qo'zg'oloni buni yaqqol ifodasidir. Mazdakchilar «Z harfi» bilan boshlanadigan 4 narsani aholi o'rtasida teng baham ko'rilishini yoqlab chiqqandilar: zamin (er), zar (oltin boylik), zo'rlik (kuch-hokimiyat) va zan (xotin). Bunda mazdakchilar g'oyalaridan shuni anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o'rtasida barobar taqsimlashni o'rta qo'yishga tashladilar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishi, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq mazdakchilarni g'oyalarini amalga oshirish qiyin edi, chunki sinfiy tabaqalanish kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan edi. Shu bois mazdakchilar harakati hukmdorlar tomonidan bostirildi. Ammo bu harakatning g'oyalari xalq orasida saqlanib, adolat yo'lidagi kurashlarga xizmat qildi.

Efitlitlar davrida aholining bir qismi ko'chmanchi chorvadorlar, ular chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Suv havzasi, daryo bo'ylariga yaqin hududlarda dehqonchilik rivoj topib bordi. Jumladan, Xorazm, So'g'd, Chog'aniyon va Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati salmoqli o'rin tutgan. Darg'om kanali Eski Angor, Zang kanallari kabi suv inshootlari dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Bu davrda yangi tipdagi ko'rkam va gavjum shahar-qal'alar vujudga keldi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtepa shular jumlasidandir. Bu qal'alarda bir necha oilalar yashagan bo'lib, qalin paxsa devorlari bilan o'ralgan. Ularda hukmdorlar tabaqalar uchun hashamatli bezakli ark-qasrlar qurilgan.

Efitlitlar poytaxti Poykand o'z davrining eng ko'rkam, obod shaharlaridan sanalgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, VI-VII asrlarda Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi buxorxudotlarning qarorgohi bo'lgan. Bu yerlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish ishlari ancha irvojlangan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma xil mollari bilan savdo qilganlar. Shaharda ko'plab bozorlaru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Mamlakatni savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, so'g'diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan.

Eftalitlar, Eron, Hindiston, Xitoy va uzoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg'in savdo aloqalarida bo'lganki, bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog'da ularni o'zaro yaqinlashuvlarida, tinchlikni saqlashda muhim rol o'ynagan.

Eftalitlar davrida madaniyatini rivojlanaganligini arxeologik topilmalar asosida topilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarini eslash kifoyadir. Masalan, Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan Saroy bezaklari avlodlarimiz badiiy mahoratining yorqin dalilidir.

Bu davrda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan so'g'd yozuvi bilan birga Xorazm va Eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan.

Eftalitlarda kishilar turli dinlarga e'tiqod qilganlar. Eng keng tarqalgan din-zardushtiylik bilan bir qatorda Buddha dini ham rasm bo'lgan. Shu bilan birga mahalliy aholi e'tiqod qilib kelgan. Vaxsh, Mitra, Anaxita, (quyosh) xudolariga ham sig'inganlar. Sharqda qadimda nishonlab kelingan «Navro'z» va unga xos marosimlar keng bayram qilingan.

Eftalitlarda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo'lgan. Hukmron taabaqa vakillari esa ko'p xotinli odat hukm surgan. Xullas, eftalitlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

563 yillarda eftalitlarga qarshi ikki tomonlama hujum uyushtirildi. Ya'ni shimoldan turkiylar, janubdan eron sosoniylarini xujumi natijasida eftalitlar inqirozga yuz tutadi, bu 562-567 yillarni o'z ichiga oladi.

### **3.Turk xoqonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi**

Turk hoqonligi. O'zbek davlatchiligi tarixida turkiy hoqonlik davlati katta va muhim o'rinni egallaydi. Turkiy hoqonlik xususidagi ma'lumotlar yetarli bo'lsada, biroq ularning ko'pchiligi bir-biriga zid bo'lib, to'liq ma'lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII-VIII asrlarda to'plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar – O'rxun-Enasoy runik yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» VII-IX asrlar tarixiy manbasi, VI asr oxirida yashagan Vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektori Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efseykiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, arab tarixchilari Tabariy, Denovariy (IX-X asr) o'lkamiz fuzololaridan Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy (X asr) va boshqalar asarlarida ham uchraydi. «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Manas»kabi umumturkiy xalq dostonlarida, shuningdek, Maxmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot tarixi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. 1999 yili Alpomishning 1000 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, Termizda qaxramon Alpomishga mahobatli haykal ham o'rnatildi.

Xitoy va boshqa manbalarida, turkiylarning eramizning 92 yilida Oltoy va Tuvaga tutash hududlarda turkiy qabilalar, chunonchi Ashin, Arg'u, O'g'iz, O'ttuz tatar, Qarluq Kitan, Tolis, Turk, Uyg'ur, Duba va boshqa qabilalar yashaganlar.

VI asr boshlarida Oltoyda siyosiy jarayonlar faollashdi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jo'jan xonligi hukmronlik qilardi.

Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron hududlarida esa Eftalitlar hukmronlik qilardi. Xitoyning shimoliy qismida hukmronlik qiluvchi Vey sulolasi (386-558) xonadonlarining kelib chiqishi ham turkiy tilli xalqlarga borib taqaladi. Shundan qilib, VI asr boshlarida Uzoq sharqdan Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududlarda hokimiyat tepasida turkiy sulolalar turgan.

VI asr boshlarida turkiy qavmlar orasida Ashin urug'idan Asan Va – Tuu 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlaricha bo'ysundiradilar va Oltoy turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuu o'g'li Bumin tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jo'jan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jo'jan xonligi qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi.

Bumin 551 yilda yangi davlat Turk xoqonligiga asos soldi. Uning poytaxti Oltoydagi O'tukan shahri edi. Hoqonlik tez orada kuchaya borib dovrug'i ortib bordi. Ular Xitoyni ko'pgina hududlarini bosib oldi. Xitoy podshosi xoqonlikka har yili yuz ming bo'lak ipak mato berib turishga majbur bo'lgan.

552 yili Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning o'g'li Mug'onxon (553-572) o'tiradi. U 558 yili Jo'janlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib, o'z hududini tinch okeanigacha bo'lgan

hududlarda mustahkamladi. Uning amakisi Istami (unga «yabg'u» - bahodir unvonini bergan edi) bo'lsa, bu davrda hoqonlik hududini g'arbga tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashqar, Ural, Volga bo'ylari va boshqa hududlarni egallaydi

563-567 yillarda Istami Yabg'u qo'shinlari efitaltilarga ketma-met zarbalar berib, uning hududlari bo'lmish O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha yerlarni egallashga muvofiq bo'ldi.

Turk hoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, Eron chegaralariga tutashdi. Eron bilan turk hoqonligi o'rtasida bir necha bor urushlar kelibchiqdi va Eron shohi Xusrav I ni yengidi. Eron turk hoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ldi. Muhonxon Qora dengizgacha bo'lgan yerlarni egalladi.

Turk hoqonligi 568-569 yillarda o'sha davrning qudratli davlati – Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishga muhim hissa bo'ldi.

Turk hoqonligi boshqaruv tartiblari haqida shuni ta'kidlash kerakki, ular O'rta Osiyo hududlarida hukmronlik qilsada, biroq o'zlari bu hududlarga ko'chib kelmadilar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi markaziy qarorgo'larni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar, to'lovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan tashqari ko'rinadiki, Turk hoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tuzilmalari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Hoqonlik istisno hollardagina o'lkani ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashardi. Bu narsa ko'proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalari gadaxl etardi. Manbalarda ta'kidlanishicha, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mutaqil hokimlik-davlatlar Maymurg', Kesh, Naxshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andixay shular jumlasidandir.

Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari o'zlariga ancha mustaqil bo'lganlar. Biroq bu davlat hokimliklari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar avj olib, xalqni turmushini og'ir ahvolga olib kelishga sabab bo'lgan.

585-586 yillarda Buxoroda zodogon dexqon va boy savdogarlarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarildi. Unga Obro'y boshchilik qildi. Hoqon qora cho'rin qo'shinlari qo'zg'oloni bostirdi va qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi.

Turk hoqonligining g'arbiy qismi bilan sharqiy qismlari o'rtasida aloqalar uzilib bordiki –Arslon Tuba hoqon davrida 581 yilda turk hoqonligi ikki qisimga – G'arb va Sharqiy Turk hoqonligiga bo'linib ketgan. G'arbiy xoqonlika – O'rta Osiyoning katta qismi, sharqiy qismi – Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Oltoy va hokoza.

### **3.Turk xoqonligining xalqaro aloqalari.**

Xitoyda Tan sulolasi (618-907 yil) hukumronligi davrida Turk hoqonligi Bilan Xitoy o'rtasida o'z aro aloqalar, hamkorlik keng yo'lga qo'yildi. Masalan, 627-644 yillarda O'rta Osiyodan Xitoyga savokavolari 9 marta yuborilgan. VII-asrning 30 yillarida hoqonlik hududlarini kezgan sayoh Syuan Sin, Isiqko'l, Chu vodisi,Samarqand Buxoro kabi shaharlarni obod va aholi gavjum ekanligini qayd etgan. Tan sulolasi 659 yil Sharqiy Turk hoqonligini o'ziga bo'ysundiradi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko'tarishi bilan Sharqiy Turk hoqonligi o'zini tiklab oladi.

Bu davirda O'rta Osiyo hududlarida turk hoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahali hokimliklar o'rtasidagi ichki zidiatlarning avj olishi yer – mulk uchun o'zoro kurashlar sabab bo'ladi. Bu esa piravord oqibatda arablar istilosiga sabab bo'ldi.

Hoqonlik davrida Turon zaminda kechgan ijtimoiy – iqtisodiy hayotga nazar tashlar ekanmiz, shu narsa ayon bo'ladiki, Turk hoqonligining sharqiy yerlaridan farqli xolda, bu hududda aholining ijtimoiy – iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'gan. Gap shundaki, sharqiy 'udutlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turklarda urug' – ko'chmanchilik munosabatlari hamon kuchli saqdangan. Aholining ko'pchiligi budun yoki xadra budunlardeb atalgan. Uruq – qabilalarning nomdor vakillari(beklar) deb yuritilgan. Jamoani hoqon va zodogonlar kengshashi «Qurultoy» boshqargan. Katta patriarxal oila xo'jaliklarining boshliqlari» Kadxudolar» deb atalgan.

Butun saltanat ustidan oliy hukumronlikni hoqon olib borgan. Bu lavozim meros bo'lgan. Biroq ota doimo o'z o'g'liga taxtni oqldira vermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo'lgan.

Bundan tashqari, shunday hollar ham bo'ladiki, taxt sohibini «urug' oqsoqollari» tayinlagan.

Xonni taxtga o'tkazishda katta marosim orqali amalga oshiriladi. Bo'lajak xonni oq kigizga o'tkazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirganlar. So'ng otga mingazib, bo'yniga ipak mato osganlar.

Hoqondan keyingi shaxs – Yabg'u-bahodir bosh vazir vazifisida bo'lgan. Taxt merosxo'ri – Tegin sha'zoda deb yuritilgan. Shod unvoni viloyat va tuman shahzodalariga berilgan. Tudun unvoni hukmdorning joylardagi nazoratchisi (noiblariga) berilgan. Kambag'al chorvador va dehqonlarni bo'dun yoki qora bo'dun deb ataganlar. So'g'd hukmdori – Ixshid unvoniga, Kesh hukmdori – Ixrid unvoniga (tobe hokimliklar degan ma'noni anglatadi).


O'rta Osiyo yerlarida bu davrda dehqonchilik va uzumchilik sohalari yuksak rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm, Zarafshon vohalarida ko'plab suv inshootlari bunyod etilgan. Farg'ona va So'g'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan shug'ullangan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hoqonlik davrida shaharlar hayoti ancha rivoj topgan. Shaharlarda hunarmandchilikning keng tarmog'i gurkirab rivoj topgan. Buyuk ipak yo'li bu shaharlarni xalqaro savdoda faol ishtirok etishini ta'minlagan.

O'rta Osiyolik qo'li gul hunarmandlar, to'quvchilar, ko'pincha qurolsozlar, ishlab chiqargan nafis xaridorgir buyumlar, asbob-anjomlar dunyoning turli nuqtalariga yuborilgan. Bu davrning o'ziga xos muhim o'zgarishlardan yana biri – O'rta Osiyo kulolchilik hunarining yuksak san'at darajasida rivojlanganligidir.

Bu davrda o'lkamizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar, mutaxassislar ba'siga sabab bo'lgan turk-run, O'rxun-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga hoqon yodnomasi kabi noyob topilmalar turk yozma madaniyatining qadimiyligi va rang-barangligiga guvo'lik beradi. Turkiy yozuvning tarixi mil. avv. II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

#### VI – VII asrlarda boshqaruv tartibi



Arablar fathi arafasida Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu erda 15 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar bo'lib, ular o'zaro urushlar olib borar edilar. Bu hol arablar tomonidan Markaziy Osiyo erlarini bosib olishni engillashtirdi.

Arab fathi ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich 705 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda arablar vatanimiz hududiga vaqti-vaqti bilan hujumlar uyushtirib turdilar, mamlakat boyligini taladilar, ko'plab odamlarni qul qilib o'z yurtlariga olib ketdilar va o'lkani bosib olish maqsadida harbiy ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanganlar.

Arablarining O'rta Osiyoga dastlabki yurishlar ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651 yilda

Marvni egallash bilan boshlandi. Arablar Amudaryo (Jayxun)dan shimolda joylashgan erlarga “Movarounnahr”, ya’ni, “daryoning ortidagi erlar” deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi YOqut bergan ma’lumotlarga ko’ra, Muhammad alayhissalom payg’ambarning shaxsan o’zi Movarounnahrni bo’ysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga e’tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da’vat etgan.

652 yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo’ldilar. O’sha yili Amudaryodan o’tib Movarounnahrda hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652 yilda CHag’aniyonni egallashga muvaffaq bo’ldi. Bu esa ilk bor Movarounnahr erlarini egallash edi. 654 yilda Sug’didagi Maymurg’ qal’asiga arablarning birinchi hujumi bo’ladi. 657 yilda arablar CHag’aniyonga qayta yurish qilib eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko’ra boshlagan edilar. Manbalarning ma’lumot berishicha, Movarounnahrda yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Barsa va Kufv shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko’chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo’ldi.

704 yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi qilib tayinlanishi va Xurosonning arab xalifaligi tomonidan to’liq bo’ysundirilishi bilan arablar tomonidan yurtimizni zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi. Qutayba ibn Muslim shimoliy sharq tomon g’olibona yurishlarini davom ettiradi. U 711-715 yillarda Toshkent, Ho’qand, Turkiston CHini (SHarqiy Turkiston) erlarini-to Qashg’argacha bo’lgan erlarni egallaydi. Ana shu tariqa Qutayba ibn Muslim butun Markaziy Osiyo erlarini zabt etadi

VII asrning o’rtalarida arablarning mamlakatimizga tahdidi jiddiy tus oldi. Sosoniylardan bo’lmish Yazdigar 3 ni quvib kelgan arablar 651-yili marvni egalladilar. Shundan keyingi 60 yildan ortiq vaqt mobaynida ular mintaqaning boshqa yirik markazlarini ham bosib olishga harakat qildilar. Faqat VIII asrning boshlariga kelibgina arablar birin ketin Xorazm, Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg’ona kabi yerlarni bo’y sundira oldilar. Albatta Arablar yurishi asrlar osha yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni yo’qotish, aholi maskanlarini vayrona qilish, qarshilik ko’rsatganlarni qirish evaziga hokimiyatni egallagan edi. Shu tariqa o’lkamiz milodiy 1-mingyillikda ilk bor tashqi tajavvuskor domiga tushib, arab xalifaligiga qaram bo’lib qoldi. Demak siyosiy mustaqillik, o’z yurtiga davlatni boshqarish erki yo’qoldi.

O’rta Osiyo yerlarini bosib olish ikki bosqichda amalga oshirildi.

Uning birinchi bosqichi VII asrning 2-yarmiga to’g’ri kelib, bu davrda arab lashkarboshilari qo’shini amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu yerlarning boyliklarini talab, ma’lum o’ljalarni qo’lga kiritib, ortga qaytganlarini kuzatish mumkin. Bundan ko’zlangna maqsad, yaqin kelajakda bosib olishga tayyorgarlik ko’rish bo’lgan. Masalan, arab lashkarboshisi Ziyob ibn So’fiyonning 666 yilla Marvga yurishi , 670 yilda uning o’g’li ubaydullo ibn Ziyodning Poykand, Romiton, Buxoro yurishlari o’z foydasiga sulh tuzishi, 675-676 yilda Said ibn Usmonning yangidan Buxoro va Samarqand tomon qo’shin tortib kelishi va katta o’lja bilan qaytib kelishi, O’rta Osiyo hududlarini borasidagi dastlabki urinishlar edi.

O’lkamizni bosib olishning ikkinchi bosqisi VIII asrning birinchi choragiga to’g’ri keladi.

704 yilda Qutayba ibn Muslimni Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O’rta Osiyoni bosib olish vazifasi yuklatilgan edi. 711-715 yillarda Toshkent, Xo’jand, Sharqiy Turkiston yerlarini bosib oldi. Shunday qilib, Movarounnahr deb nom bergan O’rta Osiyo hududlari VIII asrning dastlabki o’n yilliklari davomida bo’siob olindi. Arablar bosib olgandan so’ng, islom dini ta’limotini singdirish, arablashtirish va xalqni yetishtirgan daromadini 50 % ni tortib olgandi.

Xalifalikka faqat xurij solig’i hisobiga So’g’d viloyati 32, 6 ming , Farg’ona viloyati 2,80 ming , Shosh viloyati 607 ming, Ustrushona 50 ming dirham to’lagan. Bunday azob uqubatlarga bardosh berolmagan mahalliy halq qo’zg’olonlari ko’chayib bordi. 720-722 yillarda So’g’dda yuz bergan Gurak (Samarqand hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokim) boshchiligidagi qo’zg’olonlar, shuningdek Shosh, Buxoro 736-737 yillardagi Toxariston qo’zg’oloni, Muqanna qo’zg’oloni kabi xalq xarakatlari IX asrning boshlariga kelib, yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag’darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to’la namoyon bo’ldi. Biroq islom dinini mahalliy aholiga singdirilishi mahalliy xalqlarning ma’naviy ongini o’stirdi. Zero, o’lkaning ma’naviy yuksalishini ta’minlash, odamlarning bir-biriga qarindoshligi hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil bo’lib hisoblanadi. Islomiy iml-fan, ta’limot bugungi kunda ham komil insonlarni tarbiyalashga juda katta o’rin tutmoqda.

Arablarning O'rta Osiyo hududlaridagi 150 yillik hukmronligi davri IX asr boshlariga kelib, Arab xalifaligada yuzaga kelgan bo'xronli vaziyat, siyosiy tanglik, 806-813 yillarda yuz bergan Rofe ibn Lays qo'zg'oloni Xuroson va Movarounnahr xalqlari uchun xalifalik tobeligidan qutilish va yurt mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

### **Somoniylar davlati; ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruv tartibi; huquqiy munosabatlar.**

Xurosonda Tohir ibn Husayn va uning avlodlari, Movarounnahrda esa Somonxudot va uning vorislari tomonidan siyosiy xokimyatni qo'lga kiritdilar.

Tohiriylar sulolasining asoschisi e'tiboran Xuroson noibligini qo'lga kiritadi. Movarounnahrda somoniylar sulolasi hukmronligining vujudga kelishi jarayoni IX asr boshlariga to'g'ri keladi.

Halifa Ma'mun o'ziga sodiq xizmat qilgan mahalliy hukmdorlardan Somonxudod (u Somon qishlog'i oqsoqoli. Manbalarda bu qishloq Balx Samarqand yoki Termiz atrofida joylashgan degan ma'lumotlar bor. U qaysi etnosga mansubligi ham aniq emas) avlodlariga, Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqini topshiradi. Chunonchi, Asad ibn Somon o'g'illaridan –Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yahyo Shosh va Ustrushonaga, Ilyos Chog'aniyon va Xurosonga xokimlik qiladilar. Biroq aka-uka o'rtasida uzoq davom etgan kurashlarda (888-892 yillar) Ismoil Somoniy Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, o'zbek davlatchiligi qayta tiklandi va rivojlanib bordi. Mamlakat aholisining ko'pchiligi turkiy qavmlardan iborat bo'lib, davlat ishlarini yuritishda turkiy qo'shinlar va lashkar boshilarining mavqei yuqori bo'lgan. Ismoil Somoniy va Xurosonni o'rtasidagi urushda (900 yil) Xuroson yerlari Somoniylar qo'l ostiga o'tdi.

Ismoil Somoniy uzoq yillik davlatchiligimiz tajribasiga tayanib ish tutdi. U eng avvalo, mamlakat siyosiy birligini ta'minlash ishiga bel bog'lab, Farg'ona, Isfijob (Sayram) Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chog'aniyon, Xuttalon, Kesh (Shahrisabz), Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlarni o'z hujumi ostida birlashtirdi. Demak, Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvoffaq bo'ldi. So'ng bu davlatni boshqaruv tizimini joriy etishga kirishadi. Chunki, endigina mustaqillikni qayta tiklagan davlat uchun qat'iy tartib doirasida faoliyat ko'rsatuvchi idorachilik zarur edi. Ismoil bu vazifani ham hal etdi.

U o'z davri uchun ilg'or hisoblanmish markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga muvaffaq bo'ldi. Bu tizim asosini Oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonalar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Shuning uchun manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta'kidlarni uchratish mumkin.

Oliy hukmdor hukmronligining ijrosi Horas amiriga yuklatilgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borganlar.

Dargohning xo'jalik yumushlari bilan bog'liq faoliyat vakil tomonidan boshqarilgan. Dargohda dasturxonchi, eshik og'asi, sharbatdor xizmatlari ham bo'lgan.

Devonlar boshqaruviga ko'ra, ularning umumiy soni 10 ta bo'lib, poytaxt Buxoroda har biri uchun alohida binolar quribberilgandi.

Devonlar haqidagi batafsil ma'lumotlar.

1) Bosh vazir devoni – bu devonlar orasida alohida o'rin tutgan. Butun ijroiya hokimiyati hamda qolgan to'qqiz devonustidan ra'barlik va nazorat xuddi shu vazirlik tomonidan amalga oshiriladi. Somoniylar davrida Ushbu lavozimga atoqli xonadonlari namoyondalari tayinlangan. Chunonchi, bosh vazirlik jayxoniyalar, bal'amiylar, utbiylar (ya'ni eng obro'li shaxslar) sulolalari orasidan chiqqan shaxslarga nasibetgan. «Xo'ja buzurg» devoni hamma ma'muriy, siyosiy va xo'jalik ma'kamalarini idora qilgan.

2) moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni. Davlatning moliyaviy ishlari, sarf-xarajatlariga oid hisob-kitob ishlari bilan shug'ullangan.

3) Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni. Bu maxsus devon hisoblanib, uning xizmatchilari davlat hokimiyatiga molik barcha hujjatlarni tayyorlab berganlar, shuningdek diplomatiyaga tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish kabi vazifa ham yuklatilgan.

4) Soqchilar boshlig'i devoni. Ushbu muassasa maxsus saralangan qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo'jalik ta'minoti, maoshi masalalari bilan shug'ullanib kelgan. Bir yilda to'rt marta maosh to'laganlar.

5) Xat-xabarlar mutasaddisi devoni-dargoh, hukmat, mahalliy hokimiyat bilan bog'liq xabardorlik ishlari bilan mashgul bo'lib, poytaxtda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar va

boshqa rasmiy ko'rsatmalarni, viloyatlar, shaharlarga yetkazib beri shva joylardagi ma'lumotlarni markazga yetkazib berish kabi tadbirlar bilan band bo'lgan. Shu tariqa oliy hukmdor joylardagi bor a'voldan xabardor bo'lib turgan, tegishli choralar ko'rgan.

6) Saroy ish boshqaruvchisi devoni, dargoh ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlar ustidan nazorat olib borish shu devonga yuklatilgan.

7) Davlat mulklari devoni. Hukmdor sulolasiga tegishli mol-mulk boshqaruv, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

8) Muhtasib devoni davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin egallab kelgan xizmatlar sirasiga kirgan. Ularning asosiy ishlari shahar va qishloqlarda ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni ta'minlash, savdo-sotiq ishlarida xaridorlarga xiyonat qilmaslik, go'sht, non kabi inson ehtiyojiga kerakli mahsulotlarni narxini oshib ketmasligini nazorat qilish. Bu ishga halol hammaga birday munosabatda bo'ladigan kishilar tayinlangan.

9) Vaqflar devoni, ya'ni turli yo'llar bilan diniy muassasalar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yer-suv ishlari bilan shug'ullanuvchi vazirlik ma'lumki, somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta'siri nihoyatda kuchli bo'lib, ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Ruh oniyning boshlig'i «ustod», keyinchalik, «Shayx ul-islom» deb atalgan. Undan so'ng bu lavozim bo'yicha ruhoniylar orasida «Xatib» turgan. U jome' masjidlarida juma nomozida xutba o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olimlarining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Movarounnahrda dastlabki madrasaning shu yerda barpo etilishi bejiz emas.

10) Qozilik ishlari devoniga qozilarning faoliyatini nazorat qilish yuklatilgan. Qozilarni tayinlashda yoki yuqori lavozimda ishlaganlarni qoziga ishi tushsa, ularni ishlarini yuqori hukmdorni o'zi yoki uning ishonchli odamlari amalga oshirgan. Bundan maqsad yuqori lavozimdakilarni qozilarga ta'ziq o'tkazmasliklari uchun shunday qilingan. Yuqoridagi devonlar (vazirlar) ning joylarda bo'limlari faoliyat olib borgan.

Viloyat boshlig'i xokim, shahar boshlig'i esa rais deb atalgan. Xokimni oliy hukmdor, raisni esa hokim tomonidan tayinlagan.

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar silsilasi mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish, zamon huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan baxabardorlik hisob-kitob ishlaridan bilimdonlik talab etilardi.

Somoniylar davrida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

1) Mulki sultoniy –shaxsan amirlarga tegishli yer-suv, tegirmon, do'konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar.

2) Er egaligining to'hma (umrbod) berilgan yer.

3) Iqto (merosiy) yerlar.

4) Xususiy shohlarga tegishli mulk hukmdor tabaqa xonadoni, badavlat savdogarlarga tegishli mukllar.

5) Vaqf mulklari: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk.

6) Jamoa mulklari: yaylov, tog' yon bag'irlaridagi lalmi yerlar.

Lashkarlar ikki toifaga bo'lingan; 1) Dومی ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar(gvardiya). 2) Zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismlarda kamida sakkiz bosqichdan iborat bo'lib, oddiy piyoda askarlikdan , to'rt kishidan iborat bo'lgan. Guruhga boshliq darajasigacha yo'lni bosib o'tadi.

Ismoil Somoniy (892-907 yillar), uning avlodlari Nosir II davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida, Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tez sur'atlar bilan rivojlanib bordi.

O'sha davrda bu o'lkalar Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalardan hisoblangan. Mutaxassislar, o'sha davrda bu hududlaroni yeri juda serhosil, tabiiy boyliklarga boy, ko'plab qishloq va shaharlar borligi, aholi uchun hamma narsa mavjudligi extiros bilan tilga olinadi. Bu o'lkalarda ko'plab sun'iy sug'orish ishlari rivojlangan bo'lib, soylar kanallar mavjud bo'lib, dehqonchilik avj olgan.

O'lkada bug'doy, arpa, sholi va boshqa boshqoqli ekinlar ekilgan. Paxta tishtirishga alohida e'tibor berilgan.

Bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Olma, shaftoli, nok, behi, anor, anjir, yeryong'oq, o'rik, uzum



kabi mevalar yetishtirilgan. Ko'plab quritilgan mevalar boshqa mamlakatlarga yuborilgan.

Movarounnahr va Xurosonda ko'plab yer osti boyliklariga ega bo'lib, xilma-xil hunarmandchilik tarmoqlari rivojlangan. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan birga sanoat, kon ishlari rivojlanganligi tufayli jahonning xilma-xil mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini keng yo'lga qo'yish imkoniyatlari yuzaga kelgan. Savdo-sotiq ishlarida oltin va kumush tangalar keng muomalada bo'lgan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Movarounnahrni eng asosiy bozori Samarqand bo'lib, dunyoning ko'p mamlakatlaridan savdogarlar oqib keladi deydi.

Masalan, Xitoyga shishasozlik buyumlari, oyna, otlar, ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlari jo'natilgan. U yerdan esa ipak, Yevropaga, ip, jun, ipak matolar, quritilgan mevalar, kumush buyumlari, tangalar olib ketilgan. Yevropadan esa, asosan mo'yna, charm va boshqa mahsulotlar olib kelingan.

Evropaliklar o'lkamizda ishlab chiqarilgan kumush buyumlari, tangalarga ishqiboz bo'lganlar, sababi bu vaqtda Yevropada kumush konlari to'g'risida xayol ham qilmaganlar.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari ko'proq bizning ota-bobolarimiz ishlab chiqargan qurol-aslahalarga, temirchilik mahsulotlariga o'ch bo'lganlar.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko'tarilgan bo'lib, xilma-xil buyumlarga ishlov berishda, bezaklar solishda, sirlash ishlarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Bu davrda O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib o'ni dovrug'i butun dunyoda mashhur bo'lgan.

Somoniylar davrida shahar va qishloqlarda katta-kichik bozorlar bo'lib, dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan savdogarlar kelib o'z mollarini sotgan va kerakli mahsulotni olib ketgan. O'rta Osiyolik savdogarlar o'z mollarini Kavkazga, Hazar, Bulg'oriyaga, Xitoy, O'rta yer dengizi mamlakatlariga, Bog'dod, Kesh, Shosh kabi mamlakatlarga olib borganlar. Bu esa mamlakatni iqtisodiy madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmay qolmadi.

Bu esa somoniylar davlatida fan va maorifni rivojlanishiga olib keldi.

Bu o'lkalarda (IX-X) iml-fanning xilma-xil tarmoqlari bilan shug'ullangan, nomlari jahonga tarqalgan va o'z ishlari bilan Dunyo ilm-fanini rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Bular Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabilarni keltirish mumkin.

Biroq, Somoniylar sulolasining vakillari o'rtasidagi nizolar, o'zaro kurashlar bu sulolaning inqiroziga olib keldi. Ularning avlodlari 100 yil davomida hukmronlik qildilar.

X asr mamlakatdagi boshboshdoqlik avjiga chiqib, markaziy hokimyat mavqeiga putur yetdi.

Bu esa mamlakatni Yettisuv va Qoshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola, Qoraxoniylarning kuchayitishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. X asr oxirida Yettisuv, Qoshg'ar, Movarounnahr ular qo'liga o'tdi.

Ko'p o'tmay Qoraxoniylar xoni Nosir Iloqxon Buxoroni zabt etdi. Amir xonadaoni (Abdumalik 11 ibn Nuh 999 y) asirga olindi. Somoniylar davlatiga barham berildi.

## **QORAXONIYLAR DAVLATI.**

Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixida muhim o'rin tutgan va uzoq davr surgan (X-XII asrlar) Qoraxoniylar sulolasi, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining Yettisuv va Qoshg'ar qismida yangi bir siyosiy sulola kuchayib bordi. Bular turkiy qabilalar orasidan yetishib chiqqan Qoraxoniylardir.

«Qora» «buyuk», «ulug'», ya'ni «Buyukxon», «Ulug'xon» degan ma'noni anglatadi. (turkcha)

Bu davlatning qudrati yuksalib, u tez orada katta hududlarni o'z qo'li ostiga kiritib boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lgan.

Abdulkarim Bug'roxon vafotidan keyin (955 y.) uning vorislari davrida Markaziy Tyonshan va Yettisuv o'liklarini egalladi. Bu davrda Somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddiyatlar girdobiga tushib qolganligi hamda mahalliy hukmdorlar va oliy ruh oniy tabaqasi orasidan ham Somoniylar siyosatidagi noroziliklardan foydalangan. Qoraxoniylar sulolasi hukmdorlari—Hasan va Nosir Bug'roxonlar yetakchiligidagi qo'shin somoniylarni (992-999 yillarda) ikki bor qarshiligini yengib, poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarufiga o'tdi. Bu voqea XI asr boshlarda yuz berdi.

Bu jarayonni halq hokimiyati tepasiga bir sulola o'rniga ikkinchi bir sulolaning kelishi qabilida e'tirof etdi.

Shu tariqa, 1041 yilga kelib, Qoraxoniylar hokimiyati ikkiga: Markazi Buxoro bo'lgan g'arbiy hoqonlikka va markazi Bolosog'un bo'lgan sharqiy hoqonlikka bo'linib ketdi. Bu hoqonlik tarkibiga Talos, Isfijob, (Sayram), Shosh, Sharqiy Farg'ona, Yettisuv, Qoshg'ar yerlari kirgan. So'ng Qoraxoniylar janub, g'arb yo'nalishlarida o'z hukmronlik ishlarini doiralari kengaytirib Buxoro, Samarqand, Xorazmgacha bo'lgan hududni boshqarganlar.

Siyosiy markaz sifatida Bolosog'un va Qashg'arni tanlaganlar. Demak, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqalar tabiiy ravishda yangi siyosiy markazga nisbatan viloyat (mulk) o'rnida bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida, Somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Chunki, avvaldan shakllanib kelgan va obektiv taraqqiyot natijasi o'laroq yuzaga kelgan boshqaruv an'analari qoraxoniylar yuz o'gira olmadilar.

Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat bo'lgan. Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulolola namoyondalarini tayinlab, bu bilan tabiiy ravishda, butun mamlakatda o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan.

Qoraxoniylarda ulug'xon poytaxtdagi qarorgo'da faoliyat ko'rsatgan. Ulug' hoqon yoki ulug'xon ul-xoqon degan nomda yuritiladi. Bu arab manbalarida mazkur unvon Sulton ul Salotin, forschada Shahonshohga muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi unvon qoraxoniylar kitoblarida tamg'achxon deb ham yuritiladi.

Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi, hoqonning taxti merosiy sanalgan.

Ma'muriy idoralar ikkiga bo'lingan. 1) Dargoh; 2) Devonga.

Hoqonning ulug' hojibi hoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Hoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: 1) og'ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi; 2) biruk – me'monlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; 3) oshchi – xoqon oshxonasi boshlig'i (bog'archi); 4) bitikchi – munshiy; 5) kotib – mirzo; 6) qushchi – xoqon ovinning tashkilotchisi; 7) xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan; 8) unga suvboshi yoki sipohsolarlar qo'mondonlik qilgan; 9) kichik zobit – chovush, sipo'iylar to'dasi qo'mondoni 'ayilboshi deyilgan; 10) qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shini harbiy lager Xonto'y deyilgan; 11) xoqonlikda elchini – yalavoch yoki yalafor deb atalgan.

Xoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan. XI asrning uchinchi choragida qoraxoniylar siyosiy birligi ikkiga: g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib ketgan.

Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniylar namoyondalari bundan buyon markazga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgiza boshlaganlar. Markaz ularni bo'ysundirishga ojizlik qilgan. Biroq ham g'arb, ham sharq bir siyosiy xonadonining turli namoyondalari orqali boshqarib borilgan.

G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chog'oniyon) somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi saqlanib qolingan. Masalan: bosh vazir, moliya vaziri, soqchilar vaziri va hokazolar.

Oliy hukmdorning xavfsizligini saqlash uning siyosati yo'lida adolatli xizmat qiluvchi harbiy qism (gvardiya) ham dargoh boshqaruv tuzumiga kirgan.

Qoraxoniylar davrida mamlakatni tashqi siyosati va diplomatiya masalalariga alohida ahamiyat berilgan. O'sha davrning ulug' allomalaridan biri (1020 yilda tug'ilgan) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida keltirilgan fikrlar asos qilib olingan. Ya'ni tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan elchilar olidag juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular bilimli, o'quvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, «uyat-andishali» bo'lishlari kerak. Ular astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini mukammal bilishlari kerak.

Qoraxoniylar davridagi davlatni boshqarish masalalarini chuqur tahlil qilgan ulug' zot Yusuf Xos Hojibni yuqoridagi asarida: davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid o'z ahamiyatini yo'qotmagan fikrlar olg'a surilgan. Chunonchi, jamiyatni to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergan. Adolat, Davlat, Aqli-zakovat, Qanoat. Uning fikricha, vazirlar oqil, ilimli, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Hokimlar esa bilimli, yetuk, narzi to'q, xalq haqqiga xiyonat qilmaydigan vijdonli odam bo'lishlari kerak deydi.

1211 yili kuchsizlanib qolgan qoraxoniylarni Xorazmshoh tomonidan tamoman tugatiladi.

G'aznaviylar – G'azna shahrining Xurosonning siyosiy markazga aylanishi X asrning II yarmiga to'g'ri keladi. G'aznaviylar davlatining hududi Shimoliy Hindiston sar'adlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hamda hozirgi Afg'oniston va shimoliy sharqiy Eronni o'z ichiga olgan edi.

G'aznaviylar davlatining asoschisi Sobuqtegin bo'lib, bu davlat uning o'g'lim Ma'mud G'aznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi.

O'z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqo'l hukmdor bo'lgan Ma'mud G'aznaviy 1030 yilda vafot etadi. So'ng taxtga uning o'g'li Ma'sud (1030-1041y) egallaydi. U qo'shnisi bo'lgan saljuqiylar va boshqa davlat bilan ko'p bor janglar olib bordi. 1040 yilda Dandikon degan joyda Saljuqiylar bilan G'aznaviy Mas'ud o'rtasidagi jangda yengildi va vafot etdi. Uning vorislari esa G'aznaviylar davlatini avvalgi qudratini tiklay olmadilar.

1059 yilda G'aznaviylar uchun muhim strategik ahamiyatga molik –Balx shahrining Saljuqiylar qo'liga o'tishi G'aznaviylar davlatini tugatilishiga olib keldi.

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko'p jihatdan Somoniylar, Qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash.

1) Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargoh-oliy hukmdor (g'aznaviy hukmdorlar «amir » unvoniga ega bo'lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan.

2) Ular orasida «hojiblik» xizmati alohida e'tiborga loyiq.

Manbalarda, hojiblarning quyidagi shakllari keltiriladi: 1) Ulug' hojib, 2) Saroy hojibi; 3) Hojib jamoalar.

Ulug' hojib, nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Bordiyu hukmdor vafot etsa, ulug' hojib boshqaruvni o'z qo'liga olish huquqiga ega bo'lgan. Mamlakat taqdiri hal bo'layotgan janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng saloqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipo'solor o'ng qanotga, ulug' hojib esa chap qanotga qo'mondonlik qilgan. O'ta jiddiy harbiy yurishlar maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga qo'yish tadbirlarida ham faol bo'lgan.

Hojiblar odatda qora chakmon va ikki uchli kulo' kiyib yurganlar.

3) Dargoh faoliyatida sipo'lar (Saroy xizmatchisi)

4) Da'vatdor (oliy hukmdor shaxsiy xujjatlari, yozuv chizuv ishlari bilan bog'lib ishlarga boshqosh xizmatchi).

5) Pardador (ma'ram, sir saqlovchi pinhona vazifalarini bajaruvchi).

6) Martabador (saroydagi o'rta darajadagi amaldor).

7) Farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan).

8) Xazinachi, jamxona (kiyim-kechak saqlovchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatchilarning ham o'z o'rnini bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo'lganligi manbalarda ko'rsatilgan bo'lib, bunday devonlardan beshtasini nomi tilga olinadi. 1) Vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni; 2) Harbiy ishlar devoni; 3) Diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar; 4) Xujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; 5) Hisob-kitob ya'ni moliya devoni; 6) Pochta xabar devonlari.

Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyat ijroiya boshqaruvi ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqyosida shihna, qutvol (qal'a nazoratchisi), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar.

Oliy qo'mondonlik hukmdorning o'z ixtiyorida bo'lgan. Bosh qo'mondonlikka (sipohsolor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan shu xonadon namoyondasi tayinlangan. Mahmud bunday mansabga Muhammad Yusufni loyiq topgan.

Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar solor, o'rta darajadagilar sar'ang deyilib, oxirgilari xayllarga (bir necha o'n otiqlarga) boshchilik qilganlar. G'aznaviylar tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e'tibor berish lozim. 1) Ularning mintaqa hududidagi munosabatlari, 2) Mintaqadan tashqaridagi xalqaro aloqalardan iborat.

Ma'mud G'aznaviy ko'proq uzoqni ko'zlab ish qiladigan mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi edi. Ham hududiy, ham siyosiy-harbiy, iqtisodiy jihatlardan qudratga ega bo'lgan. Qoraxoniylardan har tomonlama ustunlikka ega edi.

G'aznaviylarning mintaqadan tashqaridagi ham usta siyosatchi sifatida ish tutdi. Masalan, arab xalifaligi o'sha davrga kelib o'z qudratini yo'qotgan bo'lsada, xalifalikni joyiga qo'yishga harakat qilganlar va o'ziga raqib orttirishni ortiqcha deb bilar edi.

G'aznaviylarning mintaqada hayotida tutgan o'rni benihoya katta bo'lib, XI asr fan va madaniyat shu darajada rivojlandiki, u musulmon dunyosida ko'zga ko'ringan va tanilgan Mahmud G'aznaviy turk, fors, arab, pahlaviy tillarida she'r bitgan. Shuningdek, 400 dan ortiq olimu fuzalolar g'aznaviylar davrida ijodi qilib, jahonga dovrug' taratganlar. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy ham g'aznaviylar saroyida ilm bilan shug'ullanib o'zining («Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonun», «Minerologiya», «Saydana») asarlarini G'aznada yozgan.

Abulqosim Firdavsiy fors adabiyotining da'o shoirlaridan bo'lgan. G'aznaviy saroyida faoliyat ko'rsatgan. Farruhiy, Unsuriy, Utbiy, Gardiziy, Bay'aqiy, Nosir Xusrav Dehlaviy kabi mashhur shoirlar tarixchilar, olimlar ijod qilganlar. U davrda qurilish ishlari avj olgan, madrasalar, karvonsaroylar qurilgan. Ilm fan rivojlangan.

**MAVZU. Amir Temurning siyosiy hokimiyatni qo'lga olishi va markazlashgan davlat asoslarining yaratilishi. Amir Temur zukko, tajribali va siyosatdon, buyuk davlat arbobi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar. o'n ikki «tuzug»: davlat boshqaruvida dargoh va devonlar faoliyati.**

**REJA:**

- 1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.**
- 2. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi tizimi.**
- 3. Temuriylar davrida madaniy hayot.**

Amir Temur vatanimiz tarixida o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat qilgan shaxs. U jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mash'ur sarkarda sifatida e'tirof etilgan buyuk siymodir. Afsuski, bobomiz Amir Temur nomi mustamlakchilik davrida inkor etilib, avlodlar nazaridan chetga surilib kelingan edi. Undan ko'zlangan «Maqsad, - dedi I. A. Karimov, - xalqimizning yuragidek milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotishi, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi». (I. A. Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 1994. 91-bet.)

Biroq o'z davrida parchalanib ketgan o'zbek davlatchiligini qayta tiklab, uni yuksak rivojlantirish pog'onasiga ko'targan, jahonga shu'rat taratgan Amir Temurni tarixiy xizmatini yo'qqa chiqarish, qatag'on qilishni vaqti o'tdi. I. A. Karimov tashabbusi bilan 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilinishi va shu yili buyuk sarkarda va davlat arbobini mamlakatimizda hamda YuNESKO tashabbusi bilan butun jahon bo'ylab keng nishonlanishi, bu ulug' shaxsga, uning ulkan ishlariga izhor etilgan hurmat va e'tibor edi. Darhaqiqat, o'zidan ulkan yodgorlik qoldirgan va ko'p yillar hukm surgan bu sulola temuriylar sulolasi bo'ldi. Bu sulola vakillari Movarounnahr, Eron, Ozorbayjon, Iroq, Afg'oniston, Hindistonni 488 yil (1370-1526, 1526-1858 yillari) idora qildilar. Ular o'sha mamlakatlar tarixida sezilarli iz qoldirdilar.

Amir Temur avvalo, Movarounnahrda yirik markazlashgan davlatni barpo etgach, butun kuch g'ayratini turkiy xalqlarni birlashtirishga, ya'ni (552-745 yillar) davridagi Turk xoqonligi mavqeini qayta tiklab, ulug' Turon davlatini barpo etishga qaratilgan edi. U bu vazifani ado etdi.

I. A. Karimov Amir Temurni Vatan oldidagi xizmatlariga to'xtalar ekan, shunday dedi 1) Shavkatli bobokalonimizning xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqni boshini qovushtira bildi; 2) istilochilarga qaqshatqich zarba berdi. Turkiston zaminida ilk bor istiqloq bayrog'ini ko'tardi. 4) parokanda mamlakatlar, elatlarni birlashtirib markazlashagan qudratli saltanatga asos soldi, deganda haq gapni aytgan edi.

Amir Temur 1370-1405 yillar ichida avvalo, 1370-1380 yillar davomida Movarounnahrni birligini tiklagan bo'lsa, 1381-1405 yillar davomida Xuroson, Eron, Ozorbayjon, Gurjiston, Armaniston, Shimoliy Hindiston, Oltin O'rda va Turkiyani egallab, o'z saltanati hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, shimolda Moskvaga qadar, g'arbda O'rta yer dengizigacha, janubda Misr chegaralarigacha kengaytirdi.

Afsuski, Markaziy Osiyoning avvalo, chor Rossiyasi so'ng, Sho'rolar hukmronligi davrida Amir Temur bobomiz haqida biror bir ijobiy fikr bildirilgan maqola yoki kitob Chop etilmadi.

Ammo u ulug' bobomiz haqida Sharq mamlakatlarida 900 dan ortiq, Yevropa mamlakatlarida 500 dan ortiq kitoblar chop etilgani holda, o'z ona yurtida biror bir ilmiy maqola ham yozilmadi.

Amir Temur 1336 yil 8 aprelda Shahrizabzga qarashli Xo'ja Ilg'or (hozirgi Yakkabog' tumani) qishlog'ida barlos beklaridan biri Amir Tarag'ay ibn Barlos oilasida dunyoga keldi.

Amir Temurni bolalik yillari 1360 yilga qadar Kesh o'tadi. Uning yetuk, komil inson bo'lib yetishishida o'z davrining mashhur ilm va tariqat bilim sohiblari, uning ustozlari Amir Kulol, Abu Bakr Tayobodiy, Sayiid Barakalarning xizmatlari juda katta bo'lgan.

Uning yoshlik va balog'at yoshlarida qoloq va qashshoq xarobaga aylangan mo'g'ullar sulolalarining azob uqubatlari ostida iztirob chekayotgan tarqoq o'lka ekanligini va buni sababi o'zga davlatlarga qaramligini hamda undan qutulishning yo'llari, ozodlikka erishish yo'llarini izlay boshladi.

1360 yillarda Temurning tog'asi Xoja Barlos mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temur bostirib kelayotganligidan cho'chib, Xurosonga jo'nab qoladi. Tog'asi Amir Temurni ham o'zi bilan ketishga undaydi. Biroq endigina 24 yoshga kirgan Amir Temur tog'asini fikrini rad etadi. Amir Temur mamlakatni saqlab, qutqarib ko'rish choralari qidirib, Tug'liq Temurning o'g'li Ilyosxo'jani xizmatiga kirishni, so'ng mustaqillik uchun yo'l axtarish choralari tog'asiga aytar ekan shunday dedi: «Boshliqsiz mamlakat joni sug'urib olingan tanaga o'xshaydi. Jonsiz tana uning halokati bilan barobardir,» deganda o'ziga xos vatanparvarlik hislari bilan sug'orilganligi ko'rinib turibdi.

Manbalarda yozilishicha, Amir Temur Ilyosxo'jaga yaqin odamlarning ko'magi Bilan 1361 yili 25 yoshli Amir Temur Kesh, amiri bo'lib, mamlakatni ozod qilmoq uchun kuch to'play boshladi. Shu yil Balx hokimi Amir Husayn bilan do'stlashib, u bilan birgalikda mo'g'ullardan ona yurtini ozod etishga kirishadilar va 1362-1364 yillarda mo'g'ul qo'shinlariga bir necha zarba beradi.

Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365 yilning bahorida Movarounnahrda yurish qildi. Bu jang Chinoz atrofida Sirdaryo bo'yidagi «Loy jang» ida Amir Temur va Amir Husayn qo'shinlari Ilyosxo'ja qo'shinlaridan yengildi. Bu Amir Temurga katta saboq bo'ldi. Mo'g'ullar qo'shini Samarqandga yurish qildi. Shunda, hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi mudofaga ko'tarildi, bu harakat Sarbadorlar (O'z boshlarini o'limga tikkan kuchlar) harakati nomi bilan mash'ur bo'lib, bu harakatning ra'barlari tolibi ilm Mavlonozoda Samarqandiy, ip yigiruvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy, mohir mergan Xo'rdaki Buxoriylar edi. Ilyosxo'ja katta zarbaga uchrab, Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Bundan xabar topgan Amir Husayn va Amir Temur 1366 yilda Samarqandga kelib, xiyla bilan sarbadorlarni, Mavlonozodadan boshqasini qatl ettiradi. Amir Temur Movarounnahr ustidan hukmronligini qo'lga oladi va Movarounnahrda qoldirib, o'zi Xurosonga ketadi. Shu davr mobaynida Amir Husaynni qabih niyatlarini sezgan Amir Temur 1370 yili Amir Husayn joylashib olgan Balxga qo'shin tortib boradi va uni qatl etdai.

Amir Temurni hokimiyat tepasiga kelishi o'z navbatida demokratiya prinsiplar asosida amalga oshirilgan desak xato bo'lmaydi. Amir Husayn qatl etilgach, Movarounnahr taxtiga to'rt kishi davogar edi. 1) Shoh Muhammad Badaxshiy; 2) Amir Kayxusrav; 3) Shayx Muhammad Bayon; 4) Amir Temur edi.

Ular o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqmasligi uchun Termiz xoni Abul Abdul-Barokat, ularni to'y bahonasi bilan o'z huzuriga chaqirtirib, amirlikka saylov o'tkazishni taklif etadi va uning uchun kura-ya'ni har birini otlari yozilgan qog'ozdan ko'p nusxada tayyorlab to'shak ostiga qo'yadi va har biri ushbu qog'ozdan uch martadan olinadi. Barchasi tortgan qog'ozda Amir Temur nomzodi chiqqanligini hisobga olib uni g'olib deb topadilar va Amir Temurni Movarounnahrni yagona hukmdori etib saylaydilar. Amir Temur poytaxtni Keshdan Samarqandga ko'chiradi. Amir Temur hokimiyatga kelganidan so'ng, necha yillar davom etgan qonli va qonsiz kurashlar, muhim tadbirlar, kezi kelganda diplomatik aloqalarni muvaffaqiyatli qo'llanishi natijasida mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod etdi, siyosiy tarqoqlik, o'zaro nizolarni bartaraf qildi. Movarounnahr va Xuroson hududlari birlashtirib yagona markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, XIV asrning 80-yillaridan e'tiboran, xorijiy yurtlar tomon ko'plab harbiy yurishlar uyushtirdi. Uning 1386-1388 yillardagi «uch yillik urush», 1392-96 yillardagi «besh yillik urush», 1398-1404 yillardagi «etti yillik urushlari» dan ko'zlangan asosiy maqsad: 1) mamlakat hududlariga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish; 2) muqaddas islom g'oyalarini haqoratlovchilardan himoya qilish; 3) Sohibqiron vataniga muttasil dushmanlik qilib kelgan xorijiy mamlakatlarga so'nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Ikkinchi masala Amir Temur qulratli saltanatini vujudga keltirar ekan,

uni omilkorlik bilan idora qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirib borishga ham katta ahamiyat berdi. U o'zbek davlatchiligining somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmsho'lar davrida tarkib topib, rivojlanib borgan tizimi tartib qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab e'tiyotlariga moslab yanada takomillashtirdi, yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.

Amir Temur dunyo tarixida birinchi bo'lib jamiyat ijtimoiy tarkibini o'n ikki tabaqaga ajratib, ularning har birining alohida, mavqei, manfaatlarini shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o'zaro munosabtlarini belgilab berdi.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan.

Dargoh tepasida – oliy hukmdorning o'zi bo'lgan. Davlat va mamlakat hayotida molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etiladi.

Dargoh faoliyatining boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechatgan ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonga har kuni to'rt vazir ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vazirligi, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hisob berib turgan.

Shayxul islom, Qoziyi al-quzzot (oliy sudya), qoziyil axdos (axloq, odob bo'yicha), qoziyi Askar (harbiy sudya), sadri a'zam (vaqf mulklari vaziri), muxtasib (shariat qoidalari, bozorlardagi narx-navolar nazoarit bilan shug'ullanuvchi vazir), Saroy vaziri, yasovul, eshik og'a singari yuqori lavozimlar ham davlat hokimiyati tizimining eng asosiy bo'limlaridan hisoblangan.

Davlat xavfsizligi vazirligi, Tashqi aloqalar vazirligi (devoni Rasoil).

Uchinchi masala, Amir Temur va temuriylar davriga ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko'tarilgan. Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati rivojining yuqori cho'qqisi hisoblangan. Temuriylar davri nafaqat shu mintaqada, balki umujahon miqyosida o'ziga xos bosqich bo'ldiki, jahon xalqlari tafakkur nurini porlatib kelmoqda.

Amir Temur yuksak ma'rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan noyob is'tedod egalarini rag'batlantirib keldi. Uning davrida Samarqand va Shahrisabz, Bog'dod va Turkiston, shuningdek boshqa shaharlarda qad rostlagan hashamatli saroylar, bog'-rog'lar, ko'priklar, suv havzalari, hammomlar, madrasa, masjidlar, («Bog'i Dilkusho», «Bog'i Jag'onaro», «Bog'i Davlatobod», «Bog'i Nav», «Bog'i Zaron») va x. «Ko'k Saroy», «Bo'ston saroy», «Go'ri Amir maqbarasi», «Shohi zinda ansambli», «Bibixonim masjidi va madrasasi».

Shahrisabzdagi «Oqsaroy», Turkistodagi «Xo'ja Ahmad Yassaviy madrasasi» bular Amir Temur davridagi moddiy madaniyatning ravnaq topganidan nishonadir.

Ulug'bek davrida qurilgan «Ulug'bek madrasasi», masjidlar, ilm Fan maskanlari 1420-28 yillardagi qurilgan rasadxona tenggi yo'q oliy inshooti «Ulug'bek rasadxonasi»dagi kutubxona zahirasida 160 ming kitob bo'lgan.

Xuroson temuriylar davrida gullab yashnadi. Shohruh Mirzo davrida 150 dan ziyod kutubxona, masjidi madrasalar va boshqa inshootlar barpo qilindi.

Shuni alohida eslatib o'tish joizki, Temu rva temuriylar davrida ilm Fan shu darajada rivojlandiki, ikkinchi uyg'onish «renosans davri» davri yuz berdi.

Temurning «Tuzuklari», Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si dunyoga tanilgan. Olimu yozuvchilar, tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si, Hofiz Abruning «Zubdatul tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaun Sa'doyn» va «Maj'ma-ul baxroiyy»(Ikki saodatli yulduzning chiqishi o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi), Ibn Arabshoxning «Amir Temur tarixi», Mirxondning 7-jildlik «Poklik bog'i», Xondamirning «Yaxshi fazilatlar» kabi asarlar o'sha davr tarixnavislik ilmining yuksaligidan dalolatdir.

Temuriylar davrida hattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati rivoji topgan. Ularni o'nlab avlodlari ijod qilganlar. Ular Shayx Muhammad, Mirali Tabriziy, Sultonali Mashxadiy, Darvesh Muhammad, Sulton Muhammad Nur va boshqalar.

O'zbek mumtoz adabiyotining tamal toshini qo'ygan Mavlono Lutfiy (1366-1465) Haydar Xorazmiy (XIV asr oxiri XV asr boshlarida), Gadoiy, Durbek, Atoiy, Sakkokiy va boshqalar.

Tasavvuf g'oyalarini ilgari surgan Bahouddin Naqshband (1318-1389), Xo'ja Ahror Valiy (1404-1490) singari allomalarini ta'minotini keng yoyilishi muhim ahamiyatga egadir.

## ADABIYOTLAR.

1. Karimov I. A. Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz. 1996.

2. Karimov I. A. Extirom: Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishida so'zlagan nutqi. 1993 yil 31 avgust. 1-Jild. T. 1996. 260-262 betlar.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998. 15, 21-23 betlar.
4. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Sharq. T.
5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000. 151 - 233 betlar.
6. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T. 1993 .
7. Ahmedov A. Ulug'bek hayoti va faoliyati. (1394-1449). T. Fan. 1991.
8. O'zbekiston tarixi. (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxasis tinglovchilari uchun darslik) T. 2003. 268-298 betlar.

#### ASHTARXONIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, IJTIMOIY VA IQTISODIY HAYOT.

Tarixdan ma'lumki, Shayboniyning o'g'li Abdulmo'minni halokatidan so'ng taxtga chiqqan Pirmuhammad (1599-1601) hukmronligi uzoqqa bormaydi.

1601 yildan boshlab, Buxoro xonligida xokimiyat Ashtarxoniylar (Joniylar) qo'liga o'tadi. 150 yilgacha hukmronlik qilgan (1601-1753y.) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik osoyishtalik bo'lmadi.

Ashtarxoniylar haqida ikki og'iz so'zlash mumkin? Ma'lumki, Oltin O'rda (Jo'ji ulusi) zaiflashib borar ekan, uni bir qancha mayda xonliklarga bo'linib ketdi. XV asrning o'rtalariga kelib, Volga bo'yi yerlarida Ashtarxon xonligi, No'g'ay xonligi, Qrim xonliklarga ajralib ketdi.

«Astraxan Ashtarxonni ruscha nomidir. Ashtarxon esa, aslida, «Hojitarxon» so'zidan olingandir. Tarxon –turkiy tili xalqlar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblangan. Rus knyazlikliklari tomonidan 1552 yilda Qozon xonligi bosib olgandan so'ng, 1556 yilda Astraxani bosib oladi.

Ashtarxoniylar XIV asrning 80 yillaridan boshlab Xojiratxon Ashtarxon atroflarida hukmronlik qilganlar. Xonlikni bu vatqda boshqarib turgan mang'it sulolasi nomoyondalari kuchlarini ruslar tomomnidan yengadi. Ashtarxoniylar hududlarini Rossiya imperiyasi yerlari deb e'lon qilgan.

Rossiya hukumati dastidan qochib, Yormuhammad butun oila a'zolari (o'g'illari) Jonimuhammad, Sulton, Abbas sulton, Tursunmuhammad sulton, Pirmuhammad sulton ahli ayonlari bilan Movarounnahrda keladilar.

Buxoroda Yormuhammadxonga katta xurmat bilan qaraydi. Chunki, Yormuhammaddan Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon bilan yaqin munosabatda bo'lganlar.

Iskandarxon –Yormuhammadning katta o'g'li Jonimuhammad sultonga qizi Zuhraonuni beradi, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlaydi. Bu nikohdan uchta o'g'il bo'lgan: Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammadlardir. Shunday qilib, Yormuhammad va uning avlodlari Shayboniylar honadonining eng yaqin va tayanchlariga aylanadi va Oliy hukmdorga xizmat qiladilar. Borib-borib mamlakatda xurmatli ko'zga ko'ringan shaxslarga aylanib boradi va Boqimuhammad oliy taxtni Shayboniylardan qaytarib olishga erishdilar. Ashtarxoniylar sulolasi shu tariqa boshlanadi. Ammo, viloyatlardagi beklarni o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyatdagi o'zaro janjallar mamlakatda chuqur bo'xronli holatlarni keltirib chiqaradi va sulolari barham topishiga olib keldi.

2 masala: Siyosiy hayotda Shayboniylar davridagi davlat tuzumi asosan o'zgartirilmagan bo'lsa ham, boshqaruvda otaliqlar va dindorlarning mavqei oshib, mamlakat siyosiy hayotini hal qilish ularni qo'liga o'tgan edi. Bu ijtimoiy tuzumga ta'sir qilib, xon va uning amaldorlari harbiy ma'muriy amaldorlar, urug' boshliqlari, yirik sulolalar fikri bilan hisoblashga majbur bo'lgan.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida bir narsa yaqqol ko'zga tashlandi. Xokimiyat markazda ham, viloyatlarda ham, bir idora darxogda mujassamlashib borgan. Aniq ravishdagi dargox va ijroiya (devonlar) taxsimotini biz bu zamonda ko'rmaymiz.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxox, devonbegi, qo'shbegi, chahraboshi, miroxo'r, yasovl, inoq, harbiy qozi, bosh qozi, shayxul islom, alham, Rais, bosh muftiy, harbiy muftiy, eshikog'aboshi, mirzaboshi, munshi, Saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo'lgan.

Shu bilan birga ularning vazifalarida sifat o'zgarish yuz berganligini ta'kidlab o'tish kerak. Chunonchi, otaliqning vazifasi, XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, Ashtarxoniylar zamonida otaliqning markazdagi mavqei kuchayib bordi. Masalan, Abdulazizxon (1645-1681y) Buxoro taxti chiqqach, poytaxtdagi otaliq vazifachini Yalangto'shbiyga ya'ni o'sha paytdagi eng zabardast amirga taklif qilgan.

Otaliqning mavqei Subqonqilixon (1681-1702y) davrida ham baland bo'lib, hatto u yoki bu

mamlakatlarga harbiy yurish qilish, harbiy tahdidni oldini olishlar otaliqqa yuklatilgan. Demak, otaliq o'sha davrda mamlakatdagi amirlar sinfining yetakchisi, ularning ishonchini qozonganidir. Ubaydulloxon Abulfayzxon davrida qushbegini mavqei o'zganligini ko'ramiz. Ular amirlarning eng ulug'i hisoblangan.

Ashtarxoniylar davridagi dargoh xizmatlaridan yana biri –saroy qutvoli mamlakatda davlat xazinasini hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan. Har qanday qurilishni, sarf xarajatini xoni xazinasidan sarflangan.

Ma'muriyat tizimidagi amaldorlar faqat o'z vazifasini bajarib qolmay, siyosiy, harbiy harakatlarda ham faol ishtirok etgan.

3 masala: Ashtarxoniylar davrida ichki va tashqi savdoda ham ba'zi bir jonlanishlarni ko'rishimiz mumkin.

Bu davrdagi tinimsiz olib borilgan qir-inborot urushlar, obod shahar va qishloqlarni barbod qildi, xalq ommasini qashshoqlashishi avj oldi. Shunga qaramay xalq o'z hunari va imkoniyatlarni saqlab qoldi. hunarmandchilik orqali ishlab chiqariladigan mahsulotlarni bir qismi ichki ehtiyojlarni qondirsa, qolgan qismi yirik savdogarlar orqali qo'shni mamlakatlarga olib ketilardi.

Buxoro va Samarqand bozorlarida paxta, ipak, jun matolar tayyor kiyimlar, zargarlik buyumlari, bo'yoqlar, g'alla, mevalar, chorva mollari bozorlari keng yo'lga qo'yilgan.

Harbiy qurollari ishlab chiqilar va chet ellarga mahsulot olib ketishga alohida e'tibor qataldi.

Masalan, rus davlati Markaziy Osiyo davlati uchun savdoni yo'lga qo'rganidan manfaatdor edi.

Markaziy Osiyo savdogarlari uchun eng qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, asosan Sibir orqali amalga oshirilardi. Orenburg orqali Rossiyaga tovarlar olib borish yo'lga qo'yildi. Mahalliy savdogarlardan soliq olishni Rossiya bekor qilgan edi.

Mahalliy savdogarlardan Rossiyaga, paxta matolari, teri, jun, gilam Rossiyadan esa xilma-xil tovarlar keltirilardi.

Markaziy Osiyolik savdogarlar Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan savdo ishlarini keng yo'lga qo'yidilar. Biroq, o'zaro urushlar bu sohadagi ko'p imkoniyatlarini ishga solishga halaqit berardi.

#### SHAYBONIYLAR DAVRI O'ZBEK DAVLATCHILIGI.

XVI asr boshlarida Temuriylar davlatining tarqoqligi kuchaygan bir davrda shimolda – Dashti Qipchoqda o'zbeklar davlati tashkil topdi. Qipchoqlar nomi bilan atalgan Dasht (cho'l) g'arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz shimoliy sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha Janubda esa Xorazm va Sirdaryo oqimlari oralig'ida joylashgandir.

Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji ulusiga tekkan mintaqada, uning o'limidan so'ng, Sharqiy qismidagi Oq O'rda davlati ikkiga bo'linib, Itil (Volga) bilan Yoyiq (O'rol) daryolari o'rtasida No'-oy (mang'it) davlati tuzildi. Yoyiqdan to Irtish va Chu daryolari, Xorazm va Sirdaryo quyi oqimlari o'rtasida Dashti Qipchoq degan nom bilan ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topdi. Bu yerdagi Qipchoqlar, qo'ng'iroq, nayman, uyjun, va boshqa qabilalar o'zbeklar tarkibiga kirgan.

1405 yil oxirida ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmni bosib olgandan keyin butun XV asr mobaynida Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan Termuiylar o'rtasida to'xtovsiz kurash oqibatida XVI asr boshlarida kurash Temuriylar davlatining yengilishi bilan tugadi.

Dashti qipchoqdagi ko'chmanchilar davlatining asoschisi Abulxayrxon 1420-1468 yilgacha (48 yil) hukmronlik qildi.

Temuriylar davlatini parchalanib, turkmanlar o'zlarini alohida davlatini, Farg'ona vodiysi ham mustaqil davlatni tashkil qildi, forsiy aholi Xisor va Badaxshon mustaqil davlatga aylandi. Movarounnahrda Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Muhammad Shoxbaxt Shayboniy 1451 yili tug'ilgan. U bobosi Abulxayrxonning harakatlarini davom ettirib, 1487-88 yillarda shimoldagi mo'g'ullarga qarashli O'tror, Sayram, Yassi (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olib, 1490 yilda Movarounnahrda jiddiy harbiy harakatlarni boshladi.

Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yil Xisor viloyatini, 1504-1505 yillarida Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot, hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona va Sirdaryo yerlari ham Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniyxon sulolasi hukmronligi qaror topdi.

Shayboniyxon janubda Eron shohi Ismoilshoh bilan to'qnashib, u 1510 yili Marv yaqinidagi jangda yengildi va o'zi halok bo'ldi.



Taxtga uning avlodlaridan biri Kuchkunjixon (1510-1530) chiqdi. So'ng Ubaydullaxon (1533-1539) davrida hamda Abdullaxon II (1557-1598) davrida Shayboniyxon egallagan hududlarni qayta tikladi. Biroq, 1548 yil Abdullaxon II vafot etganidan so'ng uni o'g'li Abdulmo'min hokimiyatni uzoq vaqt salab qola olmadi. Otasi o'limidan so'ng olti oy o'tgach, u ham o'ldirildi va hokimiyat boshqa sulola qo'liga o'tdi.

Shunday qilib, Movarounnahrda 100 yil davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi. Qirg'inbarot urushlar o'zaro ichki kurashlar davom etdi. hatto shaharlar hukmdrolari o'rtasida ham o'zaro urushlar avj olishi natijasida Shayboniylar sulolasida bo'hronlar yuz berib o'zlarini qayta tiklay olmadilar.

II masala: shaybonilar davrida davlatni ma'muriy tuzilishi ham o'ziga xos bo'lib, 1) hokimiyat tepasida Xon turgan. Xon taxtga taklif qilinganda u oq kigizga o'tirgizilib, to'rt tomondan eng mo'ttabar zodagonlar ko'tarib boradi. An'anaga ko'ra, katta hayotiy tajribasiga ega va obro'li amirlar otaliq, unvonini olib, ular voyaga yetmagan shahzodalarni tarbiyalashardi. 2) Davlat bin necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularga sultonlar boshchilik qilgan. 3) saroydagi devonlarga davlat mahkamasi va moliya ishlarining boshlig'i devonbegi rahbarlik qilgan.

Shuningdek, Shayboniylar davrida quyidagi eng oliy martabali davlat lavozimlari mavjud edi. 4) Ko'kaldosh (bir onadan sut emgan ma'nosida) muassasalarni boshqarar hamda butun mamlakatdan xonning do'stlari va dushmanlari haqida ma'lumotlar to'plovchi shaxs. 5) Mushrif xon ma'lum shaxslarga in'om etadigan ashyolarni ro'yxatga olib boruvchi hamda soliqlar yi-ilishini boshqaruvchi shaxs. 6) Qushbegi xonlar va sultonlar (ovga) safarga chiqqan paytda ov anjomlarini nazorat qiluvchi shaxs. 7) munshiy (mirzo) xonning farmonini yozuvchi shaxs. 8) mirshab, dodhox aholidan shikoyat tinglovchi shaxs. 9) miroxo'r (otxona boshlig'i). 10) parvonachi (yorliq topshiruvchi shaxs.) kabi lavozimlar bor edi. 11) davlatda amaldorlardan tashqari, ruhoniylar ham hukmron sinf toifasiga kirardi.

XVI asrning o'rtalariga kelib, ularning obro'lari nihoyat darajada oshib ketdi, hatto kimning xon bo'lishi ham bog'liq edi.

Shayx va yirik ulamolar, din peshvolari barcha soliqlardan ozod qilingan. 12) harbiy ma'muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlar umaro, olim va shoirlar fuzalo deb atalganlar. 13) Shayboniylar davlati ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan bo'lib, boshqaruv tizimi markaziy va mahalliy amaldorlar qo'lida bo'lgan. Mahalliy boshqaruv hokim va beklar qo'lida bo'lib, bu jarayonda qozi, muftiy, raislar muhim rol o'ynaganlar. 14) shayx ul-islom, qozi kalon, a'lam, imom, sard, muftiy, raislar diniy ishlarni nazorat qilganlar. 15) Shayboniyxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun amalga oshirgan ba'zi tadbir choralari beklarni kuchayishi va o'zaro kurashlarga sabab bo'ldi. Masalan, davlat boshqaruv sohasida suyuq-ol tizimining joriy etilib, bosib olingan hududlarda boshqaruv ishi, farzandlari, qarindosh-urug'lari, qabila boshliqlariga topshirilishi uning vafotidan keyin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilish ishlarini kuchaytirdi.

III masala: XV asrning oxiri XVI asr Dashti Qipchoq, Movarounnah rva Xurosonda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, iqtisodiy madaniy ahvol to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlar anchagina. Bular ichida Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) «Boburnoma»si shoir va tarixchi olimlardan Kamoliddin Binoiy (1453-1512) va Muhammad Solih (1453-1535) larning forsiy va o'zbek tilida bitilgan «Shayboniynoma» asarlari, Xondamirning «Habib us suyar», Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning (1457-1530) «Tarixi Rashidiy», Qulibek Balxiyning (1547-1604) «Sharafnomai shoxiy»(Abdullanoma nomi bilan mashhur), asarlari alohida ahamiyatga ega.

Shayboniylar davrida iqtisodiyotni tartibga solish, savdo sotiqni jonlantirish maqsadida 1507 yilda pul islohoti o'tkazilib, markaziy shaharlarga vazni bir xil bo'lgan (5,2 g) kumu shva miss chaqa pullar zarb qilindi. Bu tadbir markaziy hokimiyatni mustahkamlashni nazarda tutgan bo'lib, uning vafotidan so'ng kuchayib ketgan. O'zaro urushlar natijasida yaxshi natija bermadi.

Ammo Abdullaxon II davridagi pul islohoti savdo-sotiqni jonlantirdi, xazinaga pul mablag'lari tusha boshladi.

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniylar temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar, hamda unga moslashdilar.

Er egaligining mulki sultoniy (davlat yerlari), mulki xolis(xususiy yerlar), vaqf(diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar turlari bo'lib, harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din arboblarga beriladigan yerlarda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Bu

davrda chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotilgan.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq va jarimalar bo'lib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy, juz'ya, tog'or, ulufa, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa soliqlari bo'lgan.

Soliq to'lovchi fuqaro (raiyyat) deb atalgan. Shayboniylar davlatida xo'jalikning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Bu davrdagi tinimsiz urushlar mamlakat iqtisodiyotini inqiroga, dehqonlarni esa qashshoqlanishiga olib keldi. Shuni hisobga olib, Shayboniylar sulolalari soliqlarni ma'lum darajada kamaytirdi. Sug'orish ishlarini shakllantirishga kirishdilar. Suv manbalari bo'lgan – Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob daryolaridan to'g'onlar, suv omborlari, kanallar qurishga kirishdilar. Masalan, Shayboniyyon 1502 yilida Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish joyida ko'prik – suv ayr-ichini bino qildirgan. U Kesh atroflarini suv-ori uchun 10 dan ortiq kanallar qurdirgan. 1583 yilda Abdullaxon II rahbarligida Nurota tog'larida qurilgan Oktob suv ombori, Murg'ob vohasida qurilgan Hovuzxon suv ombori, o'nlab kanallar qurilishi, mamlakatdagi cho'l va dasht yerlaridan mo'l-xosil olishga imkoniyat yaratildi, bu esa mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir qilmay qolmadi. Bu g'allachilik, paxtachilik, polizchilikni, bo-dorchilikni rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Shayboniylar davrida hunarmandchilik, kulolchilik temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'ozsozlik kabi mahsulotlari ichki va tashqi bozorni ta'minladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar: ipak, jun, pila, gilam, quruq meva, qora ko'l, zargarlik buyumlari bilan savdogarlar Eron, Hindiston, Arab o'lkalari, Xitoy, No'g'ay, Qozon va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar avj oldi.

Shu davrda me'morchilik, qurilish ishlarida ham anchagina ishlar qilindi. Shayboniy tomonidan Samarqandda Xoniya, Abu Said, Qulbobo, Ko'koldosh madrasalar, Abdullaxon I-II lar tomonidan qurdirgan; Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Govkushon, Jo'ybor (Buxoroda) madrasalari va o'nlab boidalardan iborat.

Bu davrda fan va madaniyatning rivojlanishida bu sulolaning tutgan o'rni va roli benihoya kattadir. Ular Shayboniyyon. Ko'chkinchixon, Ubaydillaxon. Rustam Sulton, Abdulazizxon kabi shayboniy sulolari o'qimishli madrasalarda o'qiganlar, turkiy va forsiy tillarda she'r bitganlar.

U davrda tarix ilmi rivojlangan. XVI asr tarixini yoritib bergan. «Tavorixi guzida», (Nusratnoma), Mo'lla Shodning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Hofiz Buxoriyning «Abdullaxona» kabi asarlar fikrimizni dililidir.

XVI asrda mamlakatni turli mintaqalaridan yuzlab olimlar, shoirlar, tarixchilar, rassomlar, faoliyat ko'rsatganlar. Masalan, qomusiy olim—Mushfiqiy (1538-1588) falsafa, astronomiya, fizika, musiqa sohalarida ham yetuk sanalgan. Olim Sulton Ali, tabib Muhammad Yo'sudo, Shoh Ali, Ubaydulloh Kahhol kabi tabiblar mavjud edilar.

Shayboniylar davrida tahlim sohasida ham islohatlar o'tkazilib, unga ko'ra bola 6 yoshdan maktabga benrilgan va ikki yil o'tgach, madrasaga o'tkazilgan. Madrasa uch bosqichdan iborat bo'lib, har bosqichda 8 yildan o'qitilgan. Bu davrda ilohiyot, hisob-kitob, matematika, she'r san'ati kabi fanlar o'qitilgan.

## **MAVZU: O'ZBEK XONLIKLARI BOSHQARUV TIZIMI. REJA.**

- 1. Buxoro amirligi boshqaruv tizimi.**
- 2. Xiva xonligi boshqaruv tizimi.**
- 3. Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi.**

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy boyliklari jihatidan muhim maqomga ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining yer maydoni qariyb, 200 ming kv. kmni tashkil etdi. Shu davrda uning aholisi soni 2 mln edi.

Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham, siyosati ham iqtisodiy jihatdan ham kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy –ma'muriy markazga aylantirildi. Abdullaxon II davrida (1557-1561) yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda hukmdor Abdullaxon II edi.

1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo'lib qoldi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo'lib kirdi.

Buxoro xonligida kata obro'ga ega bo'lgan mang'it urug'ining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda mayishatbozlikka berilib ketgan Abudfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari: Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, xokimyatni o'z qo'lga oladi.

Muhammad Raxim 1753 yilda o'zini buxoro amiri deb e'lon qildi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshladi. Masaladan bir oz chekingan xolda ikki og'izxon va Amir so'zlarini kelib chiqishga izoh berib o'tishni lozim topdik.

Xon – so'zi turkiy xalqlar vam ulug'hukmdorlarini unvoni. Dastlab qabg'ila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar, Xorazmshohlar davrida viloyat yoki shahar xokimi, mug'ul feodal imperiyasi inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlarda Oliy hukmdor xo, podsholik qilmagan. Chingiziylar esa sulton deb yuritilgan Buxoro, Xiva, Qo'qon hukmdorlarini xon deb ataganlar.

Amir deb—bu arabcha so'z bo'lib, islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablarda yirik qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan.

Oltin O'rta, O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul –turk qabilalari birlashmasi—ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Amir Temur, Buxoro amiri va boshqalar.

XIX asr boshlariga kelganda Buxoro amirligida davlat boshqaruvida xizmatkor amaldorlar tarkibi kengaydi.

Faqat amir saroyining o'zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Ular davlat hazinasidan maosh olar edila rva amirga batamom qaram bo'lib, ularni ishga amirning o'zi tayinlar va ishdan olar edi. Shunday qilib, amaldorlarning taqdiri to'laligicha yuqori amaldorlar qo'lida edi.

1). Amirlikda eng katta davlat lavozimi—qushbegi—dargoh vaziri, ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etardi. Barcha ijroiya hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi.

2). Devonbegi-- xonlikning moliya-vziri ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarni undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan.

3) Ko'kaldosh—(xon bilan bir onadan emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotlarni to'plab hukmdorlarga yetkazib turgan.

4). Mushrif –lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olish bilan ham maxsus daftarga yozib borgan.

5) Mirshab—bu tungi qorovullar boshlig'i vazifasini bajargan.

6). Dodxoh--fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi mansabdor bo'lgan, bularni kerak bo'lsa xon yoki qushbegiga yetkazib turgan.

7). Inoq –bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifasi amir farmoyishlarini bek vaa boshqa tabaqadagi mahalliy mansabdorlarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

8) Miroxo'r—amirning ovchi qo'shlarini tasarruf qiluvchilar ustidan turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan.

9) Dasturxonchi—amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amalodor.

10). Kitobdor—amir kutubxonasi boshlig'i;

11) To'qsobo—amirning tungi sohibi bo'lgan. xarbiy mansabdor.

12). Parvonachi—biror shaxsning biror lavozimga tayinlanganligi haqidagi yorliqni, o'sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.

13). Sadirlar—vaqf mulklarni boshqaruvchi mansabdorlar. Vaqf muassasining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysinganlar. Sadrlarning vazifasi va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayt etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini oladilar.

14). Shayxul islom—musulmon jamoasi boshlig'i. qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etishini ta'minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib ham o'tgan.

15) Katta qozi—(qozi kalon)—davlatning oliy qozisi (sudg'yasi). Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga Rah-barlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi –kalon «shariat pannot» deb atalardi. Qozi kalon huzurida a'lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rib chiqishdan iborat.

16). Muftiy –Qozi kalon murakkab deb hisoblangan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha, shariat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiying muxri bilan

tasdiqlangach, qozigacha berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqarardi.

Amaldorlarga amir noziriga tushgan xizmatlari uchun, otaliq, eshik o-asi kabi e'tiborli unvonlar berilgan.

Buxoro amirligi 15 beklidan iborat edi. Har bir bekligni amir tomonidan tayinlab qo'yilgan hokimlar-beklar idora qilardi. Xokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi. Ular mahalliy olinadigan soliqlar hisobidan berilar edi.

2-masala: Shayboniyxon –1510 yili Eron shohi Ismoilshohdan yengildi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o'lkalarini bosib oldiyu Bu davrda Xoramzda Ismoilshoh hukmronligiga, uning shialik diniy mazhabiga qarshi xarakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Hisomiddin yetakchilik qilardi. Ular Shayboniylar avlodidan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo'lishni taklif qildilar. Elbarslon 1511 yilda qo'shin bilan kelib, Vazir, Urganch, Xiva, Xazaraspni Ismoilshoh qo'shinlaridan tozaladi.

Shunday qilib, 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi. Elbarsxon uning birinchi xoni bo'ldi.

Xivada Shayboniylar sulolasi xumronligi 1770 yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. Arabxon (1602-1621) davrida poytaxt Xivaga ko'chirildi.

Shuni alohida eslatmoq joizki, Xiva xonligida manarxiya tizimi hukm surgan bo'lib, xonlik sulolalari davrida o'zaro urushlar tinimsiz davom etib, mamlakat qashshoqlashib bordi.

Mamlakatda XVIII asrning 40 yillarida Eron shohi Nodirshoh, uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib oldi. Ammo mamlakatda ularga qarshi g'alayonlar bo'lib turdi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek haqilalaridan Qo'ng'iron urug'ining boshlig'i Muhammad Amin inoq 1770 yilda hokimyatni qo'lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola –Qo'ng'irotlar sulolasiga asos soldi va bu sulola 1920 yilgacha hukm surdi.

Xiva xonligini davlat tizimi Buxoro amirligiga o'xshardi.

1). Oliy xokimiyat—xon qo'lida bo'lib, uning huquqi cheklanmagan—xokim mutloq edi.

2). Xonlikda xondan so'ng, eng nufuzli lavozim bosh vazir yoki qushbegi bo'lib, u soliqlarni to'plash va xonning topshiriqlarini bajarish bilan shu-ullangan.

3). Saroyda otaliq 4) Rais 5) Qozi kalon 6) Shayxulislom 7) Mirshabboshi 8) Miroboshi 9) To'pchiboshi 10) Yassavulboshi 11) Devonbegi—xon devonini boshqargan. 12) Xazinachi—Xonlikni kirim-chiqim hamda Saroy xarajatlarni yuritar, bu haqda xon yoki bosh vazirga hisob berar edi.

13) Xonlikda eng katta mansab va unvonlar –inoq, 14) otaliq, biy hisoblanardi. Bunday lovozimga ko'tarilganlar xonga eng yaqin odamlar bo'lib, soliqlardan ham ozod qilinar edi. Bunday unvonlar xon farmoni orqali e'lon qilingan va yorliqlar berilgan.

15) Saroyda mirshabboshi, 16) Munshiy , 17) Mahramboshi, kabi mansablar ham faoliyat ko'rsatgan.

Xiva xoni ma'muriy hududiy shahardan beklilik va noibliklarga bo'lingan, bekliliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Ularga xizmat qiladigan ko'plab xizmatchilar bo'lgan.

Xiva xonligida tahminan 40 mingdan iborat otliq qo'shin bo'lib, unga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan.

3—masala. Buxoro xonligidagi ichki kurashlar Markaziy xokimiyatni zaiflashishiga olib keldi. Bunday vaziyat Farg'ona vodiysidagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishni kuchaytirdi. Qo'qon shahriga yaqin Chodak qishlog'ida yashovchi din peshvolarining mavqei XVIII asr boshlaridayoq Farg'onada ancha kuchayib, hokimiyatni qo'lga olishga intildilar.

1710 yilda Qo'qon atrofida yashab turgan o'zbek qabilalaridan biri –Minglar o'z yetakchisi Shohruhbiyni hokimiyat tepasiga ko'tardilar. Shu tariqa Qo'qon xonligi tashkil topdi. Bu sulola 1875 yilgacha hukmronlik qildilar. Bu xonlikda ham manarxiya tuzumi hukmronlik qilgan bo'lib, sulolalar va xonliklar o'rtasida mamlakatda qashoqlik hukm surardi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi.

Xonlikda sersuv daryolar, serunum yerlar so'lim vodiyni bezab turardi.

Bu o'lkada (xonlikda) 3 mln kishi yashardi. Qo'qonda 80 ming, Toshkentda 60 aholi yashagan.

Xonlikdagi boshqaruv tizimi Buxoro va Xivanikiga o'xshardi. 1) Xon huquqi xech nima bilan cheklanmagan-xokimi mutloq edi. 2. Xondan keyingi shaxs vazir hisoblanib, muhim davlat masalalarini xon bilan birgalikda hal etardi. 3. Markaziy boshqaruvda qushbegi 4. Otaliq. 5. Devonbegi. 6. Mingboshi. 7. Shayxulislom. 8. Qozikalon. 9. Parvonachi. 10. Shig'olu.11. Sarkor. 12,

Inoq. 13. Dasturxonchi. 14. Amin. 15. Yassovulboshi kabi amaldorlar xizmat qilgan. 16 Saroy qoshida maxsus kengash tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga eng oliy mansabdor shaxslar kirgan. Xon kengashining raisi va masalani xal qiluvchi shaxs edi. 17. Xon qo'shini harbiy ishlarni mingboshi boshqarar edi. 18. Qo'qon xonligi 15 beklilik harbiy okruga bo'lingan bo'lib, ularning ko'piga xonlik avlodlari xokimlik qilardi. Xokimlar—o'z hududidagi harbiy kuchlar qumondoni hamda fuqarolik boshqaruvining boshlig'i edi.

Xulosa qilib, shuni alohida ta'kidlashmoq joizki, xonliklarda XVII-XIX asrlarga kelib, I. A. Karimov aytganidek, to shu davrgacha erishgan yuksalish darajasidan tushib ketdi? Nimaga endi 3 asr davomida halokatdan chiqmay qolganliginin asosiy sababi 1. Bunday qaloqlikka xonliklarning jahon tarqqiyotidan uzlib qolganligi, 2. Xonlik o'rtasida o'zaro urushlar; 3. Xonlikning asrlar davomida o'zgarmay qolayotgan davlat idora usuli; 4. Tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi. (Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998. 9-bet. )

XVIII asr boshlariga kelganda Movarounnahrda vaziyat mushkullashdi. Ubaydulloxon hukmronligi davrida Buxoro xonligidagi ijtimoiy siyosiy vaziyat chigallashib, markaziy hokimiyat yanada zaiflashgan. Bundan tashqari Ashtarxoniyalar Farg'ona vodiysini iloji boricha og'ir ahvolda tutib turishga harakat qilganlar. Bundan foydalangan Chodak xojalari 1709 yilda Buxoro xonligiga tobe hisoblangan Farg'ona vodiysida "bosh ko'tarib" vodiyning bir qismini egallagan. Vodiyning ming qabilasi yo'l boshchilaridan biri Shohruhbiy hukmdor deb e'lon qilindi.

1710 yilda minglar Chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyat tuzdilar. Shu tariqa O'rta Osiyoda keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi. Tepaqo'rg'on Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Shohruhning o'g'li Abduraximbiy (1721-1733) davrida Xo'jand, O'rtatepa viloyati qo'shib olindi. Undan so'ng ukasi Abdulkarimbiy(1733-1750) o'tiradi. U Eski qo'rg'on qal'asi yonida hozirgi Qo'qon shahriga asos solib, o'z poytaxtini Tepaqo'rg'on dan Qo'qon shahriga ko'chiradi. Undan so'ng Erdona hukmronligi davri (1751-1762) xonlikning qudrati ortdi.

Abdulkarimbiyning nabirasi 1763 yilda Norbo'tabiy taxtga o'tkazildi. So'ng Olimbek davri(1798-1810) boshlandi. Olimbek esa fitna qurboni bo'ladi. U Qo'qonga kelayotganda fitna uyushtiriladi. Qo'qon honligi davlati tizimiga ko'ra mutlaq monarxiya edi. Davlat boshlig'i xon bo'lib u rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Xon davlatni hukmron qabila, ruhoniylar boshqa qabilalarning hukmron tabaqalari davlat boshqaruvi amaldorlari va harbiylarga tayanib boshqargan.

Tarixchi Mirza Olim Mahmudxoji o'zning "Turkiston tarixi"asarida 24 ta katta davlat mansabiga ta'rif bergan.

Unga ko'ra , xondan keyingi o'rinda qushbegi turgan. U xonning birinchi maslahatchisi bo'lib ayni paytda katta shaharlardan biriga mustaqil hokim etib ham tayinlangan. Chunonchi, Toshkent shahrini ma'lum bir vaqtda qo'shbegi boshqarganligi manbalarda qayd etilgan. Parvonachi mansabi ham o'z nufuzi jihatidan qo'shbegi vakolatiga teng bo'lgan. Bora-bora honlikda ming boshi mansabi birinchi o'ringa chiqqan . U xonlikda bosh vazir hisoblangan.

Xonlikda xudaychi mansabidagi amaldor xon nomiga yozilgan arizalarni qabul qilish bilan shug'ullangan. Ayni paytda xon yotog'i posponboshisi , miroxo'r, sarbozlar boshlig'i, nafib, otaliq, dodhox, mehnat, yuzboshi, o'nboshi kabi mansablar ham joriy etilgan.

Bundan tashqari islom shariati qoidalarni amal qilishiga ma'sul bo'lgan katta nufuzga ega lavozimlar ham bo'lgan. Bular shayxulislom, qozikalon, qozi, qoziaskar, muftiy lavozimlari edi. Bu mansablarga faqat ulamolar vakillari tayinlangan. Xonlikda shig'ovul, muhtasib, daftardor, sarkor, inoq kabi mansablar ham bo'lgan. Ma'muriy-hududiy jihatdan xonlik viloyatlarga (15 ta ) beklilik va oqsoqollarga bo'lingan.

Olimxon davrida o'tkazilgan harbiy islog'atga ko'ra , botirlar deb ataluvchi muntazam armiya ham tuzila boshlagan. Har bir botirga 50 tanga maosh belgilangan.

Daftardor-xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor.

Sarkor-davlat xazinasiga tushadigan mahsulotlarni saqlovchi amaldor.

Shig'ovul-mansabdorlar ishi ustidan nazorat qilib boruvchi amaldor.

Muxtasib-shariat qonunlarining fuqarolar tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor. Mana shunday yo'l bilan davlat boshqarilgan.

Jahon dalatchilik tarixining ko'rsatishiga davlatlar shakllagan davrdan boshlab mamlakat xavfsizligining ta'minlashga ma'sul bo'lgan. Davlat o'z tasarrufidagi qo'shinni kerakli mablag' va vositalar bilan ta'min etishga harakat qilgan.

Mavjud qo'shin ta'minoti turli davr va davlatlarda o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Bu o'rida O'rta Osiyo xonliklari, xususan Qo'qon xonligidagi qo'shin ta'minoti borasidagi tajriba iboratdir.

Qo'qon xonlari Olimxon, Umarxon, va Madalixon davrida kengaytirilgan mamlakat hududini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash katta miqdorda muntazam va nomuntazam qo'shinga ega bo'lishini talab etar edi. Mamlakat hukmdorlari mavjud qo'shin ehtiyojlarini har jihatdan ta'min etishga harakat qilganlar. Aksariyat hollarda ushbu xazinasi hisobidan amalga oshirilgan. Bu holatni qushinning turli qurol aslaha bilan ta'minlanishi sohasida yaqqol kuzatish mumkin. Tadqiq etilayotgan davrga od arxiv hujjatlari XIX asrda yashab ijod qilgan mahalliy muarrixlar va nihoyat xonlikda bo'lgan rus sayyohlarining asarlarini tahlil qilish orqali Qo'qon xonlari qurolsozlik ustaxonalariga alohida e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin.

Xonlikda turli qurolar miltiq, to'plar ishlab chiqishga ixtisoslashgan ustaxonalar mavjud edi.

Xonlikda harbiy anjomlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan ustaxonalardan tashqari, xonlik mudofaa tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi qal'alar ham davlat tomonidan moddiy ta'minlangan.

Xonlikda iqtisodiy hayot ham boshqa xonliklarga o'xshab ketadi. Xonlikda aholi sun'iy sug'orish mahoratini mukammal egallagan edi. Qo'qon xonligida asosan g'alla ekini bug'doy edi. Paxtachilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Xonlikda yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan.

1. Amlok yerlari.                      2. Xususiy mulk yerlari.                      3. Vaqf yerlari.

Xonlikda butun yer davlatniki edi.

Bulardan tashqari soliq va yer majburiyalar ham turardi. Asosiy soliq –xiroj bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab 1/3-1/5 olinar edi.

Qo'chmanchilardan olinadigan zakotning ham turi ko'p edi. Ularning asosiylari:

“Qo'raboshi” zakoti—ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan zakot edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganda yig'ib olinadi.

“Tutun haqi” zakoti—bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq.

“Yig'im soliq” esa zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat inomlardan iborat bo'lgan.

Ahvol shu darajaga borib yetgan ediki, xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lardi. Deyarli barcha xonliklarda ahvol mana shunday edi.

#### ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T., Sharq, 2001 yil, 104-128 betlar.
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000 yil, 278-303 betlar.
3. O'zbekiston tarixi. 1 qism, T. Universitet 1997 yil, 296-227 betlar.
4. O'zbekiston tarixi. 1 qism, Xalq merosi, 2002 y. 194-224 betlar.
5. O'zbekiston tarixi. (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis tinglovchilari uchun dasrlik.) T. 2003 yil. 299-335 betlar.

#### MAVZU: MUSTAMLAKACHILIK VA SOBIQ TATALITARIZM DAVRIDA DAVLATCHILIK.

##### REJA.

**1. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi davrida . Turkiston o'lkasida davlat boshqaruv tizimining o'zia xos hususiyatlari .**

**2. O'lkaning uezdlarga bo'linishi. 1886 yilgi “Turkiston o'lkasining boshqarish haqida nizom” va boshqaruvning kuchayishi.**

**3. Turkistonda sovet hokimiyatchiligining o'rnatilishi. Sovet imperiya davlatchiligini joriy etilishi.**

**4. Davlatchilikni sovetcha tizimi va uni boshqaruv usullari . Davlachilikni sovetcha modelining qulashi.**

I masala: Turkistonni bosib olish masalasi rus podsholari va imperatorlarini doimo diqqat markazida bo'lgan. Turkistonni Rusiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy ochiq harakat Petr I davridan boshlandi.

U o'zining sharqqa nisbatan tajavuzkorlik siyosatini, Markaziy Osiyo va Hindiston yerlariga

suqlanib qarayotganligini yashirib ham o'tirmadi.

«Sharq bilan aloqada Qirg'iziston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun, millionlab so'm sarflansa ham Qirg'izistonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa, u yerda Rusiya ta'sirini o'rgatish zarurdir.» (o'sha kitob 12-bet.)

Petr I o'z fikrlarini amalga oshirish uchun amaliy tadbirlarni ishlab chiqdi. O'zining tajaovuzkorlik siyosatini amalga oshirish maqsadida 1717 yilda knyaz Bekovich-Cherkaskiyi katta qo'shin bilan yuboradi. Biroq bu harakatga Xiva xoni Sherg'ozixon uzil kesil chek qo'yadi. Ammo Rusiya hukmdrolari o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida, 1717 yilda Omsk, 1718 yilda Semipalatinsk, 1720 yili Ust-Kominagorsk, 1720 yilda Orenburg harbiy qal'alari qurildi.

XVIII asrning o'zida chor ma'murlari yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun hozirgi Qozog'iiston hududlarida 46 ta katta, 96 ta kichik harbiy qal'alar qurganlar.

Shunday qilib, 1839-1840 yillarda podsho Nikolay I ning buyrug'i bilan Orenburg harbiy gubernatori A. Perovskiy katta qo'shin bilan Xivaga qarab yo'lga chiqdi. Ammo u orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Turkiston yerlarini bosib olishning yangi to'lqini 1847 yilda boshlandi. Shu yili sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi Qo'qon xoniga qarshi Raim harbiy qal'a egallandi va ruslar o'zini Orol harbiy qal'asi barpo qilindi

1852 yili rus qo'shinlari Oq machitni (Qizil o'rda) egallandi-jang 22 kun davom etdi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II –tomonidan 1859-1861 yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokam qilindi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqli qilish va unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilindi. Shu tariqa, 1864 yildan g'arbdan Veryovkin, sharq tomondan Chernyaev qo'shinlari urush harakatlarini boshlab yubordilar.

Shu tariqa Toshkentni 1865 yil 15 iyunda zabt, 1865 yil 17 iyunda Toshkent Rossiya imperisiyaning tarkibiy qismiga aylanganligini haqidagi bitimga imzo chekildi.

1868 yil 22 iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi.

1873 yil 12 avgustda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan Kaufman o'rtasida Gandimiyon qishlog'ida sharnoma imzolandi va Xiva xonligi Rossiyani vassaliga aylantirildi.

1876 yil Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirildi (1873-1876 y.) va Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan, Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga esa, Skobelev xarbiy gubernator etib tayinlandi.

1877-1885 yillar davomida Oloy vodiysida, Qizil Arovat, Ashxabod, Marv bosib olindi va 1895 yilda Pomirdagi chegaralar belgilangan. Angliya, Afgoniston hukumatlari bilan shartnomalar tuzildi va O'rta Osiyo Rossiyaning to'la mustamlakasiga aylandi.

O'rta Osiyoni bosib olgan Rossiya oldida, bu o'lkani boshqarish, idora qilish usulini ham ishlab chiqishdek tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

Rossiya harbiy vaziri D. Milyubid va podsho maslahatchisi, V. Girs 1867 yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi » haqida qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va Amaliy kuchga kirdi. Turkiston gernerel-gubernatorligi tashkil etilib, o'lkada mutloq hokimiyat uning qo'lga o'tdi. General gubernotorlik kengashi va To'rtko'l bo'limidan iborat mahkama tuzildi.

1-bo'lim. Ma'muriy va nazorat,

2-bo'lim. Moliyaviy va xo'jalik,

3-bo'lim.soliqlar va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan,

4-bo'lim. Maxsus bo'lim deb atalgan.

General gubernator bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. u Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xoini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan. Turkiston general gubernatorligi viloyatlarga, viloyat uezdlariga, uezdlar uchastkalariga bo'lingan.

Viloat harbiy gubernatorligiga, general darajasidagi, uezd boshlig'iga kapitan darajasidagi zobitlar tayinlangan. Mazkur tuzilmaning negizi-o'zagi uezd bo'lib, uning boshlig'i general –gubernator tomonidan tasdiqlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Uezd boshlig'i ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatni o'zida birlashtirgan. Odamlarga jarima solish, 7 kunga hibsdan saqlash mumkin bo'lgan, shu boisdan uni «xokim to'ra» deb ham atashgan.

Qishloqlarni boshqarish uchun uchastka boshlig'iga bo'ysinuvchi bo'lis (volost) va ovul, ma'muriy boshqaruvi joriy etildi. 1-2 ming xonodon yashovchi bo'lus, 1X2 yuz o'tovli hudud ovul

deb atalardi. Tub yerli aholi orasidan bo'lus boshqaruvchisi (oqsoqol yoki mingboshi) qishloq oqsoqollari—(yuz boshi, elli boshi, o'n boshi) hamda ovul oqsoqollari, ularning o'rinbosarlari saylanadigan bo'ldi. Ammo, bu mahalliy aholi vakillari ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lganlar.

Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va u 1877 yili Sank –Peterburgda maqullangach, kuchga kirdi.

Nizomga ko'ra—shahar dumasi va boshqarma saylandi. 3000, 1000, 500 so'mlik mulkka ega bo'lganlarga saylov huquqiga ega bo'ladilar xolos. Ushbu mablag'i bo'lmaganlar saylov huquqidan mahrum edilar.

Duma – farmoyish beruvchi organ bo'lib, uning Rossiyaliklardan saylangan oqsoqollar boshqargan.

Hokim – noiblardan saylanuvchi shahar boshqarmasi tashkil etadi, ijro etuvchi hokimiyat organ vazifasini bajaradi.

O'lkada tashkil etilgan politsiya va sud idoralari ham mustamlakachilik tartibini mustahkamlashga, mahalliy aholini har qanday norozilik harakatini bo'g'ish va bostirishga qaratilgan edi.

Chorizmning ma'muriy idora usuli o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, aholini ma'naviy jihatdan tobelikda saqlash, ruslashtirish siyosati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Xulosa shuki: Rossiyaning mustamlakachilik siyosati; 1) Markaziy Osiyo xalqlarining milliy davlatchiligimizdan mahrum qildi; 2) ularni taraqqiyotning ummusivilizatsiya jarayonlarida mustaqil ishtirok etish yo'llarini kesib qo'ydi; 3) jamiyatning ijtimoiy jarayonlariga jiddiy zarar yetkazdi.

II masala. 1917 yilning 15-22 noyabrda Turkiston o'lkasi ishchi, Askar va dehqon deputatlari sho'rosining III s'ezdida Turkistonni boshqaradigan bolg'sheviklardan iborat hukumat idoralari tashkil topdi. Ya'ni o'lkada hokimiyatining siyosiy xarakteri va strukturasi turdi. Ushbu qurultoy qarorlari to'la to'kis shovinistik va millatchilik ruhi bilan bitilgan qarorlar qabul qildi.

Avvalo, Turkiston o'lkada Xalq Komissarlar sho'rosi raisi etib, shovinist F. I. Kolesov, uning o'rinbosari qilib Zeleski saylandi.

Qurultoyda Komissarlik (vazirlikka to'g'ri keladi) lavozimlari ham quyidagicha taqsimlandi. hammasi bo'lib 14 komissarlikni tashkil qiladi.

- 1) temir yo'llar Pochta va telegraf komissari – Kolesov
- 2) Xalq maorifi komissari – Permezskiy
- 3) Oziq-ovqat ishlari komissari – Domogatskiy
- 4) Tashqi ishlar komissari – Perefilov
- 5) Mehnat komissari – Poltaratskiy
- 6) Savdo vasanoat komissari – Lyapin
- 7) Dehqonchilik komissari – Chegodaev va hakoza

Ushbu hukumat tarkibiga birorta mahalliy millat vakillaridan kiritilmadi. Ular mahalliy xalqning na tilini, na dinini, na madaniyatini, na milliy urf-odatlarini, bu yerda asrlar osha tarkib topgan tarixiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini bilmas edilar. Ayniqsa, bu o'lkada jahonga tanilgan Fan va diniy ta'lim maskani bo'lib aniq va dunyoviy fanlar yuzasidan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan allomalarni eshitmaganlar. Bu hol keyinchalik o'lkada Sho'rolar hokimiyati «tartib qoidalarini» o'rnatish chog'ida o'zining eng yaramas va jirkanch qiyofasini ko'rsatdi. Chunki bu Yevropadan yuborilgan tasodifiy rahbar unsurlar mahalliy shart sharoitlar bilan hisoblashmadilar. Turkistonda ulug' rus shovinistik siyosatini zo'rlik yo'li bilan davom ettirdilar.

Zo'rlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o'zining ilk davridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasini mustamlakachilik tizimi sobiq sovet Rossiyasi davrida yanada takomillashtirildi.

Turkiston xalqini istak va xohishlarini ro'yobga chiqargan, Turkiston muxtor hukumatining xalq o'rtasidagi obro'-e'tibori va nufuzi boshlg'sheviklarni tashvishga solib qo'ydi. Nihoyat, Turkiston muhtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumi oqibatida ag'darib tashlandi.

Turkiston muhtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rgan bo'lsa, ham u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga da'vat etdi. Rossiya va Turkistondagi yuz berayotgan siyosiy bo'hronlarni oldini olish maqsadida RSFSR ning bolg'sheviklar rahbarlari oldida Milliy davlatchilik qurilishning sovetcha amaliyotiga muhim o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish zarurligini hisobga olib, shoshilinch ravishda chaqirilgan sovetlarning III Umumrossiya sg'ezdida (1918 yil 10-12 yanvarg') «Rossiya sovet respublikasining Sovet milliy respublikalarining federatsiyasi sifatida ta'sis etiladi» deb



e'lon qilindi. Bunda Turkistonga ham prinsipial ahamiyat berildi. RSFSR milliy ishlar xalq komissarligi huzurida alohida musulmonlar ishlari bo'yicha komissariat tuzuldi.

O'lkada «sovet avtonomiyasi» ni bevosita tashkil etishni RKP(b) MK va RSFSR XKM Turkistonning favqulodda vakolati berilgan P. A. Kobozev zimmasiga yuklandi. V. I. Leninning vakili Toshkentga 1918 yil aprel oyining boshida yetib keldi. 20 aprelda Turkiston sovetlarining V s'ezdi ish boshladi. U respublikaning rasmiy maqomini tasdiqlash lozim edi. 1918 yil 20 aprel kuni tegishli sinfiy mezonlar asosida saylangan s'ezd delegatlari «Rossiya sovet federasiyasining Turkiston sovet Respublikasi haqida Nizom»ni qabul qildilar.

Unda o'lqadagi sotsialistik davlatchilik tuzilishining asoslari belgilab berilgan edi. Ushbu hujjatga muvofiq Turkiston o'lkasining butun hududi uning geografik chegaralarida, Buxoro va Xivani istisno qilgan holda, «Rossiya federasiyasining Turkiston respublikasi» deb e'lon qilindi va u «avtonom» tarzda boshqarilib, RSFSR Markaziy hukumatini tan oladi hamda o'z faoliyatini markaziy hukumat bilan muvofiqlashtiradi, deb belgilab qo'yildi.

Nizom markaziy va mahalliy davlat organlarining mavjud tuzilmasi va funksiyalarini mustahkamlab qo'ydi: 1) ishchi soldat, dehqon deputatlari Sovetlari s'ezdi Turkiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi, 2) markaziy ijroiya qo'mita doimiy oliy qonun chiqaruvchi organ, 3) Xalq komissarlari sovet ijroiya organi, 4) sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari – joylardagi hokimiyat deb e'lon qilindi.

Shunday qilib, Turkiston muxtoriyatida mujassam bo'lgan o'ziga xos milliy davlatchilikni siqib chiqarish g'oyasining lenincha strategiyasidan kelib chiqqan holda, «sovetlar asosidagi avtonomiya», «milliy o'z taqdirini o'zi belgilash»ning sovet varianti deb e'lon qilindi.

Amalda u tub joy aholiga amaldagi suverenitetni bermadi, o'lkaning «sotsialistik markazga qaramligiga yo'naltirilgan edi.»

Buni «Rossiya sotsialistik sovet federasiyasining Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi» tasdiqlar edi.

Unga muvofiq mudofaa, tashqi aloqalar, pochta telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sanoat va moliya sohalari, federal hukumati qo'lida bo'lishi alohida aytib o'tilgan.

Mahalliy aholining rasmiy e'lon qilingan «avtonom huquqlari» faqat tashviqot maqsadini ko'zlar edi. Mahalliy millat vakillaridan chiqqan davlat arboblari – Turkiston ASSR XK Kengashi raisi K. Otabaev, TKP MQ kotibi N. To'raqulov, TASSR MIK raisi – Rahimboboev, F. Xo'jaev, A. Ikromovlar Turkistonda yuz berayotgan siyosiy xatoliklarni ro'y-rost tanqid qildilar. Biroq ularni barchasini repressiya qilindi. Shunday qilib, oktyabr to'ntarashidan keyingi dastlabki yillar, sotsializm to'la va uzil kesil g'alabasiga, rivojlangan sotsializm deb atalgan yillarda ham sovet sotsialistik davlatchiligining faol tarzda zo'rlab tiqishtirilishi davri bo'ldi. Milliy davlat o'z taqdirini o'zi hal etishdan iborat qonuniy huquqidan mahrum qilinganligi O'zbekiston jamiyati turli qatlamlarining kuchli ijtimoiy va davlat tuzumini joriy etishga muvofiq bo'ldi.

Sovet davrining tajribasi shuni yaqqol ko'rsatdiki, komunistik tuzumning totalitar mustamlakachilik tabiati sovet tarixining barcha bosqichlardia ham uni modifikatsiya qilishga bo'lgan barcha urinishlarga qaramay o'z tamoyiliga ko'ra o'zgarimasdan qolaverdi. Bunday ahvol sobiq ittifoq tarkibidagi, jumladan O'zbekistonda ham o'rnatilgan sovet davlatchiligining mafkurasi va tabiati bilan bevosita bog'liq edi. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov sovet sotsialistik davlatchiligi tarixiga baho berar ekan, buni bizning xalqimizga zo'rlab tiqishtirganligini ta'kidlab o'tib, u xalqimizning tub ma'naviy, axloqiy, diniy qadriyatlariga mos kelmas edi. Markazdan turib boshqariladigan, idora qildinadigan davlat ma'o'inasi qandaydir bir manqurtga, o'z urug'-avlodini ham o'z xalqini tarixini ham bilmaydigan kishilarga mo'ljallangan edi, - deganlarida haq gapni aytgan edilar. (Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 2.t. 1996 y. 6 bet)

Imperiya markazining siyosati Turkistonda yoqqol ko'zga tashlanuvchi qiyofa kasb etdi. og'izda mahalliy xalqlarni o'ziga xos rivojlanish mumkinligini e'lon qilib, yangi hokimiyat amalda mazkur jarayonlarning namoyon bo'lishiga to'siqlik qiladi, tub joy aholini davlat boshqaruviga jalb etishi ochiqdan-ochiq qarshilik ko'rsatdi.

Bol'sheviklarning hatti harakatlari mahalliy halqlarning sovetlarga qarshi kayfiyatini kuchaytirdi. E'lon qilingan milliy davlatchilik – Turkiston muxtoriyati zo'rlik bilan ag'darildi. Unga qarshi istiqbolchilik kurashi kelib chiqdi. 1918-1922 yil dekabrigacha bol'sheviklar Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari markazga qaram bo'lgan hududlar sifatida xilma-xil nayranglarni amalga oshirdi.

Partiyaning yuqori doiralarida milliy masala bo'yicha o'tkir munozara avj olib ketdi. (1921-1922 y). 1922 yilning dekabr' oyida SSSR tashkil topganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu sotsialistik davlatchilikning uzil-kesil tugallangan shaklini mujassam etivchi Sovet Ittifoqi avvalboshdanoq, milliy respublikalarning yo'lboshchilari umid qilganlaridek suveren davlatlar hamdo'stligi sifatida emas, balki rasmiy federasiyaning sub'ektlari mustaqillikni barcha tashqi ramzlariga (o'z konstitutsiyasiga, bayrog'i va madhiyasi)ga ega bo'lgani holda amaldagi suveren huquqlardan mahrum va uning tarkibidan chiqq olmaydigan qudratli davlat sifatida dunyoga keldi.

Ittifoqda respublikalar xususan O'zbekistonning sovet davri tarixi juda o'xshash bo'lib, salbiy, fojiaiy voqealarga ham, shuningdek, ijobiy rivojlanish faktlariga ham boydir.

Oktyabrdan so'ngi dastlabki yillar sovet sotsialistik davlatchiligining faol tarzda zo'rlab tiqishtirishi davri bo'ldi. Milliy davlat o'z taqdirini o'zi hal etishdan iborat qonuniy huquqidan mahrum qilinganligi Turkiston jamiyati turli qatlamlarini noroziligiga sabab bo'ldi.

Xalqimizning mustaqil davlatchiligi mustaqillikni qo'lga kiritish orqali vujudga keldi.

#### ADABIYOTLAR.

1. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. T. Sharq, 2001. 128-203 betlar.
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq, 2000.
3. O'zbekiston tarixi I-qism. Xalq merosi T 2002-yil 235-244-betlar .
4. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxasis tinglovchilari uchun darslik. T 2003-yil 385-388 betlar.
5. Karimov Sh., Shamsiddinov R. Turkiston Rossiya bosqini davrida. Andijon meros 1995 44-61-betlar.

### MAVZU: MUSTAQIL DEMOKRATIK MILLIY DAVLATCHILIK.

#### REJA.

1. O'zbekistonda suverenitet tendesiyasining kuchayishi va Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishning boshlanishi.
2. O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilinishi.
3. Eski davlatchilik tizimidan yangi milliy, huquqiy davlatchilik boshqaruviga o'tilishi.
4. O'zbekiston demokratik, fuqarolar jamiyati qurishning o'z modeli, uning hususiyatlari.

XXI asr bo'sag'asida dunyoda misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mohiyat jihatdan totalitar tuzum bo'lishi sotsialistik dunyo, zo'rvonlikka asoslangan kommunistik mafkura tannazulga uchradi. Dunyoni larzaga olib kelgan sobiq SSSR parchalanib ketdi.

130 yildan ortiqroq davrada qaramlik azobini tortib kelgan O'zbekiston xalqi davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Respublikaning mustaqillikka erishuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonning natijasi bo'ldi. Avvalo Chor Rochchiyasini, so'ng Sho'rolar hukmronligiga qariib 130 yil davom etib, Turkistoni halqlarining, jumladan o'zbek xalqining o'z tarixiy davlatchiligidan mahrum qilib mustamlaka o'lkaga aylantirdi. Bu zulmga qarshi xalqimiz goh pinxona, goh oshkora kurash olib bordi. Ozod, erkin yashash uchun intildi.

1989 yil 23 iyunda I. A. Karimov O'zbekistonga rahbarlikka kelishi, o'zbek xalqini mustaqillikka bo'lgan intilishlarini bosqichma- bosqich amalga oshirishga rahnomolik qildi. Jumladan, O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining 1989 yil 25 noyabrdagi XVIII plenumida O'zbekiston hukumati avvola, respublika va o'zbeklar boshiga yog'ilayotgan malomat toshlariga chek qo'yish, «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» degan uydirmalarni bas qilish, Moskva matbuotida o'zbeklarning nafsoniyatiga tegadigan chiqishlarni to'xtatish zarurligi uqtirildi.

1989 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1990 yil 24 martda bo'lib o'tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, Prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu tadbir Respublikadagi siyosiy o'zgarishlarni takomillastirish va konstitutsion tizimni mustahkamlash, mantiqan markazdan uzoqlashishi va bo'ysunmaslik, o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili yotardi.

Mustaqillik sari tashlangan qadamlardan Yana biri, O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII chaqiriq II sessiyasida (1990 yil 20 iyun') qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasidir». Ushbu Deklaratsiya 17 moddadan iborat bo'lib, uni mohiyati barcha sohalaridagi

masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lgan tanho hokimlikdir deyilgan.

Shu kunlarda boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

1991 yil 31 avgustda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi», O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarorlari halqimizning asriy orzu umidlari ruyobga chiqqanligi va amalga oshganligining huquqiy asosi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini to'g'risidagi qonun 17 moddadan iborat bo'lib mustaqil respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini o'ynadi.

Shunday qilib, O'zbekiston tinch, Parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Respublikda demokratik huquqiy jamiyat asoslari faol ravishda vujudga keltirilmoqda. Avvalgi yakkaxokimlik tizimining illatlari qati'yan tugatilmogda. Yagona mafkuraning yakkaxokimligiga barham berildi. Umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi, chinakkam demokratiya, inson erkinliklari va huquqlarining butun Dunyo tan olgan maorom va qoidalari qaror topmogda.

Respublika parlamenti qonun yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullanmogdaki, u yosh mustaqil davlatning shakllanishini huquqiy jihatdan har tomonlama ta'minlashga qaratilgandir. Davlat boshqaruvning Yangi zamonaviy va samarali tizimi shakllanmogda. Prezidentlik boshqaruv usullari shu tizimining o'zagidir. Viloyatlar, rayonlar, shaharlarda xokimlik lo vazimi ta'sis etildi. Sud xokimiyati isloh qilinib u takomillashtirilib borilmogda. davlat hokimiyati mahalliy organlarning yangi tizimi vujudga keltirildi.

Jamiyatni demokratik rivojlantirishning strategik maqsadlari va qoidalariga muvofiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, milliy xavfsizlik organlarining yangi tizimi barpo etildi. Milliy armiyaning O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi milliy davlatchilikni qaror toptirish yo'lidagi muhim yutuq bo'ldi.

Hozirgi davrda «davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi, siyosiy partiyalar, nodavlat ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir—dedi I. A. Karimov (Karimov I. A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston. 1997 y.)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bo'lib, unda muqaddima, olti bo'lib, 26 bob, 128 moddadan iborat.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo'ldi. O'tgan yillar ko'hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jaxon jarayonida o'z o'rnimizni egallash davri bo'ldi. Bu davrda biz o'zligimizni anglab, tarixiy yo'limizni uzil-kesil tanlab oldik.

O'tgan davrda, eksi ma'muriy tizimni tugatish va xokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish hamda yangi davlatilikni huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 11 moddasida xokimiyatning bo'linish tamoyili Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. I. A. Karimov eng avvalo, hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog'liqligini uqtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning 5 bo'lim, 18 bobida va 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida» gi Qonunda beligilangan.

Bu qonunga ko'ra, Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

1993 yilning 28 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida» gi qonunga ko'ra Respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisiga saylov Respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo'ldi va bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis –yangi parlament demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Bugun (2004 yil 26 dekabr') O'zbekiston ikki palatali parlament, jumladan parlamentning yuqori palatasi senatning ish boshlagani o'z milliy taraqqiyotining yangi sivilizatsiya bosqichiga ko'tarildi.

Zero, ikki palatali parlament «tozalash» vazifasini bajaradi, bir palatali parlament bilan ijro etuvchi hokimiyat o'rtasida xar xil kelishmovchiliklarni oldini oladi, qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan ijro etuvchi hokimiyat ya'ni parlament va hukumat vazifalari vakolatlarni cheklash imkoniyatini beradi, xokimiyat tarmoqlarining o'z huquq majburiyatlarini mustaqil holda amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va kafolatlar yaratadi. Ularning muvozanatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyaviy davlat sifatida avvalambor, maszur islohiy o'zgarishlarning huquqiy asoslarni yaratishga kirishdi.

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumiyxalq referendumini natijalariga ko'ra, hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Bu «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida» gi, shuningdek «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi konstitutsiyaviy qonunlar uchun rasmiy yuridik asosga aylandi.

Oliy Majlisning huquqiy vakillik palatasi—senatning maqomi, vakolatlari, vazifalari, tarkibi, uni shakllantirish tartibi va tashkiliy tuzulishi huquqiy jihatdan belgilab berildi. Shuningdek, «O'zbekiston Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida» gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar asosida hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylov to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan yuqori palata-senatga saylovlar hamda senatorlarni saylash va tayinlash muddatlari, tartib-tamoyillari aniq rasmiylashtirildi. 2004 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputaning va senat a'zosining maqomi to'g'risida »gi qonun qabul qilindi.

2004 yil 26 dekabrda o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra, Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga hamda halq deputatlari mahalliy kengashlarning qo'shma majlisida deputatlar orasidan hududlardan 6 nafardan 84 deputat senat a'zolariga saylandi. 16 nafar senator prezident farmoyishi bilan tayinlandi. Shu tariqa 100 kishidan iborat mamlakatimiz senati ish boshladi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi –Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Oliy majlisi ikki palatadan iborat bo'lib –qonunchilik palatasi (quyi palata) va senatdan (yuqori palata) iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi huquqiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iborat.

O'zbekiston Oliy Majlisining Senati huquqiy vakillik palatasi bo'lib—senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatning birgalikdagi va ularni mutloq vakolatlari O'zbekiston Konstitutsiyasining 78,79,80 moddalarida vash ushbu masala bilan bog'liq masalalar Konstitutsiyani 81-88 moddalarida berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari berilgan.

Ushbu qonuning 89 moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi xokimiyat boshlig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bosh vazir va uning o'rinbosari, vazirlar davlat qo'mitalarining raislaridan iborat bo'lib, uni tarkibi Prezident tomonidan shakllantiriladi. Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari bosh vazir taqdimiga binoan Prezident tasdiqlaydi.

Viloyatlar, tuman va shaharlarda hokimiyalar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari xokimiyatning vakillik organlari bo'lib ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati Konstitutsiyaning 106 moddasiga ko'ra, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekistonda sud tizimi 5 yil muddatga saylanadi va O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi va uning joylardagi vakillari .

Respublika Prokuraturasi - Respublika hududida qonunchilikni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishshilgan holda ish yuritadi. Viloyat, tuman, shahar prokurorlari Respublika Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

#### **1. I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

#### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

11. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: SHarq, 2000.
12. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
13. Sagdullaev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
14. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – T.: Uzbekistan. 2009.
15. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). – T.: Ma'rifat, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

16. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa'dayn va majmua ul bahrayn. T.: Fan, 2008.
17. Abduraxmon To'le. Abulfayzxon tarixi. - T.: Fan, 1959.
18. Abduxoliq Abdurasul o'g'li. CHin va Mochin. – T.: Fan, 2006.
19. Abu Ali Ibn Sino. Donish-name. Kniga znaniy. - Dushanbe, 1957.
20. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi. - T.: Kamalak, 1995.
21. Abu Djafar Muxammad at-Tabariy. Istoriya at-Tabariy T.: Fan, 1987.
22. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T., 1993.
23. Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlanma asarlar I jild. - T.: Fan, 1968.
24. Abulg'oz. SHajarai turk. - T.: CHO'lpon, 1990.
25. Avesto / Asqar Maxkam tarjimasini. – T.: SHarq, 2001. – 383 b.
26. Ali Kushchi. Astronomicheskiy traktat. Samarkand. 1970.
27. Askarov A. Eng qadimgi shahar. - T., 2001.

28. Axmedov B.A. O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. - T., 2003.
29. Axmedov B.A. O‘zbek ulusi. - T.: Meros, 1991.
30. Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. -T., 1998.
31. Bo‘riev O. Xorazmshohlar-Temuriylar. - T., 1999.
32. Gaspinskiy I. Hayot va mamot masalasi. –Toshkent, Ma’naviyat. 2006.
33. Gerodot. Istoriya. V devyati knigax / Per. s grecheskogo i komment. G.A.Stratanovskogo. – M.: OLMA-PRESS Invest, 2004. – 639 s.
34. Giyasiddin Ali. Dnevnik poxoda Temura v Indiyu. -M. 1958.
35. Gornenskiy I. Тайны империи ЧИngizxana. -M.; 2004.
36. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati.- T., 1999.
37. Jabborov I. O‘zbeklar. – T.: SHarq. 2008.
38. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T., 1964.
39. Ziyoev H.Z. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – T.: Ma’naviyat. 2008.
40. Ibn al-Asir. Al-Komil fi-t-a’rix. – T.: O‘zbekiston. 2006.
41. Ibn Arabshoh. «Amir Temur tarixi». -T.: Mehnat 1992.
42. Imom al-Buxoriy hayoti. - T., 1998.
